

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasida

2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini

ro‘yxatga olishni o‘tkazishni tashkil etish

bo‘yicha respublika komissiyasi

raisining o‘rinbosari,

Milliy statistika qo‘mitasi raisi


B. Hamrayev

2025-yil “21” Oktabr

RO‘YXATGA OLUVCHI

“MAHALLA YETTILIGI” XODIMLARINI

MAXSUS O‘QITISH DASTURI

MUNDARIJA

	Str.
Kirish	4
1-mavzu. 2026-yil O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning huquqiy asoslari	5
2-mavzu. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishning asosiy jihatlari	7
2.1. Ro‘yxatga olish tushunchasi va uni o‘tkazish prinsiplari	7
2.2. Ro‘yxatga olish sanasi	8
2.3. Ro‘yxatga olish usullari, vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarni jalb qilish muddatlari	8
2.4. Respondentlar	8
2.5. Uy xo‘jaligi	9
2.6. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish davrida uyda bo‘lmagan yoki voyaga yetmagan respondentlar hamda vasiylik/homiylikdagi shaxslar bo‘yicha ma’lumot to‘plash xususiyatlari	10
2.7. Respondentning doimiy yashash joyi	11
2.8. Doimiy yashash joyi manzili bo‘yicha uy xo‘jaligi tarkibida ro‘yxatga olinadigan respondentlar toifalari	11
2.9. Boshqa aholi punktidan kelgan talabalar to‘g‘risida shaxsga doir ma’lumotlarni to‘plashning o‘ziga xos xususiyatlari	12
2.10. Oila a‘zolari yoki qarindoshlar bilan birga hisobga olinmaydigan shaxslar toifasi	11
1 - 2-mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar	13
I. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish masalalari bo‘yicha nazariy bilimlarni tekshirish uchun test topshiriqlari	13
II. Bir xonadonda yashovchi uy xo‘jaliklar soni va tarkibini aniqlash bo‘yicha misollar	18
3-mavzu. Vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlar (“maxalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlar) faoliyatini tashkil etish	22
3.1. Vaqtinchalik jalb etiladigan ro‘yxatga oluvchi xodimlar bilan rasmiylashtiriladigan hujjatlar	22
3.2. Vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarning huquqlari va ularga beriladigan kafolatlar	22
3.3. Vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarning majburiyatlari	23
3.4. Vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarning javobgarligi	23
3.5. Respondentlar so‘rovini o‘tkazish jarayonida vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarning xulq-atvor qoidalari	24
3.6. Respublika hududini ro‘yxatga olish uchastkalariga bo‘lish, ro‘yxatga oluvchilarning uchastka boshliqlari, o‘rinbosarlari bilan hamkorligi, ularning vazifalari	26

3.7. Ichki ishlar organlari tomonidan alohida e'tibor talab etiladigan manzillar bilan ishlash, qiyin vaziyatlar yuzaga kelganda ro'yxatga oluvchilarning harakatlari	27
3.8. Ro'yxatga olish savolnomalari shakllari ro'yxati.	27
3.9. Ro'yxatga oluvchilarning ish kunini tashkil etish, statsionar uchastkalarining ish vaqti	28
3.10. Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning ishini nazorat qilish va tahlil etish.	28
3.11. Respondentlar va ro'yxatga oluvchilarni maslahat bilan ta'minlash	28
4-mavzu. "Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning birlamchi ma'lumotlarini kiritish va qayta ishlash bo'yicha axborot tizimi"ning mobil ilovasi bilan ishlash	29
4.1. Mobil ilovani o'rnatish, sozlash va versiyasini yangilash umumiy qoidalari	29
4.2. Mobil ilovani planshet qurilmasiga o'rnatish	29
4.3. Planshet qurilmasida mobil ilovani sozlash	32
4.4. Planshet qurilmasida mobil ilovani yangilash	37
5-mavzu. O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazish uchun savolnoma shakllarini planshet yordamida to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma	42
5.1. Yo'riqnomaning umumiy qoidalari	42
5.2. Aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish xususiyatlari	45
5.3. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish axborot tizimida OneID orqali ro'yxatdan o'tish bo'yicha qo'llanma	48
5.4. Ro'yxatga oluvchilar "Mahalla yettiligi" xodimlari uchun Dasturiy ta'minot bilan ishlashning asosiy tushunchalari	49
6-mavzu. So'rov o'tkazish va ro'yxatga olish savolnomalarini planshet yordamida to'ldirish	53
6.1. 1-shakl "Yashash uchun foydalaniladigan turar joy xususiyatlari, ushbu turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolari ro'yxati"ni to'ldirish tartibi	53
6.2. 2-shakl "Shaxsga doir savolnoma"ni to'ldirish tartibi	73
6.3. 3-shakl "O'zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma"ni to'ldirish tartibi	87
6.4. 4- shakl "Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish savolnoma"ni to'ldirish	89
6.5. 5-shakl "Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma"ni to'ldirish tartibi	92
7-mavzu. Eng ko'p beriladigan savollar	133
Ilova 1	142
Ilova 2	146
Ilova 3	150

Kirish

BMTning tavsiyalariga muvofiq aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish har o'n yilda bir marta o'tkaziladi. Shu davr mobaynida jamiyatda aksariyat demografik va ijtimoiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ushbu o'zgarishlarni baholash va mavjud holatni aniq tavsiflash imkonini beradi. Bu esa davlat tomonidan kelgusidagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni oldindan rejalashtirishda muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ikki asosiy vazifani hal etadi:

mamlakat aholisining sonini aniqlash;

aholining demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash.

Bu ma'lumotlar nafaqat mamlakat miqyosida, balki har bir mahalla, qishloq va shaharcha kabi eng kichik ma'muriy-hududiy birliklar kesimida ham shakllantiriladi.

Ro'yxatga olish natijalari noyob manba hisoblanadi va mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning asosini tashkil etadi. Chunki ular orqali mehnat resurslari soni va sifati, demografik hamda ijtimoiy vaziyat aniq baholanadi va turli aholi guruhlariga (ayollar, bolalar, yoshlar, pensionerlar va boshqalar) oid davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri ham o'zining zamonaviy yondashuvi bilan ajralib turadi:

ro'yxatga oluvchi vaqtinchalik xodimlar planshetdan foydalanadi. Ularda maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilib, elektron shakldagi savolnomalar joylashtiriladi;

fuqarolarga Internet orqali mustaqil ravishda to'ldirish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, respondentlardan ilk bor qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid savollarga javob berishlari so'raladi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish sifatli o'tkazilishi ko'p jihatdan vaqtinchalik ro'yxatga oluvchilarning (keyingi o'rinlarda – ro'yxatga oluvchilar) tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Ro'yxatga oluvchilar aholini so'rovdan o'tkazadilar.

Shuningdek, ularning ishini boshqarib turuvchi uchastkalar boshlig'i va o'rinbosarlari ham muhim o'rin tutadi. Shu bois maxsus o'quv dasturi nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlarni ham qamrab oladi va vaqtinchalik ro'yxatga oluvchilar o'z vazifalarini samarali bajarishlari uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi.

1-Mavzu:

2026-yil O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning huquqiy asoslari

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish O‘zbekiston Respublikasining qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ular ro‘yxatga olishning maqsadi, vazifalari, tashkil etish tartibi, respondentlar va ro‘yxatga oluvchi vaqtinchalik xodimlarning huquq va majburiyatlarini hamda shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlash talablarini belgilaydi.

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning huquqiy asoslari quyidagilar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni – unda ro‘yxatga olishning asosiy tushunchalari, maqsadi va prinsiplari, respondentlar toifasi, ularning huquq va majburiyatlari, vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarning huquq va kafolatlari hamda shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlash belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni – unda ro‘yxatga olish tadbirining mazmuni va mohiyati, shuningdek, uni o‘tkazish tartibi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” PF-173-son Farmoni – unda ro‘yxatga olish muddati va davri, vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlar tarkibi, ularning vazifalari va ayrim imtiyozlari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 629-son qarori bilan tadbirning tashkiliy masalalari belgilab berilgan.

Jumladan, qaror bilan:

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish dasturi;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun savolnoma shakllari ro‘yxati;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish hamda natijalarini e‘lon qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ishchi guruh tarkibi;

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini o‘tkazishning ahamiyati va mazmun-mohiyati bo‘yicha targ‘ibot media-rejasi tasdiqlangan.

Shuningdek, ro'yxatga olishni tayyorlash va o'tkazish jarayonida **O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining** me'yoriy-huquqiy hujjatlariga amal qilinadi.

Jumladan:

O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo'yicha yo'riqnoma - hududiy statistika organlarining tuman, shahar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning tashkiliy rejasini va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning yig'ma tashkiliy rejalarini tuzishda foydalanish uchun mo'ljallangan;

Ro'yxatga olish uchastkalaridagi vaqtincha lavozimlarning (ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i (mahalla raisi), ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosari (profilaktika inspektori), ro'yxatga oluvchi xodimning ("mahalla yettiligi": hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, soliq inspektori, zaxira xodim) yo'riqnoma namunalari;

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish savolnoma shakllarini to'ldirish bo'yicha (planshet va internet orqali) yo'riqnomalar – planshet va internet orqali savolnoma shakllarini to'ldirish jarayoni va savollarga javoblarni kiritish tartibini izohlaydi.

Mavzu 2:

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishning asosiy jihatlari

2.1. Ro'yxatga olish tushunchasi va uni o'tkazish prinsiplari.

Ro'yxatga olish – yalpi hisobga olish asosida aholining, uy-joylarning soni va tarkibi, iqtisodiy birliklarning tarkibi hamda holati to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar olinishini ta'minlaydigan tadbir.

Ro'yxatga olish mamlakatni demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim xususiyatlari hamda yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida amalga oshirilishi mumkin.

Ro'yxatga olish natijasida olingan yakuniy ma'lumotlar:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha davlat dasturlari va istiqboldagi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- aholi soni va tarkibini hisoblash hamda prognoz qilish;
- mehnat resurslari taqsimoti va foydalanilishini o'rganish;
- yer uchastkalarining umumiy maydoni, turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlarining ekin maydoni, mevali-rezavor ko'chatlar va butalar soni va maydoni, shuningdek, chorva mollari, parrandalar va asalari oilalari soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish orqali qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida ma'lumot to'plash;
- qishloq xo'jaligini, shu jumladan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- respublika, alohida mintaqalar va hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot olinadi, shundan kelib chiqib, qishloq xo'jaligining yaqin va o'rta muddatli istiqboldagi rivojlanishi prognoz qilinadi;
- ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

A. Umumiylik va bir vaqtda o'tkazish – ro'yxatga olish paytida O'zbekiston hududida doimiy yoki vaqtinchalik yashovchi, shuningdek doimiy yashab, lekin ro'yxatga olish sanasida vaqtinchalik xorijda bo'lgan har bir fuqaro hisobga olinadi. Jinsi, yoshi yoki ro'yxatdan o'tgan-o'tmaganidan qat'i nazar, har bir inson qamrab olinishi shart.

B. Shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi – ro'yxatga olish jarayonida to'plangan ma'lumotlar ochiqdanmaydi va davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarga taqdim etilmaydi. Ular faqat statistik maqsadlarda foydalaniladi. Vaqtincha jalb etiladigan ro'yxatga oluvchi xodimlar bilan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash to'g'risidagi kelishuv imzolandi. Bu talab buzilgan taqdirda, qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari qo'llaniladi. Ro'yxatga olish savolnoma shakllari to'ldirilgandan so'ng ulardagi ma'lumotlarga kirish chegaralanadi.

C. Dastur va usullarda yagona standartlar – ro‘yxatga olish butun respublika hududida yagona savolnomalar va bir xil usullar asosida o‘tkaziladi. Har bir respondent uchun teng sharoit yaratiladi, ro‘yxatga olish usullari barchaga teng darajada qo‘llaniladi, yashash joyidan qat’i nazar, hamma imkoniyatga ega bo‘ladi.

2.2. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish sanasi

Ro‘yxatga olish 2026-yilning 15-yanvaridan 28-fevraliga qadar o‘tkaziladi va ro‘yxatga olish boshlanishining aniq payti 2026-yil 15-yanvar (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga olish sanasi) soat 00:00 etib belgilanadi.

Shundan keyin sodir bo‘lgan voqealar inobatga olinmaydi. Masalan, ro‘yxatga olish sanasidan keyin tug‘ilgan bolalar uchun savolnoma to‘ldirilmaydi, ammo shu sanadan keyin vafot etgan shaxslar ro‘yxatga olinadi.

Ro‘yxatga olishni o‘tkazish davomiyligi — 45 kun.

2.3. Ro‘yxatga olish usullari va vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlarning ish muddati

Ro‘yxatga olish jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- **1-bosqich** – Internet orqali ro‘yxatga olish va statsionar uchastkalarda so‘rov. Respondentlarga Internet orqali maxsus dastur yordamida savolnomalarni mustaqil to‘ldirish yoki statsionar uchastkaga kelib, o‘z ma’lumotlarini taqdim etish imkoniyati yaratiladi. Bunday statsionar uchastkalar yirik korxonalar va tashkilotlarda ham tashkil etilishi mumkin.

- **2-bosqich** – statsionar uchastkalarga tashrif buyurgan respondentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish davom ettiriladi va ro‘yxatga oluvchilar tashrif buyuradigan manzillar ro‘yxatidan Internet orqali ro‘yxatdan o‘tganlar manzillari chiqarib tashlanadi.

- **3-bosqich** – asosiy ro‘yxatga oluvchilar respondentlarni yashash (yoki vaqtinchalik bo‘lish) joyiga tashrif buyurgan holda ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Zaxira tarkibdagi vaqtinchalik xodimlar tuman ro‘yxatga olish shtabi tomonidan har bir ro‘yxatga olish uchastkasi doirasida shakllantiriladi va zarur hollarda asosiy ro‘yxatga oluvchilar tarkibidagi xodim bilan almashtirilishi mumkin.

Respondentlar bilan so‘rov **faqat savolnomada belgilangan savollar** asosida o‘tkaziladi. Shaxsga doir ma’lumotlarni hujjat bilan tasdiqlash talab etilmaydi. Savolnomada ko‘rsatilmagan ma’lumotlarni yig‘ish qat’iyan man etiladi.

2.4. Respondentlar

Respondentlar deb - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Ular doimiy yoki vaqtinchalik O‘zbekistonda yashovchi yoki vaqtinchalik bo‘lib turgan shaxslardir. Shuningdek, O‘zbekistonda doimiy yashaydigan, ammo ro‘yxatga olish sanasida vaqtinchalik xorijda bo‘lgan fuqarolar ham respondent hisoblanadi.

Doimiy yashovchi aholi sifatida quyidagilar ro'yxatga olinadi:

- O'zbekistonda uzluksiz **1 yil va undan ko'proq vaqt** yashab kelayotgan fuqarolar, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- ro'yxatga olish paytida doimiy yashash joyida (yoki vaqtinchalik yashash joyida) bo'lganlar;
- vaqtinchalik xorijga xizmat safari, ish, o'qish, dam olish yoki davolanish uchun **1 yildan kam muddatga** chiqqan shaxslar.

Shuningdek, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar quyidagi hollarda doimiy yashovchi deb hisoblanadi:

- O'zbekistonga ishlash, o'qish yoki boshqa maqsadlarda **1 yil va undan ko'proq muddatga** kelgan bo'lsa;
- panoh izlab kelgan, ammo yashash uchun ruxsatnoma olmagan bo'lsa ham, mamlakatda **1 yil va undan ortiq** yashab turgan bo'lsa.

Bundan tashqari, O'zbekistonda **1 yildan kam** vaqt bo'lgan, ammo **1 yil va undan ko'proq yashashni rejalashtirayotgan shaxslar** ham doimiy yashovchi sifatida ro'yxatga olinadi.

Vaqtinchalik yashovchi aholi sifatida quyidagilar ro'yxatga olinadi:

Xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar – ro'yxatga olish sanasida xorijdan **1 yildan kam muddatga** (dam olish, o'qish, ish, davolanish, mehmon bo'lish va h.k.) kelgan shaxslar.

Quyidagilar **respondent hisoblanmaydi** va ro'yxatga olinmaydi:

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar doimiy vakolatxonalarining, xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va chet davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari bo'lgan chet el fuqarolari hamda ularning oila a'zolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq diplomatik imtiyozlarga va immunitetga ega bo'lgan boshqa shaxslar;

O'zbekistondan xizmat safari, ish, o'qish, dam olish, davolanish yoki boshqa maqsadlarda xorijga **1 yil va undan ko'proq muddatga** chiqib ketgan shaxslar.

2.5. Uy xo'jaligi.

Uy xo'jaligi – bu birgalikda yashab, hayot uchun zarur bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondiruvchi, umumiy xo'jalik yurituvchi va o'z mablag'larini to'liq yoki qisman birlashtirib sarflaydigan shaxslar guruhi hisoblanadi. Shuningdek, yakka holda yashab, o'z ehtiyojini mustaqil qondiradigan shaxs ham alohida xo'jalik hisoblanadi.

Uy xo'jaligi tarkibiga faqat qarindoshlar emas, balki oila bilan birga istiqomat qiladigan va qarindosh bo'lmagan, ammo xo'jalik byudjetiga hissa qo'shadigan shaxslar ham kiradi (masalan, qariyalar yoki uy xo'jaligi qoshida parvarishda bo'lgan shaxslar).

Bir uy-joyda bir yoki bir nechta xo'jalik yashashi mumkin.

Uy xo'jaliklari **shaxsiy** va **jamoaviy**ga bo'linadi.

Shaxsiy uy xo'jaliklari tarkibiga turar joy binolari – uylar (hovlilar), kvartiralar, yotoqxonalar, dala hovlilar va boshqa yashash uchun foydalaniladigan binolarda yashovchi shaxslar kiradi.

Jamoaviy uy xo'jaliklari tarkibiga ijtimoiy va tibbiyot muassasalarida, kazarmalarda, qamoqxonalarda va diniy tashkilotlarda (madrasalarda) doimiy yashovchi shaxslar guruhi kiradi.

Aholining ayrim toifalari yashaydigan muassasalar (tashkilotlar) jamoaviy uy xo'jaliklari hisoblanadi.

Quyidagi joylarda Ro'yxatga olish ishlari ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladi:

bolalar internatlari, tarbiya muassasalari;

ijtimoiy muassasalar;

diniy muassasalar;

shifoxonalar va boshqa sog'liqni saqlash tashkilotlari;

ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari;

qamoqda saqlash joylari, tergov izolyatori, jazoni ijro etish muassasalari va maxsus muassasalar;

harbiy qismlar va kursantlar tayyorlovchi ta'lim muassasalari joylashgan hududlar.

Shuningdek, alohida uy xo'jaligi a'zolari deb quyidagilar hisoblanadi:

- uy-joyni ijaraga shartnomasi asosida ijaraga olgan shaxslar, chunki ular uy-joyning mulkdori yoki asosiy ijarachisi uy xo'jaligiga kirmaydi;

- tashkilotlarda ishlab, shu tashkilot qoshidagi uy-joylarda doimiy istiqomat qiladigan shaxslar (masalan, bolalar uyidagi tarbiyachilar, shifoxonadagi shifokorlar va h.k.).

Agar respondentlar uy xo'jaligi tarkibini aniqlashda qiynalsa, ularga tushuntirish zarur: **uy xo'jaligi a'zolari deb birga ovqatlanadigan, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishga mablag'ini birgalikda sarflaydigan shaxslar hisoblanadi.**

2.6. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish davrida yo'q bo'lgan yoki voyaga yetmagan, shuningdek, vasiylik yoki homiylik ostidagi respondentlarga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash xususiyatlari.

Ro'yxatga olish jarayonida turli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan:

- Agar xo'jalik a'zosi ro'yxatga olish davrida o'z doimiy yashash joyida bo'lmasa yoki yosh jihatdan balog'atga yetmagan bo'lsa, uning shaxsga doir ma'lumotlarini shu xo'jalikning katta yoshli a'zosi taqdim etadi.

- Agar shaxs ustidan vasiylik yoki homiylik o'rnatilgan bo'lsa, u haqdagi ma'lumotlarni vasiy yoki homiy taqdim etadi.

Shu bilan birga, agar javob berayotgan shaxs respondent haqidagi asosiy ma'lumotlarni (famiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa), tug'ilgan sanasi, jinsi, millati, ona tili, avvalgi yashash joyi, olgan ta'limi, ro'yxatga olish boshlanishidan oldingi haftada haq to'lanadigan ishi bo'lganligi, asosiy ish

joyidagi vazifasi) bilmasa, imkoni boricha to'g'ridan-to'g'ri o'sha respondentning o'zi bilan uchrashish zarur.

2.7. Respondentning doimiy yashash joyi

Respondentning doimiy yashash joyi deb – u o'z vaqtining asosiy qismini o'tkazadigan aholi punkti, yakka tartibda qurilgan uy, kvartira yoki yashash uchun mo'ljallangan boshqa turar-joy tushuniladi. Bu manzil respondentning ro'yxatga olingan manzili bilan mos kelishi yoki kelmasligi mumkin.

Agar respondentning ikki yoki undan ortiq yashash joyi mavjud bo'lsa, doimiy yashash joyi sifatida uning amalda istiqomat qiladigan manzili hisoblanadi. Masalan:

- respondent ro'yxatga olingan uyi mavjud, ammo boshqa uyda (masalan, turmush o'rtog'ining kvartirasida) yashaydi. Bunday holda ma'lumotlar uning amalda istiqomat qilayotgan manzilida (turmush o'rtog'i kvartirasi manzilida) to'planadi;
- respondent ish joyiga yaqin aholi punktidagi uyda yashaydi, ammo dam olish kunlari doimiy yashash joyiga borib turadi. Bunday holda uning ro'yxatga olish savolnomasi doimiy yashash joyi manzilida to'ldiriladi.

Istisno sifatida, agar doimiy yashash joyi bo'yicha respondent haqida ma'lumot beruvchi shaxs topilmasa, unda so'rov uning amaldagi yashash joyida o'tkaziladi.

Agar bola ikki xo'jalikda navbatma-navbat yashasa (masalan, ota-ona ajrashganidan keyin), u bola o'z vaqtining ko'p qismini o'tkazadigan xo'jalik tarkibida ro'yxatga olinadi. Agar bola har ikki ota-onasi bilan teng vaqtda yashasa, u ro'yxatga olish paytida qaysi joyda bo'lsa, o'sha manzilda ro'yxatga olinadi.

2.8. Doimiy yashash joyi manzili bo'yicha uy xo'jaligi tarkibida ro'yxatga olinadigan respondentlar toifalari

Doimiy yashash joyi manzilidagi uy xo'jaligi tarkibida quyidagilar ro'yxatga olinadi:

- ro'yxatga olish davrida tug'ruqxonada bo'lgan yangi (15-yanvar sanasigacha) tug'ilgan chaqaloqlar;
- ta'lim muassasalarida doimiy turish shaklida o'qiyotgan, lekin dam olish kunlari va ta'tillarda uyiga qaytib keladigan bolalar, shuningdek, sanatoriy va sog'lomlashtirish muassasalarida bo'lgan bolalar;
- o'qish joyi o'z yashash manzilida yoki yaqin aholi punktida bo'lgan va har kuni uyiga qaytib kelayotgan talabalar;
- uzoq safarda bo'lgan kemalar ekipaji a'zolari, shuningdek, vaxta usulida ishlaydigan shaxslar;
- vaqtincha yo'q (bir yilgacha) bo'lgan shaxslar: tergov hibsxonasida saqlanayotganlar yoki ma'muriy jazo sifatida ma'muriy qamoqda (15 kungacha) bo'lganlar.

2.9. Boshqa aholi punktidan kelgan talabalar to'g'risida shaxsga doir ma'lumotlarni to'plashning o'ziga xos xususiyatlari

Boshqa aholi punktidan (tuman va shahardan) kelib, umumta'lim yoki oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha kunduzgi shaklda tahsil olayotgan talabalar to'g'risida shaxsga doir ma'lumotlar quyidagicha to'planadi:

- talabalar yotoqxonasida yashasa - ushbu yotoqxona manzili bo'yicha;
- talabalarga yotoqxonada yashash uchun joy ajratilmagan bo'lsa, o'qish davridagi yashash joyi (qarindoshining uyi yoki ijarada turgan turar joy) bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi.

2.10. Oila a'zolari yoki qarindoshlar bilan birga hisobga olinmaydigan shaxslar toifasi

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish paytida quyidagi shaxslar oila a'zolari yoki qarindoshlar uy joyidagi xonadon tarkibiga qo'shilmaydi:

- O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik va boshqa rasmiy vakolatxonalarda ishlayotgan shaxslar hamda ular bilan birga bo'lgan oila a'zolari;
- Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiylar, kontrakt asosida xizmat qilayotgan harbiylar va yopiq hududlarda yashovchi ularning oila a'zolari; shuningdek, harbiy qism tarbiyalanuvchilari;
- Suvorov, kadet o'quv yurtlari va ixtisoslashtirilgan litsey tarbiyalanuvchilari, shuningdek, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kunduzgi ta'lim olayotgan kursantlar;
- Diniy tashkilotlarga tegishli yoki ular foydalanishiga berilgan binolarda yashovchi (yoki vaqtincha bo'lib turgan) shaxslar;
- Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum qolgan bolalar – maxsus internat muassasalari va boshqa bolalarni saqlash va yashashi uchun sharoit yaratilgan muassasalarda istiqomat qiluvchilar;
- Tergov hibsxonasi, qamoqxona, tuzatish muassasalari yoki mehnat-davolash profilaktoriyalarida saqlanayotgan shaxslar;
- Ijtimoiy xizmat muassasalari hamda sog'liqni saqlash tashkilotlarida ro'yxatga olish davrida istiqomat qilayotgan shaxslar;
- Kunduzgi ta'limda tahsil olib, ta'lim muassasasi joylashgan aholi punktida yotoqxona yoki ijara uyda alohida yashaydigan talabalar.

1 - 2-mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar

I. Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish masalalari bo'yicha nazariy bilimlarni tekshirish uchun test topshiriqlari

(To'g'ri javoblar bitta, bir nechta yoki barchasi bo'lishi mumkin)

1. Aholini ro'yxatga olish – bu:

- a) aholi istiqomat qiladigan yoki istiqomat qilishi mumkin bo'lgan uy-joylar va binolar ro'yxatini tuzish;
- b) aholiga ko'rsatiladigan iste'mol tovarlari va to'lovli xizmatlar narxlari hamda tariflarini kuzatish bo'yicha tanlama statistik kuzatuvi;
- v) demografik voqealarning joriy statistik hisobini yuritish;
- g) jamiyatda axborot to'plash uchun konspiratsiya qoidalariga amal qilgan holda olib boriladigan tezkor-qidiruv faoliyati;
- d) O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o'tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni.

2. Aholini ro'yxatga olish quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- a) O'zbekiston Respublikasi aholisining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatini ifodalovchi yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish;
- b) umumiy iste'mol narxlari indeksi hisob-kitoblari uchun zarur ma'lumotlarni olish;
- v) O'zbekiston Respublikasi aholisining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatini ifodalovchi yakuniy ma'lumotlarni tarqatish;
- g) jamiyatda tashqi sivilizatsiyalar vakillarining mavjudligini o'rganish;
- d) xonadonlar turmush darajasini aniqlash.

3. 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish davrini belgilang:

- a) 15 dekabr – 31 yanvar;
- b) 1-yanvar - 31 yanvar;
- v) 15 fevral - 30 mart;
- g) 15-yanvar – 28-fevral.

4. 2026-yilda ro'yxatga olish boshlanish sanasini belgilang:

- a) 15-yanvar;
- b) 15-fevral;
- v) 12 dekabr;
- g) 3-fevral.

5. Aholini ro'yxatga olishning yakuniy ma'lumotlari qaysi maqsadlarda foydalaniladi:

- a) davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari va dasturlarini ishlab chiqish;
- b) aholi soni va tarkibini joriy hisob-kitob qilish hamda bashorat qilish;
- v) mehnat resurslarining joylashishi va ulardan foydalanishni o'rganish;
- g) ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- d) yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini aniqlash.

6. Aholini ro'yxatga olishning asosiy prinsiplari:

- a) umumiylik va bir paytdalik;
- b) ro'yxatga olishning yakka tartibdaligi;
- v) shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi;
- g) aholini ro'yxatga olishni boshqarishning markazlashtirilganligi;
- d) davriylik.

7. Aholini ro'yxatga olish qaysi toifadagi fuqarolarga taalluqli?

- a) faqat chaqiriq yoshidagi erkaklar;
- b) faqat ayollar va bolalar;
- v) faqat pensionerlar;
- g) faqat yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan shaxslar;
- d) mamlakat hududida ro'yxatga olish sanasida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan, shuningdek, doimiy istiqomat qilib, ro'yxatga olish vaqtida vaqtincha xorijda bo'lgan barcha aholi.

8. Respondent ro'yxatga oluvchiga qanday hujjatlarni taqdim qilishi kerak?

- a) pasport, uy-joy va qishloq xo'jaligi uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar;
- b) aholini ro'yxatga olishdan o'tish uchun ariza;
- v) haydovchilik guvohnomasi va avtomobil uchun texnik pasport;
- g) sog'liq holati to'g'risida ma'lumotnoma;
- d) hech qanday hujjat so'ralmasdan, faqat respondentning og'zaki so'zi asosida shaxsga doir ma'lumotlar yig'iladi.

9. Ro'yxatga oluvchi respondentning shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini qanday ta'minlashi kerak?

- a) respondentning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik (tarqatmaslik);
- b) shaxsga doir ma'lumotlarni davlat organlari yoki tashkilotlar vakillariga taqdim etmaslik;
- v) shaxsga doir ma'lumotlarni qarindoshlar, qo'shnilar va boshqa shaxslar bilan muhokama etmaslik.

10. Ro'yxatga oluvchi respondentlarga qaysi savollarni beradi?

- a) ro'yxatga olish dasturida belgilangan va planshetga yuklangan ro'yxatga olish savolnoma shakllaridagi savollarni;
- b) istaganini;
- v) ro'yxatga olish savolnomasidagi savollarga qo'shimcha ravishda uni qiziqtirgan narsalarni;
- g) respondent bilan uni qiziqtirgan mavzularda suhbatlashish.

11. 2026-yilda respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ish qanday usullar orqali amalga oshiriladi?

a) har bir voyaga yetgan respondentdan so'rov o'tkazish hamda respondentlar yashaydigan (bo'lib turgan) turar joylar va boshqa xonalarni aylanib chiqishda ro'yxatga olish savolnomalarini to'ldirish yo'li bilan;

b) statsionar uchastkalarda har bir respondentdan so'rov o'tkazish va ro'yxatga olish savolnomalarini to'ldirish yo'li bilan;

v) respondentlarning o'zi tomonidan maxsus dasturiy ta'minot yordamida Internet tarmog'i orqali ro'yxat savolnomalarini to'ldirishi yo'li bilan;

g) anonim so'rovnomanini to'ldirish orqali.

12. O'zbekiston hududida doimiy istiqomat qiluvchi sifatida kimlar ro'yxatga olinadi?

a) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, mamlakatda uzluksiz bir yil va undan ortiq vaqt istiqomat qilib, ro'yxatga olish kunida doimiy yashash joyida bo'lganlar;

b) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, mamlakatda uzluksiz bir yil va undan ortiq vaqt istiqomat qilib, lekin ro'yxatga olish kunida vaqtincha xorijda xizmat safari, ish, o'qish, dam olish, davolanish yoki boshqa sabab bilan bir yildan oshmaydigan muddatga yo'lga chiqqanlar;

v) xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ro'yxatga olish vaqtida O'zbekistonga ish, o'qish yoki boshqa maqsadda bir yil va undan ko'p muddatga kelganlar;

g) xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ro'yxatga olish kunida O'zbekistonga panoiz izlab kelgan va mamlakatda bir yildan ortiq vaqt bo'lgan, lekin hali yashash huquqi olmaganlar;

d) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ro'yxatga olish kunida mamlakat hududida ro'yxatdan o'tgan, lekin bir yildan ko'p muddat xorijda bo'lib turganlar.

13. O'zbekiston hududida vaqtincha bo'lib turgan respondentlarga kimlar kiradi?

a) xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ro'yxatga olish kunida mamlakatga ish, o'qish yoki boshqa maqsadda bir yilgacha muddatga kelganlar;

b) O'zbekiston fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ro'yxatga olish kunida O'zbekiston hududida bo'lib, bir yilgacha muddat bilan doimiy ravishda xorijga chiqib turadiganlar;

v) ro'yxatga olish kunida xizmat safari, ish, o'qish, dam olish, davolanish va boshqa maqsad bilan xorijga bir yil va undan ortiq muddatga chiqqan shaxslar.

14. Uy xo'jaligi – bu:

a) birgalikda turadigan, hayot uchun zarur barcha vositalar bilan o'zini ta'minlaydigan, umumiy xo'jalik yuritadigan va mablag'larini birgalikda yoki qisman ishlatayotgan shaxslar guruhi;

b) yakka holda yashab, hayot uchun zarur barcha vositalar bilan o'zini ta'minlaydigan shaxs;

v) birga yashab, qarindoshlik munosabati bilan bog'langan shaxslar;

g) oila a'zolari;

d) uy-joyini ijara (qo'shimcha ijara) shartnomasi asosida ijaraga olib yashovchilar;

ye) doimiy ravishda yotoqxona, mehmonxona (xostel, motel va boshqa turistik obyektlar), sanatoriy, dam olish uylari va shu kabi muassasalarda istiqomat qiluvchilar;

j) tashkilotlarda ishlab, doimiy ravishda shu tashkilotga tegishli kvartira yoki uylarda istiqomat qiluvchilar (masalan, bolalar uyi tarbiyachilari, shifoxonadagi shifokorlar va h.k.);

z) birgalikda ovqatlanuvchilar (ya'ni mahsulotlarni xarid qilishga pulni birgalikda sarflaydiganlar);

i) oila bilan birga istiqomat qilayotgan, lekin qarindosh bo'lmagan va uy xo'jaligi byudjetiga o'z hissasini qo'shayotgan shaxslar.

15. Kim uy xo'jaligida yo'q bo'lgan yoki voyaga yetmagan hamda vasiylik yoki homiylikdagi shaxslar uchun shaxsga doir ma'lumotlarni berish huquqiga ega?

a) qo'shnilar;

b) sinf rahbari;

v) yaqin do'st (dugona);

g) voyaga yetgan uy xo'jaligi a'zosi;

d) vasiy yoki homiy.

16. Respondentning doimiy yashash joyi – bu:

a) respondent ro'yxatdan o'tgan manzil;

b) respondent o'zining ko'p qism vaqtlarini o'tkazadigan manzil;

v) respondentga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan barcha uy-joylar;

g) ro'yxatga oluvchi respondentni uchratgan har qanday joy.

17. Uy xo'jaligi tarkibida doimiy yashash manzili bo'yicha ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan shaxslar:

a) ro'yxatga olish kunida tug'ruqxonada bo'lgan chaqaloqlar;

b) haftalik yoki mavsumiy ta'lim muassasalarida o'qib, ta'til va dam olish kunlari uyiga qaytadigan bolalar, shuningdek, sanatoriy va sog'lomlashtirish muassasalarida bo'lgan bolalar;

v) uzoq safarda bo'lgan kema haydovchilari va vaxta usulida ishlaydigan shaxslar;

g) dastlabki qamoq joylarida bo'lganligi, shuningdek ma'muriy qamoq tarzidagi ma'muriy jazoni (15 sutkagacha) o'tayotganligi munosabati bilan vaqtincha (1 yilgacha) bo'lmagan shaxslar;

d) chaqiruv bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar;

ye) o'zlari yashaydigan aholi punkti hududidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar.

18. Boshqa shahar(tuman)lik talabalar so'rovi qayerda o'tkaziladi?

a) yotoqxona manzili bo'yicha - yotoqxonada istiqomat qilayotganlar uchun;

b) bevosita ta'lim muassasasida yoki oliy ta'limdan keyingi ta'limning ta'lim dasturini amalga oshiruvchi tashkilotda tashkil etilgan statsionar uchastkalarda;

v) doimiy yashash joyi manzili bo'yicha respondentlar mansub bo'lgan statsionar uchastkada (ijaraga olingan uyda yashagan taqdirda) - yotoqxonada uy-joy maydoni bilan ta'minlanmagan va ko'rsatib o'tilgan muassasa yoki tashkilot joylashgan joy bo'yicha ro'yxatga olingan ta'lim oluvchilarga nisbatan;

g) ota-onasining yashash joyidagi uy xo'jaligida;

d) ijaraga olingan uy-joy manzili bo'yicha, shu jumladan qarindoshlarnikida.

II. Xonadonlar soni va tarkibini aniqlash bo'yicha bilimlarni tekshirish uchun misollar

Berilgan uy-joyda nechta uy xo'jaligi yashashini va ularning tarkibini aniqlang.

1. Uyda Teshaboyev D.D., uning xotini Teshaboyeva Sh.A., ularning voyaga yetmagan o'g'li va qizi yashaydi. Ular bilan birga katta qizlari turmush o'rtog'i va 2026-yil 16-yanvarda tug'ilgan farzandi bilan yashaydi. Shuningdek, Teshaboyev D.D. ning onasi va otasi ham shu uyda yashashadi. Teshaboyev D.D. xotini va farzandlari, jumladan katta qizlari turmush o'rtog'i va farzandi bilan birgalikda ovqatlanadilar. Teshaboyev D.D.ning onasi va otasi esa alohida ovqatlanadilar.		2. Uyda Karimov A.S., uning rafiqasi Karimova N.V. yashaydi. Ular bilan birga katta qizi turmush o'rtog'i va 2026-yil 13-yanvarda tug'ilgan farzandi bilan yashaydi. Shuningdek, Karimov A.S.ning onasi ham shu uyda istiqomat qiladi. U o'z turmush o'rtog'i 6-yanvarda vafot etganini ma'lum qildi.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>
1		1	
3. Ushbu xonadonda Toshpo'latova Maxfuza Mirzayevna istiqomat qiladi. Uning turmush o'rtog'i Toshpo'latov Botir Karimovich ikki oy ishlaydi, ikki hafta uyda bo'ladi, hozirda Rossiya Federatsiyasida ishlab yuribdi, bir yarim oydan so'ng uyga qaytishi kutilmoqda. Katta qizi Toshpo'latova Maftuna Botirovna uch yildan beri Italiyada yashaydi va ishlaydi. O'g'li Toshpo'latov Dilshod Botirovich boshqa shaharda institutda o'qiydi va o'qish joyidagi yotoqxonada turadi, uyga kamdan-kam keladi. Turmush o'rtog'i, qizi va o'g'li ushbu xonadon manzilida doimiy ro'yxatdan o'tgan.		4. Ushbu xonadonda Yuldasheva Tamara Abdurahmonovna, uning sobiq turmush o'rtog'i va ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari istiqomat qiladi. Ulardan biri shu aholi punktida joylashgan kollejda o'qiydi. Shuningdek, Yuldasheva Tamara Abdurahmonovnaning onasi ham ular bilan birga yashaydi, lekin u kuz-qish mavsumida ushbu uyda, bahor-yoz mavsumida esa o'zining ro'yxatga olingan qishlog'ida yashaydi. Yuldasheva Tamara Abdurahmonovna onasi va farzandlari bilan birga ovqatlanadi, sobiq turmush o'rtog'i esa alohida ovqatlanadi. Katta o'g'li Yuldashev Doniyor Saidovich hozirda harbiy xizmatni o'tamoqda, katta qizi Yuldasheva Ma'rifa Saidovna esa (ushbu manzilda ro'yxatdan o'tgan) boshqa shaharda yashab ishlaydi.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>

5. Ushbu uyda Toshpulatov Ilhom Ilhomovich, uning fuqarolik nikohidagi turmush o'rtog'i, katta o'g'li kelini va ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan yashaydi. Shuningdek, Ilhom Ilhomovichning tug'ishgan akasi xotini, voyaga yetgan qizi va o'g'li bilan birga istiqomat qiladi. O'g'li boshqa shaharda o'qib, ijara uyda turadi, lekin dam olish kunlari uyga kelib turadi.		6. Ushbu uyda Saidova Nargiza Abdukarimovna, uning qizi turmush o'rtog'i va o'g'li bilan, shuningdek, opasi qizi bilan birga istiqomat qiladi. Opasining qizi ro'yxatga olish paytida tug'ruqxonada yangi tug'ilgan farzandi bilan bo'lgan. Nargiza Abdukarimovna qizi va opasi oilasidan alohida ovqatlanadi. Opasi va uning qizi birga ovqatlanishadi. Uydagi bir xona talabaga ijaraga berilgan, u ham alohida ovqatlanadi.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>
7. Ushbu uyda G'ofurov Nuriddin Mahmudovich xotini va qizi bilan birga yashaydi. Qizning ikki farzandi bolalar uyi (maktab-internat)da yashaydi. Qizi ota-onasidan alohida ovqatlanadi.		8. Ushbu uyda ikki nafar Xitoy fuqarosi yashaydi. Ular O'zbekiston Respublikasiga 3 yillik mehnat shartnomasi asosida ishlash uchun kelgan. Har biri alohida ovqatlanadi.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>
9. Uyda O'rinov Vohid Nuriddinovich onasi, xotini va voyaga yetmagan (voyaga yetmagan) qizi bilan birga yashaydi. Ular birgalikda ovqatlanadilar. Ushbu uyning mulkdori Vasilyev G'ulom Saidkarimovich hisoblanadi. U hozirda xotini bilan Polshada yashaydi va konsullikda ishlaydi..		10. Uyda Aleksandrova Valida Abdurashidovna yashaydi. Uning aytishicha, turmush o'rtog'i kema kapitani bo'lib ishlaydi va hozirda uzoq safarda. Qizi esa styuardessa bo'lib ishlaydi va ro'yxatga olish vaqtida xorijda bo'lgan. Aleksandrova V.A. qizi bilan birgalikda ovqatlanishmaydi.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>

11. Uyda B.Botirov turmush o'rtog'i M.Botirova, o'g'li va kelini, 2 nafar nabiralari bilan birga yashaydi va birga ovqatlanishadi. Shuningdek, ushbu uyda 6 oydan buyon Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketgan uylanmagan o'g'li ham ro'yxatda turadi.		12. Uyda Mo'minov Ozod Ilhomovich onasi bilan yashaydi. Uning akasi ham shu uyda yashab kelgan, ammo ro'yxatga olish o'tkazilayotgan sanada ma'muriy jazo tariqasida 15 sutkaga qamoqda bo'lgan. Mo'minov Ozod Ilhomovich onasi bilan alohida ovqatlanadi..	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>
13. Uyda Norov Rustam Davronovich xotini bilan yashaydi. Ikki nafar voyaga yetmagan o'g'illari Temurbeklar maktabida o'qishadi. Xotinining opasi ushbu manzilda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa-da, doimiy ravishda boshqa manzilda yashovchi opasinikida yashaydi. Shuningdek, mehmon sifatida Norov Rustam Davronovichning onasi kelgan bo'lib, u doimiy ravishda respublikadagi boshqa aholi punktlaridan birida qizining uyida yashaydi.		14. Uyda Shomurodov Azamat Ilhomovich xotini, o'g'li va onasi bilan yashaydi, onasi ulardan alohida ovqatlanadi. Shomurodov Azamat Ilhomovichning o'g'li ro'yxatga olish o'tkazilayotgan sanada 6 oy muddatga mehnat-davolash profilaktoriyda bo'lgan. Shuningdek, ushbu manzilda ro'yxatdan o'tgan Shomurodov Azamat Ilhomovichning qizi Angliyaga o'qishga ketgan bo'lib, yiliga ikki oyga uyiga qaytib keladi.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>
15. Uyda Nishonov Sanjar Valiyevich xotini, onasi va xizmat safarida 3 oy muddatga bo'lgan katta yoshli o'g'li bilan yashaydi. Ular birga ovqatlanadilar.		16. Uyda Voxidov Yusuf Lutfullayevich xotini va katta yoshli qizi bilan yashaydi, ular birga ovqatlanadilar. Mehmon sifatida Polshada doimiy yashovchi ammasi kelgan.	
<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo'jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>

17. Uyda Novikova Veronika eri, qizi va kuyovi bilan yashaydi. Nevarasi kechayu kunduz o‘qish tizimiga ega ta’lim muassasasida tahsil oladi va dam olish kunlari hamda ta’til payti uyiga qaytib keladi. Novikova Veronika eri bilan qizi oilasidan alohida ovqatlanadi.		18. Uyda Maxmudov Said Sattorovich yashaydi. U bir xonani Rossiya Federatsiyasidan kelgan oilaga ijaraga bergan. Ushbu oila uch kishidan iborat: erkak, ayol va ularning voyaga yetmagan farzandi. Ular to‘rt yil oldin O‘zbekistonga kelgan va bu yerda doimiy yashashni rejalashtirmoqdalar.	
<i>Uy xo‘jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>	<i>Uy xo‘jaligi soni –</i>	<i>Tarkibi, nafar.</i>
1		1	

3-mavzu:
Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlar
(“mahalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlar)
faoliyatini tashkil etish

3.1. Vaqtinchalik jalb etiladigan ro'yxatga oluvchi xodimlar bilan rasmiylashtiriladigan hujjatlar.

Respondentlar so'rovi boshlanishidan oldin vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlar maxsus o'quv mashg'ulotlaridan o'tadilar. Ushbu mashg'ulotlarda ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishning nazariy jihatlarini o'rgatiladi, mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnoma beriladi, shuningdek, planshetdan foydalanib respondentlar so'rovini tashkil etish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi, planshetga o'rnatilgan maxsus dasturiy ta'minot bilan ishlashga o'rgatish amalga oshiriladi.

O'quv yakunlanishida muammoli masalalar muhokama qilinadi, xatolar tahlil qilinib, yuzaga kelgan qiyinchiliklar bo'yicha tushuntirishlar beriladi, materiallarni o'zlashtirish darajasi tekshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida” PF-173-son Farmoni bilan ro'yxatga olish tadbiri **“mahalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlarni 2025-yil 15-dekabrda 2026-yil 1-martgacha bo'lgan davrda** jalb etish orqali o'tkaziladi.

Bunda O'zbekiston mahallalari uyushmasi Milliy statistika qo'mitasi hamda mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda “mahalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlar planshet qurilmalaridan foydalangan holda ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishini ta'minlaydi.

Ro'yxatga olish tadbirida ro'yxatga oluvchi sifatida ishtirok etadigan “mahalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlar va boshqa jalb etiladigan xodimlar mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir yarim baravari miqdorida (soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni inobatga olgan holda) bir marta rag'batlantiriladi.

Rag'batlantirish to'lovlari tegishli vazirlik, idora va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining so'rovnomasiga asosan Milliy statistika qo'mitasi tomonidan moliyalashtiriladi.

Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlar ro'yxatga olish davrida tegishli guvohnoma (beydjik) bilan ta'minlanadi. Bunda hududiy statistika boshqarmalari amalda jalb etiladigan vaqtinchalik jalb etiladigan ro'yxatga oluvchi xodimlarga guvohnoma (beydjik) bilan ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi.

3.2. Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning huquqlari va ularga beriladigan kafolatlar.

Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlar quyidagi huquqlarga ega:
 qonunchilikda belgilangan tartibda respondentlardan so'rovnoma shakllariga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni ma'lumotlarni olish;

biriktirilgan hududda ro'yxatga olish ishlarni bajarganlik uchun mehnatiga haq olish;

ro'yxatga olish jarayonida tuman/shahar shtabidan va ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'idan kerakli ma'lumotlarni so'rab olish;

targ'ibot maqsadlarida targ'ibot materiallarini bepul asosda qabul qilib olish.

Ro'yxatga olish tadbiriga jalb etiladigan xodimlar uchun ularning asosiy ish joyi, lavozimi va o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi.

3.3. Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning majburiyatlari.

respondent bilan suhbat o'tkazishdan (shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishni boshlashdan) oldin respondentga o'z guvohnomasini ko'rsatish;

o'z vakolatiga muvofiq ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi;

ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i ko'rsatmalari va topshiriqlarini so'zsiz bajarish;

shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish jarayonida ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro'yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

ro'yxatga olish savollarini respondentlarning so'zlari asosida to'ldirish;

shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi, ularning mazmunini oshkor qilmaslik;

aholi va hamkasblari bilan xushmuomala, odob-axloq doirasida munosabatda bo'lish;

ro'yxatga olish davrida maxsus bedjikda bo'lish;

mazkur lavozim yo'riqnomasi shartlariga qat'iy rioya etish.

Ro'yxatga oluvchi boshqa shaxslarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi yoki hayot, sog'liq yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi, shuningdek, statistika organlarining nufuziga zarar yetkazuvchi harakatlardan tiyilishi shart.

3.4. Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning javobgarligi.

Respondentlardan yig'ilgan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi, ularning mazmunini oshkor qilmaydi.

Ro'yxatga olish hujjatlari hamda tovar-moddiy boyliklarni saqlaydi.

Ro'yxatga oluvchi o'ziga yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va majburiyatlarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, o'ziga berilgan vakolatlar va huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi, shuningdek, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini to'g'ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

Ro'yxatga oluvchi xodimning qayd etilgan vazifalari, funksiyalari va majburiyatlarini bajarmasligi, talab darajasida bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi, vakolatlari va huquqlaridan noto'g'ri foydalanishi, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini ijro etmasligi oqibati

xususiyatiga qarab amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishiga olib keladi.

3.5. Respondentlar so'rovini o'tkazish jarayonida vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning xulq-atvor qoidalari.

So'rov boshlanishidan oldin ro'yxatga oluvchi o'zini tanishtiradi va respondentga tashrifdan maqsadini tushuntiradi, shuningdek, ro'yxatga olishda ishtirok etish zarurligi, respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlanishi va so'rovning taxminiy davomiyligi haqida ma'lumot beradi.

Ro'yxatga olish savolnoma shakllari quyidagilar tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlar asosida planshetda to'ldiriladi:

respondentlarning bevosita o'zlari tomonidan;

uy xo'jaligining boshqa voyaga yetgan a'zolari tomonidan - aholini ro'yxatga olishni o'tkazish muddati davomida yashab (turgan) joyida bo'lmagan yoki voyaga yetmagan uy xo'jaligi a'zolariga nisbatan;

vasiylar yoki homiylar tomonidan - vasiylik yoki homiylik belgilangan respondentlarga nisbatan;

Agar ro'yxatga oluvchi uy-joyda nutq va (yoki) eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar yashashini aniqlasa va ular bilan so'rov o'tkazishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, u bunday manzillar haqida ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i yoki uning o'rinbosarini xabardor qiladi.

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i yoki uning o'rinbosari mustaqil ravishda, zarurat bo'lsa, Tuman ro'yxatga olishga ko'maklashish shtabi bilan hamkorlikda tegishli tashkilot (masalan, karlar jamiyati yoki ko'zi ojizlar jamiyati) rahbari bilan muloqotni tashkil qiladi. Bu orqali so'rovni o'tkazishda ko'mak beriladi.

Masalan, tegishli tashkilot rahbari tarjimonni tavsiya qilishi va tarjimon nutq yoki eshitishda nuqsoni bo'lgan respondentlar bilan so'rov o'tkazishda ishtirok etishi mumkin.

Nutq va (yoki) eshitish nuqsoniga ega shaxslar bilan muloqotda muayyan axloq qoidalariga rioya qilish tavsiya etiladi. Masalan, eshitmaydigan inson bilan gaplashishdan oldin unga so'zlashish niyatingizni bildiring, diqqatini jalb qiling: qo'l silking yoki yelkasiga (yoki qo'l to'ppig'iga) teging.

So'zlashganda suhbatdoshingizga to'g'ridan-to'g'ri, "ko'zga-ko'z" qarang. Yuzingizni soya qilmang, uni qo'llaringiz, sochlaringiz, kiyimingiz yoki tibbiy niqob bilan berkitmang. Suhbatdoshingiz sizning artikulyatsiyangizni ko'rishi, yuz ifodasidan yo'l-yo'riq olishi zarur.

Hamma eshitishida muammosi bo'lgan odamlar ham labdan o'qiy olmaydi. Bu haqda ulardan so'rab ko'ring va esda tuting: o'nta so'zdan faqat uchtasinigina yaxshi anglab olish mumkin. Sokin va ravshan gapiring. Ayrim odamlar sizni eshitishi mumkin, ammo ba'zi tovushlarni noto'g'ri qabul qiladi, yuqori chastotalarni eshitmasligi mumkin. Ularga, ayniqsa, qulog'i ostida baqirib gapirish shart emas. Sodda iboralardan foydalaning va ahamiyatsiz so'zlardan qoching.

Agar sizdan biror narsani qayta aytishingizni so‘rasha, gapingizni boshqacha ifoda qilib ko‘ring. Yuz ifodalari, imo-ishoralar va harakatlardan faolroq foydalaning, agar aytganingizning ma‘nosini urg‘ulamoqchi yoki tushuntirmoqchi bo‘lsangiz. Sizni to‘g‘ri tushunganiga ishonch hosil qiling. Suhbatdoshingiz sizni to‘g‘ri tushungan-tushunmaganini so‘rashdan uyalib o‘tirmang. Agar og‘zaki muloqotda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, yozishma yo‘lida muloqot qilish osonroq bo‘lishini aniqlab oling. Bu ayniqsa manzil, raqam, texnik, tibbiy yoki boshqa murakkab atamalarni yetkazishda qulay.

Kar kishilar asosan imo-ishora tilida muloqot qilishni afzal ko‘radilar. Agar tarjimon ishtirokida suhbat olib borilsa, suhbatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitmaydigan shaxs bilan olib boring, tarjimon bilan emas – bu muhim.

Zarur hollarda respondentga 2026-yilda O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazishda qo‘llaniladigan ro‘yxatga olish savolnomalarini to‘ldirish bo‘yicha ko‘rsatmalar va boshqa ro‘yxatga olish hujjatlaridagi savollar yoki javob variantlari haqida qo‘shimcha tushuntirishlar beriladi, shuningdek, planshetda mavjud ma‘lumotnoma orqali izoh taqdim etiladi.

Respondentga planshet ekranida aniqlangan xatoliklar va ziddiyatlar haqida chiqadigan ogohlantirishlar ko‘rsatiladi va ma‘lumotlar aniqlashtiriladi.

Respondentga o‘z hohishidan farqli javob berishga olib keluvchi turli bosim ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Respondentlarni so‘roq qilish jarayonida ro‘yxatga oluvchi odobli va to‘g‘ri xulq-atvorda bo‘lishi shart.

Agar respondent o‘zining yashash (yoki vaqtincha yashash) manzilida so‘rovdan o‘tishdan bosh tortsa, ro‘yxatga oluvchi unga statsionar uchastkada so‘rovdan o‘tish orqali ro‘yxatda ishtirok etish imkoniyatini taklif etadi.

Ro‘yxatga oluvchi bunday respondentning manzilini ro‘yxatga olish uchastkasi boshlig‘i yoki uning yordamchisiga xabar qiladi. Ular esa ushbu respondentlarni ro‘yxatga olishda ishtirok etishini ta‘minlash maqsadida tushuntirish ishlarini olib boradilar (masalan, shaxsan uyiga borish orqali yoki telefon orqali bog‘lanib, ro‘yxatga olishda ishtirok etishning ahamiyati va zarurligini tushuntirish orqali).

So‘rov yakunlangandan so‘ng ro‘yxatga oluvchi quyidagilarni bajarishi zarur:

barcha savolnoma shakllarini to‘ldirilganiga ishonch hosil qilish;
respondentga so‘rovda ishtirok etgani va ajratgan vaqti uchun minnatdorchilik bildirish;

ro‘yxatga olish vositalarini yig‘ish.

Agar ro‘yxatga oluvchi turli vaqtlarda uch marta urinishga qaramay respondent bilan bog‘lana olmasa, imkoniyat bo‘lsa, o‘sha binoning qo‘shnilaridan yoki kerakli ma‘lumotga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslardan yo‘q respondentlar haqida (ish vaqti, uyda bo‘lish vaqti) aniqlab olishi kerak.

3.6. Respublika hududini ro'yxatga olish uchastkalariga bo'lish, ro'yxatga oluvchilarning uchastka boshliqlari, o'rinbosarlari bilan hamkorligi, ularning vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi aholi yashaydigan hududlari shartli ravishda ro'yxatga olish uchastkalari(hisob uchastkalari)ga ajratiladi. Bunda har bir ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i va uning o'rinbosariga, shuningdek, har bir ro'yxatga oluvchiga tushadigan o'rtacha ish yuki hisobga olinadi.

Mahalla chegarasi doirasida mahallaning jami aholisi bitta ro'yxatga olish uchastkasi deb belgilanadi. Ro'yxatga oluvchilarga, yani har bir hisob uchastkasiga to'g'ri keladigan yuklama shahar joylarda o'rtacha 900 kishi, qishloq joylar va borish qiyin bo'lgan hududlarda o'rtacha 700 kishi etib belgilanadi.

Ayrim hollarda hisob uchastkalarini tuzishda ro'yxatga oluvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yuklama belgilangan normalardan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.

Ro'yxatga olish uchastkasi – har bir mahalla fuqarolar yig'inlari tarkibida tashkil etilgan bo'lib, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish davrida ro'yxatga olish jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlarini amalga oshiradi.

Har bir ro'yxatga olish uchastkasiga **uchastka boshlig'i va uning o'rinbosari**, har bir hisob uchastkasiga esa **ro'yxatga oluvchi** (5 xodim va zaxira xodimlar) biriktiriladi.

Respondentlarga o'z uylarida emas, balki boshqa joylarda so'rovdan o'tish imkoniyatini berish uchun mahallalarda **statsionar uchastkalar** tashkil etiladi. Statsionar uchastkalarda so'rovni **uchastka boshlig'i** olib boradi.

Biriktirilgan ro'yxatga olish uchastkasidan mas'ul ro'yxatga oluvchi belgilangan ish hajmi asosida faoliyat yuritadi. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i va uning o'rinbosarining ko'rsatmalari ro'yxatga oluvchi tomonidan o'z vaqtida va aniq bajarilishi shart. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ro'yxatga oluvchi boshqa ro'yxatga oluvchilar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Ro'yxatga oluvchi o'z vaqtida ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i yoki uning o'rinbosarini quyidagilar haqida xabardor qilishi zarur:

qiyin vaziyat vujudga kelganda;

ishda to'siqlar mavjudligi va ularning sabablari (imkoniyati bo'lsa, ushbu to'siqlarni yoki sabablarni bartaraf etish choralarini ko'radi);

xorijiy fuqarolarni so'roq qilish uchun tarjimon zarur bo'lganda;

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik va uning taxminiy davomiyligi haqida.

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i va uning o'rinbosarining faoliyatiga Tuman ro'yxatga olishga ko'maklashish shtabi rahbarlik qiladi.

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i, uning o'rinbosari va ro'yxatga oluvchining namunaviy lavozim yo'riqnomasi 1-3 ilovalarga muvofiq belgilanadi.

3.7. Ichki ishlar organlari tomonidan alohida e'tibor talab etiladigan manzillar bilan ishlash, qiyin vaziyatlar yuzaga kelganda ro'yxatga oluvchilarning harakatlari.

Maxsus o'quv jarayonida ro'yxatga olish uchastkalari rahbarlari yoki ularning o'rinbosarlariga ichki ishlar organlari tomonidan alohida e'tibor talab etiladigan manzillar haqida ma'lumot beriladi.

2026-yil 15-yanvarigacha ro'yxatga olish uchastkalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari ro'yxatga oluvchilarni bunday manzillar haqida ogohlantiradilar, zarurat tug'ilganda hududiy statistika organlari ro'yxatga oluvchilarni shu manzillar bo'ylab ichki ishlar organlari xodimlari hamrohligida ish yuritishini tashkil etadi.

Agar respondent bilan uchrashuv paytida uning spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalar ta'siri ostida ekanligi, ruhiy kasalligi yoki tajovuzkorligi aniqlansa, darhol xonani tark etish va bu holat haqida ro'yxatga olish uchastkasi rahbari yoki uning yordamchisiga xabar berish zarur. Hech qanday holatda tajovuzkor shaxs bilan og'zaki tortishuvga kirishish yoki uning xulq-atvoriga norozilik bildirish mumkin emas.

Agar respondentlar bilan so'rov o'tkazilishi kerak bo'lgan uyda janjal, to'y, dafn marosimi yoki shunga o'xshash holatlar yuzaga kelsa, uydan chiqib, keyinroq yana tashrif buyurish kerak. Agar respondent bemor bo'lsa, boshqa vaqtda kelish bo'yicha kelishib olish zarur.

Agar respondent ro'yxatga oluvchini dasturxonga chaqirsa yoki uzoq suhbatga tortib, uning asosiy vazifasidan chalg'itishga urinsa, muloyimlik bilan rad etish va respondentga ro'yxatga oluvchi ish jadvali juda tig'izligini, hali ko'p respondentlar bilan suhbat o'tkazish zarurligini tushuntirish lozim.

Agar eshikni kattalar yo'qligida bola ochsa, ro'yxatga oluvchi o'zini tanishtirib, butun oilani ro'yxatdan o'tkazish uchun kattalardan birini so'roq qilish kerakligini oddiy va tushunarli tarzda izohlashi kerak. Shu bilan birga kattalar qachon uyda bo'lishini aniqlab olish, ogohlantirish qog'ozi qoldirish va keyinroq yana kelish zarurligini aytish kerak.

3.8. Ro'yxatga olish savolnomalari shakllari ro'yxati.

Planshet yordamida respondentlar bilan so'rov o'tkazish jarayonida quyidagi savolnomalardan foydalaniladi:

1-shakl. Yashash uchun foydalaniladigan turar joy xususiyatlari, ushbu turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolari ro'yxati;

2-shakl Shaxsga doir savolnoma;

3-shakl O'zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma;

4-shakl Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha savolnoma;

5-shakl Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma.

3.9. Ro'yxatga oluvchilarning ish kunini tashkil etish, statsionar uchastkalarining ish vaqti.

Hisob uchastkalarini ro'yxatga oluvchilar tomonidan aylanib chiqish va respondentlardan so'rov o'tkazish soat 9:00 dan 20:00 gacha amalga oshiriladi (qishloq aholi punktlarida ro'yxat uchastkasi boshlig'i so'rovni yakuniga yetkazish uchun yanada ertaroq vaqt belgilash huquqiga ega) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffuslar bilan. Grafikni ro'yxat uchastkasi boshliqlari yoki ularning o'rinbosarlari tuzadi va zaruriyatga ko'ra to'g'rilaydi.

Dam olish va ovqatlanish tanaffuslari ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i, uning o'rinbosari, vakolatli xodim uchun ularning asosiy tarkibdagi ro'yxatga oluvchilar bilan o'zaro almashinuvchanligi hisobga olingan holda rejalashtiriladi.

Statsionar uchastkalar har kuni ishlaydi:

2026-yil 15-yanvar- 28-fevral kunlari – respublika hududi bo'ylab soat 9:00 dan 20:00 gacha;

3.10. Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning ishini nazorat qilish va tahlil etish.

Vaqtinchalik ro'yxatga oluvchi xodimlarning ishini nazorat qilish va tahlil etish maqsadida ish natijalari va harakatlari to'g'risida hisobotlar shakllantiriladi va ro'yxatga olish shtablariga tegishli choralar ko'rish uchun yetkaziladi.

3.11. Respondentlar va ro'yxatga oluvchilarni maslahat bilan ta'minlash.

Respondentlar va ro'yxatga oluvchilarni aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatini o'tkazish masalalari bo'yicha maslahat bilan ta'minlash maqsadida Milliy statistika qo'mitasi, hududiy statistika boshqarmalarida 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha telefon ma'lumot-xizmati (Call-markaz) faoliyatini yo'lga qo'yadi.

Mavzu 4:

“Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning birlamchi ma’lumotlarini kiritish va qayta ishlash bo‘yicha axborot tizimi”ning mobil ilovasi bilan ishlash

4.1. Mobil ilovani o‘rnatish, sozlash va versiyasini yangilash umumiy qoidalar

Mazkur qoidalar “Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning birlamchi ma’lumotlarini kiritish va qayta ishlash bo‘yicha axborot tizimi” (keyingi o‘rinlarda – Tizim) hamda uning mobil ilovasini planshet qurilmalariga to‘g‘ri o‘rnatish, sozlash va o‘z vaqtida ilovaning yangi versiyasi chiqishi bilan yangilanishni o‘rnatishda foydalanuvchi tomonidan bajariladigan vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Bunda quyidagi ta’rif va tushunchalardan foydalanilgan:

axborot tizimi – axborotni yig‘ish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va undan foydalanish imkonini beruvchi axborot resurslari, texnologiyalari va aloqa vositalari to‘plami;

mobil ilova – bu mobil qurilmalar (planshet) uchun mo‘ljallangan, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ma’lumotlarini qabul qilish, uzatish, qayta ishlash va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish funksiyalarini amalga oshiruvchi dasturiy ta’minot;

foydalanuvchi – aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarida planshet qurilmasi yordamida mobil ilova orqali aholi va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha yig‘ilgan ma’lumotlarni belgilangan muddatlarda to‘plash, yig‘ish hamda Tizimga kiritish va yuborish uchun mas’ul bo‘lgan xodim.


4.2. Mobil ilovani planshet qurilmasiga o‘rnatish

Tizimning mobil ilovasini planshet qurilmasiga o‘rnatish uchun quyidagi amallar ketma-ketligi bajariladi:

a) planshet qurilmasining ichki xotirasiga mobil ilovani yuklab olish amalini bajaramiz. Bunda, Tizimning mobil ilovasini planshet qurilmasiga ishonchli manbadan (Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirining ishchi guruh a’zosi – Milliy statistika qo‘mitasi Kiberxavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi boshlig‘ining shaxsiy telegram akkaunti (@BEKBEK00) orqali aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirining ishchi guruhlari uchun ochilgan telegram kanallari va guruhlarga tarqatilgan) yuklab olinadi;


Eslatma! Tizimning mobil ilovasini planshet qurilmasiga boshqa noma’lum va ishonchsiz manbalardan hamda begona shaxslardan olish, yuklab olish va o‘rnatish qat’iy taqiqlanadi.

o‘rnatilgan tartibda planshet qurilmasiga mobil ilova yuklab olinganidan so‘ng ushbu ilova planshet qurilmasining «**Download**» (Zagruzki) yig‘ma jildiga (papka) saqlanadi;




1-rasm. Yuklab olingan mobil ilovaning **“Download”** papkasida saqlangan holda ko‘rinishi.

b) planshet qurilmasiga mobil ilovani o‘rnatish uchun ilovani ustiga bosish amali bajariladi hamda ilovani o‘rnatish oynasida **“Ustanovit”** (O‘rnatish) tugmasi tanlanadi va o‘rnatish jarayoni boshlanadi;




2-rasm. Mobil ilovani o‘rnatish jarayoni oynasi.

d) Playmarket ilovalar yuklab olish platformasida mavjud emas, tekshirilmagan va ushbu platformaga joylashtirilmagan hamda manbasi aniq bo‘lmagan mobil ilovani planshet qurilmasining xavfsizligini ta’minlash maqsadida android tizimi tomonidan o‘rnatilayotgan mobil ilovani tekshirishni taklif etadi. Ushbu ogohlantirish oynasida **“Podrobnee”** tugmasi tanlanadi;




3-rasm. Ogohlantirish oynasida “**Podrobnee**” tugmasi ko‘rinishi.

e) ushbu ogohlantirish oynasida “**Ustanovit bez proverki**” tugmasi bosiladi va o‘rnatish jarayoniga ruxsat beriladi;



4-rasm. Ogohlantirish oynasida “**Ustanovit bez proverki**” tugmasi ko‘rinishi.


f) shundan so‘ng, mobil ilova planshet qurilmasiga o‘rnatish jarayoni davom etadi;



5-rasm. Planshet qurilmasiga mobil ilovasi o‘rnatilayotgan jarayoni.

g) planshet qurilmasiga mobil ilova muvaffaqiyatli o‘rnatilgandan so‘ng ushbu ilova o‘rnatilganligi to‘g‘risida “Prilojeniye ustanovleno” oynasi ochiladi

va ushbu oynada “**Gotovo**” tugmasini bosish orqali o‘rnatish jarayoni yakunlanadi;




6-rasm. Planshet qurilmasiga mobil ilova muvaffaqiyatli o‘rnatilganligi oynasi.

4.3. Planshet qurilmasida mobil ilovani sozlash

Tizimning mobil ilovasini planshet qurilmalarida sozlash uchun quyidagi amallar ketma-ketligi bajariladi:

a) mobil ilova planshet qurilmaga muvaffaqiyatli o‘rnatilgandan so‘ng, planshetning asosiy oynasida “census” ilovasi paydo bo‘ladi. Uni ishga tushirish uchun ilovani ustiga bosiladi hamda ilovaga kirish amalga oshiriladi;



7-rasm. Mobil ilova ishga tushirilgandan so‘ng dastlabki kirish sahifasi.

Eslatma! Mobil ilova birinchi marta ishga tushirilganda internet aloqasi mavjud bo‘lishi majburiydir. Agar ilova ishga tushirilgan paytda qurilma internet tarmog‘iga ulanmagan bo‘lsa, foydalanuvchiga “Internetga ulanish yo‘q” degan ogohlantiruvchi sahifa chiqadi. Ushbu sahifa qurilma Internetga ulanmagan, foydalanuvchi tizimga hali kirmagan yoki tizimga kirish uchun berilgan ruxsat muddati tugagan holatlarda ko‘rsatiladi.




Internetga ulanish yo'q
Internet ulanishini tekshiring

Qayta ishga tushirish


8-rasm. Mobil ilova ishga tushirilganda, qurilmaning Internetga ulanmaganligini bildiruvchi sahifa ko'rinishi.

b) mobil ilova ishga tushirilgandan so'ng dastlabki kirish sahifasida ushbu ilova qurilmani joylashgan joyi (lokatsiya) sozlamasini yoqishni talab etadi va "Razreshit tolko vo vremya ispolzovaniya prilozheniya" tugmasini bosish orqali tanlab ruxsat beriladi;



9-rasm. Mobil ilova ishga tushirilgandan so'ng dastlabki kirish sahifasida lokatsiya sozlamasini yoqish.

Eslatma! Tizimning mobil ilovasi to'g'ri ishlashi uchun doimo qurilma joylashgan joyi (**lokatsiya**) sozlamasi yoniq bo'lishi va ushbu ruxsatga ega bo'lishi hamda planshet qurilmasi joylashgan joyi (**Mestopolojeniye**) sozlamasi yoniq bo'lishi shart!




10-rasm. Lokatsiya sozlamasini yoqish tugmasi.

d) lokatsiya sozlamalari bajarilganidan so'ng foydalanuvchi Tizimga kirishi talab etiladi. Bunda, foydalanuvchi tomonidan Tizimga kirish avvaldan ushbu foydalanuvchiga tegishli ruxsat sozlamasi berilgan ONE IDdan avtorizatsiyadan o'tgan holda amalga oshiriladi;

Eslatma! Tizimga avtorizatsiya muddati faqat joriy kun davomida amal qiladi (Tizimda har kuni soat 02:00 da foydalanuvchining avtorizatsiya amal qilish muddati tugatiladi). Ya'ni, foydalanuvchi har kuni planshet qurilmasida ro'yxatga olish jarayonini boshlashidan avval Internet aloqasini yoqib bir marotaba Tizimga kirish amalini bajarishi shart. Ushbu amal har kuni ro'yxatga olish jarayonini boshlashidan avval bajarilmagan taqdirda, Internet aloqasi mavjud bo'lmagan hududlarda Tizimga mobil ilova orqali kirish imkoniyati cheklanadi.




11-rasm. Foydalanuvchi ONE ID yoki pasport ma'lumotlari orqali Tizimga kirishi usuli tugmasining ko'rinishi.




12-rasm. ONE-ID tizimining avtorizatsiya oynasi.

e) foydalanuvchi Tizimga kirishni muvaffaqiyatli amalga oshirganidan so'ng, mobil ilova xavfsizligini ta'minlash va begona shaxslarning kirish huquqini chegaralash maqsadida, mobil ilovaga maxsus PIN kod o'rnatiladi. PIN kod 4 ta sondan iborat bo'lishi shart hamda ushbu PIN kod har doim mobil ilovaga kirilganida teriladi;




13-rasm. Mobil ilovaga PIN kod o'rnatish oynasi.

f) mobil ilovaga PIN kod o'rnatilganidan so'ng, Tizim ishchi oynasi ochiladi. Bunda, "Jami so'rovnomalar soni", "1-shakl", "2-shakl", "3-shakl", "4-shakl", "5-shakl", "So'rovnomalar ro'yxati", "Internet orqali ro'yxatdan o'tganlar ro'yxati", "Profil egasi" va boshqa tugmalarni ko'rishimiz mumkin;



14-rasm. Tizim ko'rinishi.

g) foydalanuvchi, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonini boshlashi uchun **“So'rovnomalar ro'yxati”** va undan keyin **“Qatnashish”** tugmalarini bosish orqali amalga oshiradi.




15-rasm. Foydalanuvchining aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonini boshlash tugmalari ko'rinishi.

4.4. Planshet qurilmasida mobil ilovani yangilash

Tizim mobil ilovasining yangi versiyasini planshet qurilmalarida yangilash (yangilanishni o'rnatish) uchun quyidagi amallar ketma-ketligi bajariladi:

a) mobil ilovaning versiyasini yangilash uchun planshet qurilmasi avval Internet tarmog'iga ulanadi, so'ngra ushbu mobil ilovaga kirish amalga oshiriladi. Agar Tizimning mobil ilovasi markazlashgan holda versiyasi yangilangan taqdirda, ushbu ilovaga kirish amali bajarilganidan so'ng (ilova asosiy serverga ulanganda), Tizim ushbu ilova versiyasining oxirgi yangilanishga mosligini tekshiradi;

agar ilova oxirgi versiyaga mos bo'lsa, tizimga kirishga ruxsat beradi, aks holda tizimda mobil ilovani "So'ngi versiyaga yangilang" degan ogohlantirish xabari orqali foydalanuvchiga ma'lum qilinadi hamda "Tasdiqlash" tugmasini bosish orqali yangilanish jarayonini boshlash mumkin;




16-rasm. Mobil ilovani yangilash uchun tasdiqlash oynasi.

b) "Tasdiqlash" tugmasi bosilgandan so'ng mobil ilovaning yangi versiyasi Internet tarmog'i orqali Tizimning asosiy serveridan yuklanish jarayoni boshlanadi (ilova o'ziga kerakli bo'lgan sozlamalarni "online" ravishda tizimdan yuklab oladi) va avtomatik sozlashga o'tadi;




17-rasm. Mobil ilovaning yangi versiyasini yuklab olish jarayoni.

Eslatma! Oxirgi yangilanishni olish uchun planshet qurilmasining sozlamalar menyusidan noma'lum manbalardan ilovalarni o'rnatishga ruxsat berish zarur, aks holda ushbu mobil ilovaning yangi versiyasi planshet qurilmasiga o'rnatilmaydi va quyida keltirilgan xabarni ma'lum qiladi!




18-rasm. Mobil ilovani yangilashni talab etadigan ogohlantirish oynasi.

d) noma'lum manbalardan ilovalarni o'rnatishga ruxsat berish va ilovani yangilash uchun, **“Yopish”** tugmasini bosish orqali yangilanish davom etadi;




19-rasm. Mobil ilovaning yangilanish jarayoni.

e) shundan so‘ng, mobil ilova yangilanishni yuklab olish jarayoni vaqtida, **“Noma’lum manbalardan ilovalarni o‘rnatishga ruxsat berish”** talabini bajarish bo‘yicha ogohlantirish beradi;




20-rasm. Noma’lum manbalardan ilovalarni o‘rnatishga ruxsat berish bo‘yicha ogohlantirish oynasi.

f) mobil ilovaning oxirgi yangilanishini planshet qurilmasiga o‘rnatish uchun yuqorida ta’kidlab o‘tilgan **“Noma’lum manbalardan ilovalarni o‘rnatishga ruxsat berish”** sozlamasini yoqish talab etiladi. Bunda, ogohlantirish oynasida **“Nastroyki”** sozlamasiga kiriladi hamda **“Razresheniye dlya etogo istochnika”** sozlamasi yoqiladi (ruxsat beriladi);



21-rasm. Noma’lum manbalardan ilovalarni o‘rnatishga ruxsat berish sozlash jarayoni.

g) noma'lum manbalardan ilovani o'rnatishga ruxsati yoqilganidan so'ng, **"Ustanovit"** tugmasini bosish orqali mobil ilovani o'rnatish davom ettiriladi;




22-rasm. Mobil ilovani o'rnatish jarayoni.

h) mobil ilova oxirgi versiyaga muvaffaqiyatli yangilanganidan so'ng **"Prilojenije ustanovleno"** xabari chiqadi. Shundan so'ng **"Otkrit"** tugmasini bosish orqali tizimga kiriladi;



23-rasm. Mobil ilova yangilanishi muvaffaqiyatli yakunlanganligi to'g'risidagi ogohlantirish oynasi.

i) yangilanishdan keyin mobil ilovaga kirish uchun o'zimiz avval o'rnatgan parol (PIN kod)ni terish orqali Tizimga kiramiz;



24-rasm. Tizimga kirish uchun parolni kiritish sahifasi.

j) mobil ilovaning avvalgi va yangilangan so‘ngi versiyalarini solishtirib ko‘riladi hamda ushbu mobil ilova yangilanganiga ishonch hosil qilinadi.



25-rasm. Ilovani oxirgi va hozirgi versiyalarini solishtirish orqali tekshirish.

Tizimning mobil ilovasi avvalgi va yangilangan so‘ngi versiyalari tekshirilganidan so‘ng yangilanish jarayoni yakunlanadi hamda ushbu ilova aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonlari uchun tayyor hisoblanadi.

Foydalanuvchi Tizimning mobil ilovasini o‘rnatish, sozlash va yangilash ishlarini amalga oshirishda mazkur qoidalarga qat’iy rioya qilishlari talab etiladi.

Tizimning mobil ilovasi faqat android operatsion tizimlar uchun ishlab chiqilgan.

5 mavzu:

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun savolnoma shakllarini planshet yordamida to‘ldirish bo‘yicha yo‘riqnoma

5.1. Yo‘riqnomaning umumiy qoidalar

Ushbu Yo‘riqnoma (keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnoma) O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazishda (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga olish) ro‘yxatga olish savolnoma shakllarini planshet qurilmasi vositasida to‘ldirish tartibini belgilaydi.

Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi va “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonunlarida belgilangan atamalar va ta’riflardan foydalanilgan.

1. Ro‘yxatga olish **2026-yilning 15-yanvaridan 28-fevraliga** qadar o‘tkaziladi va ro‘yxatga olish ma’lumotlari **2026-yilning 15-yanvar** holatiga (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga olish sanasi) yig‘iladi.

Ro‘yxatga olishni o‘tkazish davomiyligi – **45 kunni tashkil qiladi.**

Respondentlarning shaxsga doir ma’lumotlari vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlar (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga oluvchilar), O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonunining 24- moddasida ko‘rsatilgan aholining **ayrim toifalarini** ro‘yxatga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlar xodimlari (keyingi o‘rinlarda – tashkilotlar xodimlari), shuningdek, internet orqali maxsus dasturiy ta’minot yordamida ro‘yxatga oluvchilar tomonidan planshetlarda ro‘yxatga olish ishlari amalga oshiriladi.

2. Respondentlarning shaxsga va qishloq xo‘jaligi faoliyatiga doir ma’lumotlarini to‘plash jarayonida ro‘yxatga olish sanasidan keyin sodir bo‘lgan voqealar va o‘zgarishlar hisobga olinmaydi.

Ro‘yxatga olish savolnoma shakllari va boshqa ro‘yxatga olish hujjatlari **2026-yil 15-yanvardan keyin tug‘ilgan bolalarga** nisbatan to‘ldirilmaydi, biroq ko‘rsatilgan sanadan keyin vafot etgan shaxslarga nisbatan to‘ldiriladi.

Vaqtinchalik ro‘yxatga oluvchi xodimlar respondentlar yashaydigan (yoki bo‘lib turuvchi) turar joy va boshqa binolarga tashrif buyurib, ular bilan so‘rov o‘tkazadilar. Respondentlarning og‘zaki javoblari asosida ma’lumotlar planshet qurilmalari orqali savolnomalarga kiritiladi.

O‘zi yashaydigan turar yoki noturar joyda ro‘yxatdan o‘tishni istamagan respondentlar mahalla fuqarolari yig‘ini binolarida tashkil etilgan **statsionar ro‘yxatga olish uchastkalariga** borgan holda ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin bo‘ladi.

3. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish dasturi asosida ishlab chiqilgan **ro‘yxatga olish savolnomasi** shakllari quyidagilardan iborat:

1-shakl “Yashash uchun turar joy xususiyatlari, ushbu turar joyda doimiy yashaydigan uy xo‘jaligi a’zolari ro‘yxati”;

2-shakl “Shaxsga doir savolnoma”;

3-shakl “O‘zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma”;

4-shakl “Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha savolnoma”;

5-shakl “Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma”;

6-shakl “Yuridik shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma”.

Muassasa yoki tashkilotlar hududi yoki ularga tegishli bo'lgan joylardagi qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlarni yig'ish ularning ma'muriyatlari tomonidan Internet orqali maxsus dasturiy ta'minot yordamida yuboriladi.

Aholining ayrim toifalari yashaydigan muassasalar (tashkilotlar)ga bolalar internatlari, tarbiya muassasalari, ijtimoiy muassasalar, diniy muassasalar, shifoxonalar va boshqa sog'liqni saqlash tashkilotlari, ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari, qamoqda saqlash joylari, tergov izolyatori, jazoni ijro etish va maxsus muassasalar, harbiy qismlar va kursantlar tayyorlovchi ta'lim muassasalari joylashgan hududlar kiradi.

Ushbu muassasalarda ro'yxatga olish ishlari ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, **respondentlar** deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- aholini ro'yxatga olish kuni O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

- aholini ro'yxatga olish kunida mamlakat tashqarisida bo'lgan, lekin doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

5. Quyidagi shaxslar respondentlar qatoriga kirmaydi va ro'yxatga olishga qamrab olinmaydi:

O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy davlatlarning diplomatik vakilliklari, konsullik muassasalari va boshqa rasmiy vakolatxonalari hamda xalqaro tashkilotlarning vakilliklari rahbarlari va xodimlari, shuningdek, xalqaro shartnomalarga muvofiq imtiyoz va daxlsizlikka ega bo'lgan ularning oila a'zolari.

6. Elektron shakldagi savolnomalar respondentlar tomonidan berilgan shaxsiy ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

O'zbekiston Respublikasining “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi Qonunida belgilangan hollarda, shaxsiy ma'lumotlar katta yoshdagi oila a'zolari tomonidan ham taqdim etilishi mumkin.

Vasiylik yoki homiylik o'rnatilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli ravishda vasiylar yoki homiylar tomonidan beriladi:

- respondentlarning doimiy yashash (yoki vaqtinchalik yashash) joyida;

- respondentlar tomonidan mahalla fuqarolar yig'inlari binolarida tashkil etgan statsionar ro'yxatga olish uchastkalariga tashrif buyurilganda;

- respondentlar tomonidan Internet tarmog'idagi maxsus dasturiy ta'minot orqali ro'yxatga olish varaqalarini mustaqil ravishda to'ldirishda.

7. 2026-yilning 15 - 31-yanvar kunlari – Internet orqali ro‘yxatdan o‘tish **(17 kun)**. Bunda respondentlar maxsus tashkil etilgan **census.stat.uz** platformasi orqali o‘zlari ixtiyoriy ravishda ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin.

Shuningdek, tashkil etilgan mobil guruhlar va ro‘yxatga oluvchi xodimlar o‘zlariga biriktirilgan hududda joylashgan yirik korxona hamda tashkilotlarga tashrif buyurgan holda, ularda ishlovchi xodimlarni elektron ro‘yxatdan o‘tishlariga amaliy yordam ko‘rsatadi;

2026-yilning 1 - 3-fevral kunlari – internet orqali ro‘yxatdan o‘tgan respondentlar va ularning uy manzillari ro‘yxati shakllantiriladi **(3 kun)**.

Olingan ro‘yxatlar hududiy statistika organlari va ro‘yxatga olish uchastkalari boshliqlari (ularning o‘rinbosarlari)ga yetkaziladi hamda mazkur manzillarga qayta tashrif buyurmaslik maqsadida “Mahalla yettiligi” tarkibidagi ro‘yxatga oluvchilarga biriktirilgan manzillar ro‘yxatidan internet orqali ro‘yxatdan o‘tgan respondentlar va ularning uy manzillari chiqarib tashlanadi;

2026-yilning 4 - 28-fevral kunlari – ro‘yxatga oluvchilar respondentlarni ro‘yxatga olishni ularning yashash (vaqtincha bo‘lish) manzilida, ularga biriktirilgan hisob uchastkalari hududida amalga oshiradilar. Bunda internet orqali ro‘yxatdan o‘tgan respondentlar va ularning uy manzillari ro‘yxatga oluvchilarga biriktirilgan manzillar ro‘yxatidan chiqarib tashlanadi **(25 kun)**.

Ro‘yxatga olish uchastkasi boshliqlari va o‘rinbosarlari internet orqali ro‘yxatdan o‘tmagan hamda o‘zi yashaydigan turar yoki noturar joyda ro‘yxatdan o‘tishni istamagan respondentlar va statsionar uchastkaga tashrif buyurgan boshqa respondentlar so‘rovini statsionar uchastkalarda o‘tkazadilar **(45 kun)**.

Fermer xo‘jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, hokimlik zaxirasidagi yer maydonlari (asosiy faoliyat turi qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi yerlariga ega tashkilotlarni qo‘shgan holda) uchun **2026-yilning 15-yanvaridan – 28-fevraliga qadar (45 kun)** ro‘yxatga olishning to‘liq davrida internet orqali ro‘yxatdan o‘tadilar va ushbu yo‘riqnomada aks ettirilmaydi.

8. Respondentlar o‘zining (doimiy yoki vaqtincha) yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinadi. Bunda, kunlik tungi dam olishining ko‘proq qismini o‘tkazadigan uy (hovli), kvartira, yashash uchun foydalanilayotgan boshqa turar joy yoki noturar joy bino yashash joyi hisoblanadi.

Bu joy, respondent ro‘yxatdan o‘tgan (ro‘yxatga qo‘yilgan) manzil bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin.

8. Agar respondentning ikki yoki undan ortiq yashash joyi (uylari) mavjud bo‘lsa, u holda respondent amalda yashaydigan manzil doimiy yashash joyi hisoblanadi.

Misol uchun:

agar respondent ro‘yxatga olingan turar joyi mavjud bo‘lib, ammo boshqa joyda (masalan, turmush o‘rtog‘iga tegishli xonadonda) yashasa, shaxsga doir ma’lumotlar respondentning amaldagi yashash joyi bo‘yicha (turmush o‘rtog‘iga tegishli xonadonda) yig‘iladi;

agar respondent ish joyi bo‘yicha joylashgan aholi punktidagi turar (yoki boshqa) joyda yashasa, lekin haftaning oxirida yoki ishdan bo‘sh kunlari doimiy

yashash joyiga borsa, u holda unga tegishli shaxsga doir savolnoma doimiy yashash joyi manzili bo'yicha to'ldiriladi.

Bundan mustasno holat – agar respondent haqida doimiy yashash joyidagi manzil bo'yicha ma'lumot beruvchi shaxslar bo'lmasa, u holda so'rov respondentning amalda bo'lib turgan manzili bo'yicha o'tkaziladi.

Ajrashishdan so'ng farzand ikki oilada navbatma-navbat istiqomat qilayotgan bo'lsa, u holda farzand asosan ko'proq vaqtini o'tkazadigan oila tarkibida ro'yxatga olinadi.

Agar farzand ikki ota-onasi bilan teng muddatda yashasa, u holda ro'yxatga olish kunida qayerda bo'lsa, o'sha manzil bo'yicha ro'yxatga olinadi.

9. Doimiy yashash manzilida ro'yxatga olish davrida bo'lmagan yoki voyaga yetmagan oila a'zolari to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlar katta yoshdagi oila a'zolari tomonidan beriladi.

Vasiylik yoki homiylik o'rnatilgan respondentlar to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli ravishda ularning vasiylari yoki homiylari tomonidan taqdim etiladi.

10. Muassasada (tashkilotda) ishlovchi va shu muassasa (tashkilot) joylashgan manzilda doimiy yashovchi respondentlar to'g'risidagi shaxsga doir ma'lumotlar ro'yxatga oluvchi tomonidan yig'iladi.

Misol uchun: *respondent sanatoriyda qorovul bo'lib ishlaydi va sanatoriy ma'muriyati uning doimiy yashashi uchun xona ajratgan. Respondent yashaydigan bino (xona) bo'yicha 1-shakl to'ldiriladi, respondentning o'zi bo'yicha esa 2-shakl to'ldiriladi.*

Aholining ayrim toifalarini ro'yxatga olish xususiyatlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida **yopiq hududlarda yashovchi**, majburiy harbiy xizmatni o'tayotgan harbiylar, shuningdek, shartnoma asosida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ro'yxatga olishda xizmat o'tayotgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va boshqa davlat boshqaruv organlari tashkilotlari xodimlari tomonidan qamrab olinadi.

Yopiq hududlarda yashamaydigan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari haqidagi shaxsiy ma'lumotlar umumiy qoidalarga muvofiq, ularning doimiy yashash joyi bo'yicha yig'iladi;

jazo muddatini o'tayotgan shaxslar jazo o'tayotgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinadi;

bola internat muassasasida ta'lim olib, dam olish kunlari uyiga qaytadigan bo'lsa, u holda u ota-onasining (otasi yoki onasining) doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinadi;

vaqtinchalik yashash uchun mo'ljallangan tashkilotlarda (kasalxonalar, sanatoriylar, mehmonxonalar va h.k.) doimiy yashovchi deb ro'yxatga olinishi kerak bo'lgan shaxslar - ushbu muassasada **bir yil** yoki undan ko'p muddatdan beri yashab kelayotganlar hisoblanadi;

doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar (uysizlar, boshpanasizlar) ro'yxatga oluvchi ularni uchratgan manzil bo'yicha ro'yxatga olinadi.

Agar ro'yxatga oluvchi o'z uchastkasida uysiz shaxsni uchratsa, unga "4-shakl" to'ldiriladi va ushbu ro'yxatga kiritilgan har bir shaxs bo'yicha "2-shakl" alohida to'ldiriladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarida, shuningdek, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarda ishlovchi fuqarolar hamda ular bilan birga bo'lgan oila a'zolari (shu jumladan, Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvotalangan lavozimlarga yuborilganlar) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

11. Boshqa aholi punktidan (tuman va shahardan) kelib, umumta'lim yoki oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha kunduzgi shaklda tahsil olayotgan talabalar to'g'risida shaxsga doir ma'lumotlar quyidagicha to'planadi:

- talabalar yotoqxonasida yashasa - ushbu yotoqxona manzili bo'yicha;
- talabalarga yotoqxonada yashash uchun joy ajratilmagan bo'lsa, o'qish davridagi yashash joyi (qarindoshining uyi yoki ijarada turgan turar joy) bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi.

Misol uchun:

Andijon viloyatidan kelib, Toshkent shahrida tahsil olayotgan talabalar – Toshkent shahridagi o'qish davridagi yashash manzili bo'yicha, Surxondaryo viloyatidan kelib, Samarqand viloyatida tahsil olayotgan talabalar – Samarqand viloyatidagi o'qish davridagi yashash manzili bo'yicha ro'yxatga olinadi.

12. So'rov davlat tilida o'tkaziladi. Davlat tilini bilmaydigan respondentlar ona tilida yoki erkin ravishda tanlangan muloqot tilida so'rovdan o'tkazilishi mumkin.

Respondent bilan muloqotni ta'minlash maqsadida, agar respondent gaplashadigan tilni bilmasa, Ro'yxatga oluvchi (Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i yoki uning o'rinbosari bilan kelishilgan holda) respondent gaplashadigan chet tilini biladigan shaxslarni (talabalar yoki boshqa chet tilini biladigan shaxslar) jalb etishi mumkin.

13. Ro'yxatga oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini tuzadi, zarur hollarda Ro'yxatga olish uchastkasi xodimlari bilan maslahatlashadi, o'ziga biriktirilgan hududdagi barcha binolarni hisobga olgan holda so'rov o'tkazish uchun qulay bo'lgan yo'nalishni kunlik belgilaydi. Bu yo'nalish shunday tartibda tuzilishi kerakki, bunda xonadonlarni aylanib chiqish va u yerda yashovchi (vaqtincha bo'lib turgan) respondentlardan so'rov o'tkazish imkonini berishi kerak.

Ro'yxatga oluvchilar ish rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga olishi zarur:

kam vaqt sarf etib va qisqa masofani bosib, maksimal miqdorda binolarni aylanib, Ro'yxatga olish ishlarini o'tkazish;

jinoyatchilik ko'p uchraydigan hududlar va tarbiyasi og'ir oilalar bo'lgan xonadonlarga Milliy gvardiya yoki ichki ishlar organlari xodimlari bilan birgalikda tashrif buyurgan holda zarur xavfsizlik choralarini ko'rish.

14. Agar Ro'yxatga oluvchi rejadan sezilarli darajada ortda qolayotgan bo'lsa, Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i (uning o'rinbosari) ushbu holatning sababini aniqlashtiradi va zarur hollarda zaxira tarkibidan qo'shimcha Ro'yxatga oluvchilar jalb etilishi yuzasidan qaror qabul qiladi.

15. Ro'yxatga oluvchi Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i (uning o'rinbosari) ko'rsatmalarini o'z vaqtida va aniq bajarishi shart.

Ro'yxatga oluvchilar ish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar va ularning sabablari bo'yicha Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i (uning o'rinbosari)ga xabar beradi hamda imkon qadar mustaqil ravishda ushbu muammolarni bartaraf qilish choralari ko'radi.

Shuningdek, Ro'yxatga oluvchilar zarurat tug'ilganda oilaviy ahvoli, sog'lig'i va boshqalar bilan bog'liq kutilmagan holatlar haqida Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i (uning o'rinbosari)ga o'z vaqtida xabar berishi kerak.

16. Doimiy yashash joyi bo'yicha uy xo'jaligi tarkibida ro'yxatga olinishi lozim bo'lganlar:

ro'yxatga olish davrida tug'ruqxonada bo'lgan yangi (15 yanvar sanasigacha) tug'ilgan chaqaloqlar;

ta'lim muassasalarida tungi yotoq bilan tahsil olib, dam olish va ta'til kunlarida uyiga qaytadigan bolalar, shuningdek, sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalarida bo'lgan bolalar;

vaxta usulida ishlovchi shaxslar.

17. So'rovni boshlashdan oldin ro'yxatga oluvchi o'zini tanishtirishi, guvohnomasini ko'rsatishi va quyidagilar haqida respondentga ma'lumot berishi shart:

shaxsga doir ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi, ular oshkor etilmaydi yoki tarqatilmaydi hamda faqat yakuniy statistik ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida foydalaniladi;

shaxsga doir ma'lumotlar qayta ishlanganda, respondentni aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar chiqarib tashlanib, ma'lumotlar egasizlantiriladi.

Agar respondent so'rovda ishtirok etishdan bosh tortsa, ro'yxatga oluvchi:

har bir fuqaroning ro'yxatga olishda ishtirok etishi muhim ekanini tushuntirishi;

respondentga qulay bo'lgan vaqtda qayta kelish bo'yicha kelishib olishi;

yoki respondentni tashkil etilgan statsionar ro'yxatga olish punktiga joylashgan statsionar ro'yxatga olishga taklif etishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan choralari ko'rilgandan so'ng respondent ro'yxatga olishda ishtirok etishdan bosh tortganda, ro'yxatga olishning maxsus dasturida "ro'yxatga olishda ishtirok etishdan bosh tortdi" belgisi qo'yiladi.

Agar ro'yxatga olish uchastkasida o'ta ehtiyotkorlikni talab etuvchi manzillar mavjud bo'lsa, ro'yxatga oluvchi ushbu manzillarga ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiya xodimi hamrohligida borishi kerak.

18. Agar respondent bilan suhbatda planshetdan foydalanishning iloji bo'lmasa, bunday istisno holatda ro'yxatga oluvchi bu haqda ro'yxatga olish **uchastkasining rahbari yoki uning o'rinbosariga** xabar berishi va so'rovni qog'oz shaklidagi savolnoma orqali amalga oshirishini ma'lum qilishi lozim.

So'rov o'tkazilgan kunning o'zida to'ldirilgan qog'oz shaklidagi ro'yxatga olish savolnomalaridagi shaxsga doir ma'lumotlar maxsus elektron dasturga kiritiladi va elektron shaklga o'tkazilgach, ushbu ma'lumotlar markaziy serverga avtomatik tarzda yuboriladi. Qog'oz shaklidagi savolnomalar esa shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlagan holda, belgilangan tartibga muvofiq, **shu kunning o'zida yo'q qilinishi** lozim.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish axborot tizimida OneID orqali ro'yxatdan o'tish bo'yicha QO'LLANMA

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish axborot tizimida **OneID** tizimi orqali ro'yxatdan **o'tish uchun, OneID logotipi** ko'rsatilgan ustun tanlanadi, **“Kelishuv shartlari”** katakchasi belgilanadi va so'ngra **“Kirish”** tugmasi bosiladi.

Shundan so'ng, axborot tizimi Sizni **avtomatik tarzda OneID** tizimiga yo'naltiradi.

OneID tizimi – **“Raqamli hukumat”** tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash uchun yagona axborot tizimi bo'lib, u davlat organlari xizmatlarini elektron interaktiv rejimda olish uchun oddiy va xavfsiz kirish imkonini beruvchi tizim shaklidir.

OneID tizimida ro'yxatdan o'tish uchun **id.egov.uz** saytining bosh sahifasida **“Ro'yxatdan o'tish”** havolasiga o'tiladi.

Foydalanuvchi **shartnomasi** va **maxfiylik** shartlari bilan tanishib chiqadi, ushbu ma'lumotlarni o'qib chiqqanligingiz to'g'risidagi katakcha belgilanadi va **“Ro'yxatdan o'tish”** tugmasini bosiladi.

So'ng, ochilgan oynada ro'yxatdan o'tish usuli tanlanadi tegishli maydonlar to'ldiriladi.

Ro'yxatdan o'tishning **ikkita usuli** mavjud: **standart** yoki **elektron raqamli imzo (ERI) yordamida**.

Tizimda **standart tarzda** ro'yxatdan o'tish uchun:

a) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (**JSHSHIR/PINFL** yoki **ID** kartaning ort qismidagi Shaxsiy raqam), **ID karta (pasport) seriyasi va raqami, mobil telefon raqami kiritiladi** va **“SMS yuborish”** tugmasi bosiladi.

b) agar Siz ro'yxatdan o'tish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni to'g'ri ko'rsatgan bo'lsangiz, Siz ko'rsatgan mobil telefon raqamiga tasdiqlash kodi, shuningdek **OneID tizimidagi** shaxsiy kabinetigizga **login va parol ko'rsatilgan SMS yuboriladi**.

(Zaruriy hollarda, login va parolingizni shaxsiy kabinetigizdagi sozlamalar bo'limi orqali o'zgartirishingiz mumkin).

c) ko'rsatilgan maydonga SMS orqali yuborilgan tasdiqlash kodini kiritiladi va **“Ro'yxatdan o'tish”** tugmasi bosiladi.

Tasdiqlash kodi to'g'ri kiritilgan bo'lsa, Siz **OneID tizimidan muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgan bo'lasiz**.

OneID tizimi Sizni **Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish axborot tizimiga** qayta yo'naltiradi.

Ro'yxatga oluvchilar - "Mahalla yettiligi" xodimlari uchun Dasturiy ta'minot bilan ishlashning asosiy tushunchalari

1. Ro'yxatga oluvchilar respondentlar so'rovini planshet qurilmalari orqali o'tkazadi va respondentlar to'g'risidagi shaxsga doir hamda qishloq xo'jaligi faoliyatiga doir ma'lumotlarni planshetdagi savolnoma shakllariga yozib boradi.


2. Ro'yxatga oluvchining planshetida uning yuklamasidagi mavjud turar joy binolari hamda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar ro'yxati mavjud bo'lib, u ro'yxat asosida barcha binolar va subyektlarni joyiga chiqqan holda xatlovdan o'tkazadi.

Shu bilan birga, ro'yxatga oluvchi tomonidan alohida oilalar (notinch va ijtimoiy xavf tug'diradigan oilalar) xonodonga tashrif buyurganda Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari hamrohligida ro'yxatga olish ishlari amalga oshiriladi.

3. Ro'yxatga olish savolnomasi shakllarini elektron shaklda to'ldirish planshetga o'rnatilgan maxsus dasturiy ta'minot (Census) yordamida amalga oshiriladi.

Planshet qurilmasi orqali ro'yxatga olishni boshlash uchun qurilma Internet tarmog'iga ulangan bo'lishi shart.

Dasturiy ta'minotni ishga tushirish uchun ro'yxatga oluvchi planshet ish stolida joylashgan "Census" belgisiga bosishi kerak.



"Census" belgisi bosilgandan so'ng tizimga kirish sahifasi ochiladi.

4. Tizim ishga tushirilgandan so'ng, asosiy oyna sifatida tizimga kirish sahifasi ochiladi. Ushbu sahifada har bir foydalanuvchi o'ziga biriktirilgan **login va parol (ONE ID)** orqali tizimga kirib, ro'yxatdan o'tadi.

Login va parol (**ONE ID**) ma'lumotlari to'g'ri kiritilgandan so'ng, so'rovnomalar ro'yxati sahifasi ochiladi.

5. Ushbu sahifadagi **"So'rovnomalar ro'yxati"** tugmasi bosiladi va keyingi sahifaga o'tiladi.



6. **"So'rovnomalar ro'yxati"** bo'limida **"Qatnashish"** va **"Natija"** tugmalari joylashgan bo'ladi.

≡ SO'ROVNOMALAR RO'YXATI

ID	Nomi	To'ldirish muddati
1	Sinov tariqasida ro'yxatga olish	30 Nov 2025

Qatnashish

Natija

“Qatnashish” tugmasi bosilgandan so‘ng “fuqarolik turini tanlang” bo‘limi sahifasi ochiladi va quyidagi turlarini tanlash imkoniyati yaraladi.

Unda:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaro yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
- Maxsus, ijtimoiy muassasa, tashkilotlarda doimiy yashovchi shaxslar;
- 12 oy va undan ko‘p muddatda O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi chet el fuqarosi;
- 12 oydan kam muddatda O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi chet el fuqarosi.

Ushbu sahifada fuqarolik turidan keraklisi tanlab olinadi va keyingi “So‘rovnomada qatnashishni davom ettirish” sahifasiga o‘tiladi.

“So‘rovnomada qatnashishni davom ettirish” sahifasiga o‘tilishidan oldin sahifaning “IZOH” qismida so‘rovnomalarning tegishli kombinatsiyalarga muvofiq shakllarini to‘ldirish to‘g‘risida ma’lumot olish mumkin.

“Natija” tugmasi bosilganda, avval kiritgan so‘rovnomalarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

SO'ROVNOMALAR RO'YXATI

ID	Nomi	To'ldirish muddati
1	Sinov tariqasida ro'yxatga olish	30 Nov 2025
Qatnashish Natija		

Ushbu bo‘limda siz to‘ldirilgan so‘rovnomalarni ko‘rib chiqib, ularni boshqarishingiz, shuningdek, hali yakunlanmagan (loyiha holatidagi) so‘rovnomalar ustida ishlashingiz mumkin.

7. Respondentlarning shaxsga doir ma’lumotlarini shakllarga kiritish jarayonida qo‘yiladigan savollar quyidagi turdagi javob variantlarini o‘z ichiga oladi:

- planshet qurilmasi virtual klaviaturasi orqali kiritiladigan ma’lumotlar;
- javob variantlaridan tanlab kiritish;

- tizim kalendaridan tanlab kiritish va bir nechta javob variantlarini tanlash imkoniyati.

(**Misol uchun:** Kalendardan tanlashda avvalo **kun, oy va yil** ko'rsatiladi hamda bir nechta javob variantlariga ega savollarda avvalo kerakli javob variant(lar)i tanlanadi, so'ngra tizim oynasidagi bo'sh joyni bosish orqali ro'yxat yopiladi).

8. Savolnoma shakllarini to'ldirish jarayonida **shakllar/bo'limlar nomlari**, ular orasida o'tish tugmalari ko'rinadi.

Xatolik bilan kiritilgan javoblarni tez va oson o'chirish imkoni mavjud – bu turli javoblar qatoridagi chetda joylashgan **“X” belgisini** bosish orqali amalga oshiriladi.

Agar savolnoma shakllarini to'ldirishda savollar tushunarsiz bo'lsa, **“i”** belgisini bosish orqali, ushbu savollarga oid tegishli izohlarni ko'rish mumkin.

So'rovnomani to'ldirishda keyingi sahifaga o'tish uchun **“Davom etish”** tugmasini bosish lozim.

9. Savolnoma shakllarini to'ldirish uchun tizimga mantiqiy nazoratlar o'rnatilgan.

(**Misol uchun:** 1-SHAKLning birinchi bo'limidagi **JSHSHIR** raqami **14 ta raqamdan** kam bo'lmasligi lozim, aks holda ushbu bo'lim kiritilgan raqamni qabul qilmaydi.)

Shuningdek, har bir qatorning pastki qismida mantiqiy xatolar **qizil rangda** belgilab ko'rsatiladi.

10. Agar so'rovnoma to'liq va xatolarsiz to'ldirilgan bo'lsa, siz avtomatik ravishda tizimning bosh paneliga yo'naltirilasiz va **interfeysning** yuqori qismida savolnoma ma'lumotlari saqlangani haqida xabar chiqadi.

11. Savolnomani to'ldirish ishlari yakunlangandan so'ng, yangi savolnomani yaratish uchun **“So'rovnomalar ro'yxati”** bo'limiga o'tiladi va **“Qatnashish”** tugmasi bosiladi.

To'ldirilgan so'rovnomani markaziy serverga yuborish uchun **“So'rovnomalar ro'yxati”** bo'limiga o'tiladi hamda **“Natija”** bo'limi orqali so'rovnoma natijalarini markaziy serverga yuboriladi.

To'ldirilgan so'rovnomani markaziy serverga yuborish uchun planshet qurilmada **Internet tarmog'i to'liq ish holatida bo'lishi zarur**, aks holda ya'ni **Internet tarmog'i mavjud bo'lmasa**, to'ldirilgan so'rovnomalar **“Natija”** bo'limida vaqtinchalik saqlanadi.

Shuningdek, **Internet tarmog'i** ishlaganda **so'rovnomalarni yuborish tugmasini** bosish orqali markaziy serverga yuborish imkoni paydo bo'ladi. Agar mahalla hududida Internetga ulanish imkoniyati bo'lmasa ro'yxatga oluvchi bir nechta xonadonlarni ro'yxatdan o'tkazib, Internet bor joyda chiqqan holda markaziy serverga jo'natiladi.

So'rovnomalar natijasi

12. Tizimning qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalanish uchun interfeysning chap yuqori burchagida joylashgan **“3 (uch) chiziq”** tugmasini bosing.

Bu yerda quyidagi funksiyalardan foydalanish mumkin:

- sahifalarga tez o'tish;
- kerakli tizim tilini tanlash;
- foydalanuvchi shaxsiy panelidan chiqish.

6 mavzu:

So'rov o'tkazish va ro'yxatga olish savolnomalarini planshet yordamida to'ldirish

6.1. 1-shakl "Yashash uchun foydalaniladigan turar joy xususiyatlari, ushbu turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolari ro'yxati"ni to'ldirish tartibi

6.1. 1 - SHAKL doimiy yashayotgan (vaqtincha bo'lib turgan) xonadonlardagi aholi bo'yicha to'ldiriladi.

Ro'yxatga olish jarayonida respondentlardan, ular tomonidan berilgan javoblarning to'g'riligini isbotlovchi hujjatlar, jumladan, pasport, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (nikoh tuzilganlik haqidagi guvohnoma, nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma, bilim darajasini tasdiqlovchi diplom, tilni bilish bo'yicha sertifikat) taqdim etish talab etilmaydi.

Planshet qurilmalarida:

- ro'yxatga olish uchastkasi raqami;
- hisob uchastkasi doirasida turar joy raqami;
- ro'yxatga olish uchastkasi raqami – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tuman (shahar)dagi mavjud mahalla fuqarolar yig'inlari tarkibida tashkil etilgan Ro'yxatga olish uchastkasi raqami;
- hisob uchastkasi doirasida turar joy raqami – ro'yxatga oluvchiga berilgan yuklama doirasida suhbat o'tkazilgan xonadonlarga berilgan shartli tartib raqami.

1-SHAKL

Ro'yxatga olish uchastkasi raqami * ⓘ

1 1/12

Hisob uchastkasi raqami * ⓘ

1 1/12

Hisob uchastkasi doirasida turar joy raqami * ⓘ

1 1/12

Misol uchun:

Ro'yxatga oluvchiga yuklatilgan hisob uchastkasi doirasida u so'rovnoma to'ldirishni boshlagan joydan boshlab tartib raqamini berib boradi. Masalan, ro'yxatga oluvchiga 101 dan 192 gacha bo'lgan xonadonlar to'g'ri keldi.

Agar u 101-xonadonga birinchi bordi va u yerda hech kim bo'lmasa, keyingi 102-xonadonga o'tdi. Agar bu xonadonda eshik ochilib va so'rov o'tkazilsa – aynan shu xonadon hisob uchastkasidagi 1-xonadon hisoblanadi. Keyingisi esa – 2-xonadon, va hokazo.

Planshet qurilmalariga yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tartibli ravishda ro'yxatga oluvchi tomonidan kiritib boriladi.

Xonadon joylashgan manzili va turar joyni turi to'g'risida ma'lumotlar:

- hudud nomi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri);
- tuman, shahar nomi;
- shahar (tuman bo‘ysunuvidagi), shaharcha, qishloq aholi punkti (ovul) nomi;
- mahalla nomi;
- ko‘cha (shoh ko‘cha, tor ko‘cha va boshqalar) nomi; *ko‘cha nomi mavjud bo‘lmasa, ushbu satrga “nomsiz” so‘zi yoki mahalla nomi yoziladi*

1-SHAKL

Hudud nomi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) ⓘ

Qashqadaryo X ▾

Shahar/Tuman ⓘ

Qarshi shahri X ▾

Shaharcha, Mahalla ⓘ

m.f.y. Zaxokimaron X ▾

Ko‘cha (shoh ko‘cha, tor ko‘cha va h.k) nomi ⓘ

AMIR TEMUR

10/250

- turar joyning turi to‘g‘risida;

- bino yoki xonadon raqami mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ushbu ma’lumotlar planshet qurilmasidagi mavjud javob variantlaridan tanlab belgilanadi (ayrim javob variantlari virtual klaviatura yordamida kiritiladi).

Turar joyning turiga quyidagilar kiradi:

Shaxsiy yakka tartibdagi hovli – bir va undan ko‘p bo‘lgan yashash xonalaridan, shuningdek oshxona, yuvinish xona va hojatxonalardan tashkil topgan shaxsiy turar joy;

Ko‘p qavatli uydagi xonadon – ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasiga yoxud bunday uydagi umumiy foydalanadigan joylarga mustaqil chiqish yo‘laklariga ega bo‘lgan ikki va undan ortiq kvartiralar majmuidir;

Dala hovli (dacha) – yakka yoki bir nechta xonalardan iborat, asosan shahar atroflarida joylashgan turar joylar, kirish eshigi bitta yoki bir nechta bo‘lishi mumkin;

Yotoqxona (talabalar yotoqxonasidan tashqari) – maxsus qurilgan yoki qayta jihozlangan, fuqarolarning ish (xizmat) yoki o‘qish davrida yashashi uchun mo‘ljallangan turar joy (uyning bir qismi ham bo‘lishi mumkin);

Mehmonxona (mehmon uyi), xostel – aholi uchun vaqtincha yashashga mo‘ljallangan bino yoki binolar majmuasi, binolar yoki ularning qismlari, bu yerda mehmonxona xizmatlari ko‘rsatiladi;

Talaba va o‘quvchilar yotoqxonasi - talaba yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan yotoqxona;

Yashash uchun foydalaniladigan noturar joy - turar joy uchun mo‘ljallanmagan, ammo yashash maqsadida foydalanilayotgan binolar (ofis, garaj, ombor, shiypon, chayla, chiqindi yig‘ish joyidagi maxsus binolar, palatkalar va boshqalar);

Boshqa turdagi turar joy – turar joy sifatida qayta jihozlangan noturar binolardagi xonalar, ko‘chma turar joylar (vagonlar, yurtalar, treylerlar va h.k.).

Ijtimoiy maxsus tashkilotlarda ishlaydigan va shu tashkilotlar hududidagi turar joylarda doimiy yashovchi respondentlar, qaysi turdagi turar joyda yashashidan kelib chiqib, tegishli javobni tanlaydilar.

Yashash uchun mo'ljallangan turar joy turi ⓘ

1. Shaxsiy yakka tartibdagi hovli
2. Ko'p kvartirali uydagi xonadon
3. Dala hovli (dacha)
4. Yotoqxona (talabalar yotoqxonasidan tashqari)
5. Mehmonxona (mehmon uyi), xostel
6. Talaba va o'quvchilar yotoqxonasi
7. Yashash uchun foydalaniladigan noturar joy
8. Boshqa turdagi turar joy

Misol uchun:

Agar **elektrik** tashkilot hududidagi kvartirada yashasa – “**Ko‘p qavatli uydagi xonadon**” varianti belgilanadi;

Agar elektrik, yashash uchun mo‘ljallanmagan binoning bir xonasida yashasa – “**Yashash uchun foydalaniladigan noturar joy**” varianti belgilanadi.

1 – BO‘LIM

Uy xo‘jaliklari soni, ularning tarkibi va yashash sharoiti

Ro‘yxatga olish savolnoma shakllarini to‘ldirish uy xo‘jaligi tarkibini aniqlashdan boshlanadi.

Uy xo‘jaliklari shaxsiy va jamoaviyga bo‘linadi.

Shaxsiy uy xo‘jaliklari tarkibiga turar joy binolari – uylar (hovlilar), kvartiralar, yotoqxonalar, dala hovlilar va boshqa yashash uchun foydalaniladigan binolarda yashovchi shaxslar kiradi.

Jamoaviy uy xo‘jaliklari tarkibiga ijtimoiy va tibbiyot muassasalarida, kazarmalarda, qamoqxonalarda va diniy tashkilotlarda (madrasalarda) doimiy yashovchi shaxslar guruhi kiradi.

Aholining ayrim toifalari yashaydigan muassasalar (tashkilotlar) jamoaviy uy xo‘jaliklari hisoblanadi.

Quyidagi joylarda Ro‘yxatga olish ishlari ularning ma‘muriyatlari tomonidan amalga oshiriladi:

bolalar internatlari, tarbiya muassasalari;

ijtimoiy muassasalar;

diniy muassasalar;

shifoxonalar va boshqa sog‘liqni saqlash tashkilotlari;

ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari;

qamoqda saqlash joylari, tergov izolyatori, jazoni ijro etish muassasalari va maxsus muassasalar;

harbiy qismlar va kursantlar tayyorlovchi ta'lim muassasalari joylashgan hududlar.

Ro'yxatga oluvchilar o'ziga biriktirilgan hududda joylashgan mehmonxona turidagi muassasalarda Ro'yxatga olish ishlarini ushbu muassasaning ma'muriyati bilan birgalikda amalga oshiradi.

1. Turar joyda yashovchi uy xo'jaliklari soni:

Uy xo'jaligi — bitta turar joyda yoki uning bir qismida (haftada kamida 4 kecha) birgalikda yashaydigan va bir nafar voyaga yetgan erkak yoki ayolni uy xo'jaligi boshlig'i sifatida tan oladigan, yashash uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan o'zini ta'minlaydigan, umumiy ro'zg'or yuritadigan, pul mablag'larini to'liq yoki qisman birlashtiradigan va sarflaydigan shaxslar majmui.

Bu shaxslar qarindoshlik munosabatlarida bo'lishlari ham, bo'lmasliklari ham mumkin. Uy xo'jaligi bir kishidan iborat bo'lishi ham mumkin

Soddaroq qilib aytganda, bitta **“qozon”dan ovqat yeydigan xonadondagi yashovchilar** bitta uy xo'jaligi hisoblanadi.

2. Uy xo'jaliklarda yashovchi oilalar soni:

Uy xo'jaligida bitta yoki bir nechta oila istiqomat qilishi mumkin, shuningdek, bir kishidan iborat uy xo'jaliklari ham mavjud.

Oila – bu, odatda, nikoh yoki qon-qardoshlik orqali birlashgan, birga yashaydigan, umumiy turmush tarzi va iqtisodiy resurslarga ega shaxslar guruhi, ya'ni, oilaga er-xotin, ularning farzandlari (o'gay yoki asrab olingan farzandlari ham) va ayrim hollarda boshqa qarindoshlar ham kiradi.

1-SHAKL

I BO'LIM. UY XO'JALIKLARI SONI, ULARNING TARKIBI VA YASHASH SHAROITI

Ushbu turar joyda yashovchi uy xo'jaliklari soni 1/2

1

Ushbu uy xo'jalik(lar)da yashovchi oilalar soni 1/2

1

Bir turar joyda bir yoki bir nechta uy xo'jaligi yashashi mumkin.

Uy xo'jaligi tarkibiga turar joyda doimiy yashovchi barcha shaxslar kiritiladi, shu jumladan bir yilgacha muddatga vaqtincha yo'q bo'lgan shaxslar (masalan, tergov hibsxonasida saqlanayotganlar yoki ma'muriy qamoq jazosini o'tayotganlar hamda chet elga ketgan fuqarolar).

Biroq, agar shaxs ushbu turar joyda yashamasa, hatto u shu manzilda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa ham, uy xo'jaligi tarkibiga kiritilmaydi.

Misol uchun:

- uy xo'jaligi boshlig'i uning qizi ushbu manzilda ro'yxatdan o'tganini, lekin turmush o'rtog'i bilan boshqa manzilda doimiy yashashini aytsa – bu holda qizi ushbu turar joyda yashamagani uchun uy xo'jaligi tarkibiga kiritilmaydi. Lekin turmushga chiqqan qiz turmush o'rtog'ini xonadonida ro'yxatga olinadi;

- ota-ona doimiy ro'yxatdan o'tgan xonadonda istiqomat qilmasa (ya'ni boshqa farzandining xonadonida doimiy istiqomat qilsa), istiqomat qilayotgan boshqa farzandining xonadonida ro'yxatdan o'tkaziladi.

3. 1-SHAKL 1-BO'LIMda "Uy xo'jaligi tomonidan foydalanilayotgan turar joyning mulkchilik shakli"

Respondent yashab turgan turar joyning mulkchilik shakli uning bergan javobi asosida qayd etiladi.

The screenshot shows a web interface with a header '1-SHAKL' and navigation arrows. Below is a form with a blue header '1 Uy xo'jaligi'. A question 'Uy xo'jaligi tomonidan foydalanilayotgan turar joy kimning mulki?' is followed by a dropdown menu with the following options:

- 1. Davlat mulki
- 2. Xususiy mulk
- 3. Yuridik shaxs mulki
- 4. Ijaraga olingan
- 5. Boshqa

Javob variantlari:

“**davlat mulki**” – yashash uchun mo'ljallangan va davlat mulki shaklidagi turar joylar uchun belgilanadi;

“**xususiy mulk**” – xususiylashtirilgan, shaxsiy yoki qarz mablag'lari hisobidan qurilgan yoki sotib olingan, meros tarzida yoki hadya sifatida olingan turar joylar uchun belgilanadi;

“**yuridik shaxslar mulki**” – davlatga tegishli bo'lmagan yuridik shaxslar mulkidagi turar joylar uchun belgilanadi;

“**ijaraga olingan**” – agar respondent turar joyni boshqa fuqarolardan ijaraga olgan bo'lsa;

“**boshqa**” – agar yuqorida keltirilmagan boshqa mulk shakli mavjud bo'lsa.

4. “**Uy xo'jaligidagi yashash xonalari soni**” uy xo'jaligidagi xonalar soni ya'ni, yashash uchun mo'ljallangan xonalar soni belgilanadi (bunda oshxona, yo'lak, xona ichidagi koridorlar va zinapoyalar, vanna yoki dush, hojatxona, ombor va xo'jalik shkaflaridan tashqari), xonaning bir qismi hamda turar xonalarning umumiy maydoni kvadrat metrlarda ko'rsatiladi.

“**Mavjud xonalarning maydoni**” uy xo'jaligingiz uchun mo'ljallangan barcha yashash xonalari maydonining yig'indisini o'zingizning taxminiy hisobingiz bo'yicha raqamlarda yozing.

1-SHAKL

Xonalar soni * ⓘ

2

1/2

Mavjud xonalarning maydoni (m²) * ⓘ

35

2/4

5. 2026-yilning 15-yanvariga o‘tar kechasi ushbu xonadonda O‘zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari bo‘lganmi?

Mazkur sanada uy xo‘jaligida vaqtincha bo‘lib turgan chet el fuqarolari yoki boshqa davlatda yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mavjud bo‘lsa **“Ha”** javobi belgilanadi va ushbu shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 3- shaklda to‘ldiriladi.

2026 yilning 15-yanvarga o‘tar kechasi ushbu xonadonda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari bo‘lganmi? ⓘ

Ushbu maydon to‘ldirishi shart

6. Turar joy doirasida uy xo‘jaliklarining tartib raqami savolida uy xo‘jaliklar soni avtomatik tarzda belgilanadi va **“Ushbu uy xo‘jalik(lar)da yashovchi oilalar soni:”** savoliga ushbu uy xo‘jaligida yashovchi oilalar soni dan kelib chiqib raqam kiritiladi.

Uy xo‘jaligi a‘zolarini to‘ldirish uy xo‘jaligi a‘zolari tomonidan belgilangan birinchi shaxsni (xo‘jalik (oila) boshlig‘ini) kiritishdan boshlanadi.

7. Respondentning tartib raqami – mazkur savol avtomatik tarzda to‘ldiriladi.

1-SHAKL

1.1

Turar joy doirasida uy xo‘jaligining tartib raqami * ⓘ

1

1/1

Uy xo‘jaligi doirasida oilaning tartib raqami * ⓘ

1

1/2

Respondentlarning uy xo‘jaligi doirasida tartib raqami * ⓘ

1

1/1

8. JSHSHIR – jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami. Ushbu unikal raqam har bir O‘zbekiston fuqarosiga tug‘ilganda beriladi va umrining oxiriga qadar o‘zgarmaydi. JSHSHIR raqami **14 sondan** iborat bo‘lib mantiqiy nazorat o‘rnatilgan.

1-SHAKL

JShShIR * ⓘ

31284040405652

14/14

1. Har bir respondentning **familiyasi, ismi va otasining ismi** to'liq va tushunarli qilib lotin alifbosida kiritiladi.

Familiyasi * ⓘ

ALIYEV

7/100

Ismi * ⓘ

BOBUR

5/100

Otasining ismi * ⓘ

UKTAMOVICH

10/100

10. Respondentning tug'ilgan sanasi. Tug'ilgan sana kalendar yoki yozma ravishda kiritilishi mumkin.

- **tug'ilgan kuni, oyi va yili ketma ketligida belgilanadi.**

- to'liq yashagan yoshi tug'ilgan sanasiga qarab avtomatik ravishda yoziladi.

11. Respondentning jinsi (Erkak yoki Ayol) varianti javoblari tanlanadi.

Tug'ilgan vaqti (kun/oy/yil) * ⓘ

02.11.2002

To'liq yashagan yoshi * ⓘ

23

2/20

Jinsi ⓘ

▼

12. Uy xo'jaligi doirasida birinchi ko'rsatilgan shaxsga **“birinchi ko'rsatilgan shaxs (xo'jalik boshlig'i)”** javob varianti belgilanadi. Uy xo'jaligining boshqa a'zolariga birinchi ko'rsatilgan shaxs, ya'ni xo'jalik (oil) boshlig'iga nisbatan qanday qarindoshlik munosabatda ekanligiga quyida keltirilgan javob variantlaridan mos keladigani belgilanadi:

- **“turmush o'rtog'i”** javob varianti birinchi ko'rsatilgan shaxs, ya'ni xo'jalik (oil) boshlig'i bilan ro'yxatga olingan (ya'ni rasmiy nikohda) yoki ro'yxatga olinmagan nikohda (shar'iy nikohda) bo'lganlarga belgilanadi. Shuningdek, ushbu javob varianti birinchi ko'rsatilgan shaxs bilan **“fuqarolik nikohida”** bo'lganlarga ham belgilanadi;

- **“o‘g‘li/qizi”** javob varianti birinchi ko‘rsatilgan shaxsning, ya’ni xo‘jalik (oil) boshlig‘ining o‘z farzandlari, shuningdek, asrab olgan, o‘gay farzandlariga nisbatan belgilanadi;

- **“otasi/onasi”** javob variantida birinchi shaxsning, ya’ni xo’jalik (oil) boshlig‘ining ota-onasi yoki o‘gay ota-onasi bo‘lsa belgilanadi;

- **“akasi (ukasi)/opasi (singlisi)”** javob variantida birinchi ko‘rsatilgan shaxsning, ya’ni xo‘jalik (oil) boshlig‘ining o‘z aka-ukasi, opa/singli yoki o‘gay akasi (ukasi)/opasi (singlisi) bo‘lsa belgilanadi;

- **“qaynotasi/qaynonasi”** birinchi ko‘rsatilgan shaxsga, ya’ni xo‘jalik (oil) boshlig‘iga nisbatan turmush o‘rtog‘ining otasi va/yoki onasi, bunda ularning nikohlari qayd etilganligi yoki qayd etilmaganligi inobatga olinmaydi;

- **“nabirasi”** javob variantida birinchi ko‘rsatilgan shaxsning, ya’ni xo‘jalik (oil) boshlig‘ining o‘z nabiralari yoki o‘gay nabiralari uchun, shu bilan birga o‘gay farzandlarining bolalariga ham shu javob varianti belgilanadi;

- **“kuyovi/kelini”** javob variantida birinchi ko‘rsatilgan shaxs, ya’ni xo‘jalik (oila) boshlig‘i, farzandining turmush o‘rtog‘i uchun, ularning nikoh holati qanday bo‘lishidan qat’iy nazar belgilanadi;

- **“bobosi/buvisi”** javob variantida birinchi ko‘rsatilgan shaxsning, ya’ni xo‘jalik (oil) boshlig‘ining o‘zining bobosi va/yoki buvisi shuningdek, o‘gay bobosi va/yoki buvisi uchun belgilanadi;

- agar soʻrov oʻtkazilayotgan shaxs birinchi koʻrsatilgan shaxs (xoʻjalik (oil) boshligʻi)ga nisbatan yuqorida keltirilgan qarindoshlik turlaridan boshqa qarindoshlik aloqasi (jiyani, amakisi, togʻasi, ammasi, xolasi, amakivachchalar va h.k.) boʻlsa, **“boshqa qarindoshlik turi”** javob varianti belgilanadi;

- ushbu turar joyda uy xo‘jaligi tarkibiga kiruvchi, ammo birinchi ko‘rsatilgan shaxs (xo‘jalik (oil) boshlig‘i)ga nisbatan hech qanday qarindoshlik aloqasi bo‘lmagan (jumladan, uy xo‘jaligi ishlarida yordam beruvchi yollanma ishchilar, bola parvarishlovchilar, uy ishlarini boshqaruvchi shaxs va uning oila a‘zolari, birinchi ko‘rsatilgan shaxs (xo‘jalik (oil) boshlig‘i)ga nisbatan qarindoshlik aloqasi bo‘lmagan boshqa shaxslar) shaxslar uchun “**qarindosh emas**” javob varianti belgilanadi.

1-SHAKL

Uy xo'jaligida birinchi ko'rsatilgan shaxsga nisbatan qarindoshlik munosabati

1. Birinchi ko'rsatilgan shaxs
2. Turmush o'rtog'i
3. O'gli/qizi (asrab olinganlarni qo'shgan holda)
4. Otasi/Onasi
5. Akasi (ukasi)/Opasi (singlisi)
6. Qaynotasi/Qaynonasi
7. Nabirasi (asrab olinganlarni qo'shgan holda)
8. Kuyovi/Kelini
9. Bobosi/buvisi
10. Boshqa qarindoshlik turi
11. Qarindosh emas

Uy xo'jaligi a'zolarining tarkibini to'ldirish vaqtida, ro'yxatga oluvchi mazkur turar joyda yashovchilarning, boshqa yashash joyi mavjudligini, ushbu turar joyda doimiy yoki vaqtincha yashovchilarni, shuningdek, aholini ro'yxatga olish davrida ushbu turar joyda bo'lmagan respondentlarni va qanday sabablarga ko'ra yashash joyida bo'lmaganini aniqlashi lozim.

Birinchi bo'lib, uy xo'jaligi a'zolaridan **uy xo'jaligining boshlig'i (oila boshlig'i)** aniqlanib, savolnomaga yoziladi. So'ngra uy xo'jaligining boshqa a'zolari to'g'risida ma'lumotlar yoziladi. Bunda quyidagi uy xo'jaligi a'zolarini ro'yxatga olish va qayd etish tartibiga rioya qilinishi lozim:

- er va xotin ketma-ket yoziladi;
- bolalar (voyaga yetgan nikohda bo'lmagan bolalarni ham inobatga olgan holda) o'z ota-onalaridan keyin yoziladi;
- agar uy xo'jaligida bir nechta oila birga yashasa, avval birinchi ota-ona nikohda bo'lmagan farzandlari bilan ketma-ketlikda to'liq yozilib, so'ngra keyingi oila ota-ona va ularning nikohda bo'lmagan farzandlari bilan ketma-ketlikda to'liq yozilishlari lozim.

Misol uchun: Bir uy xo'jaligida bobo/buvi va ularning bitta turmushga chiqmagan qizlari, ikkita yoshi katta uylangan o'g'illari hamda kelinlari va ularning farzandlari birgalikda yashashi mumkin.

Shunday holatda **birinchi** bobo/buvi (*agar oila boshlig'i deb tan olingan bo'lsa*), keyin turmushga chiqmagan qizlari, keyin bitta o'g'lining oilasi keyin ikkinchi o'g'ilning oilasi yoziladi.

- mazkur uy xo'jaligi a'zolariga qarindoshlik yoki boshqa munosabatlari bo'lmagan uy xo'jaligi a'zolari, ro'yxatning oxiriga yoziladilar.

Agar uy xo'jaligida **uch yoki to'rt avlod** iborat oilalar mavjud bo'lsa, ro'yxatga oluvchiga uy xo'jaligining birinchi a'zosi sifatida o'rta avloddan birini yozish tavsiya etiladi.

Misol uchun: quyidagi tartibda yozish lozim:

Abdullayev B.D. turmush o'rtog'i Abdullayeva N.U., qizi Abdullayeva N.B	Birinchi ota-ona va ularning nikohda bo'lmagan farzandlari
o'g'li Abdullayev T.B., o'g'lining turmush o'rtog'i (kelini Abdullayeva M.X.), o'g'lining qizi (nabira Baxodirova N.T.)	Ikkinchi ota-ona va ularning nikohda bo'lmagan farzandlari
Abdullayev B.D.ning onasi Abdullayeva G.R., Abdullayev B.D.ning singlisi Abdullayeva G.D.	Ota-onasi va ularning nikohda bo'lmagan farzandlari
bola parvarishlovchi	qarindoshligi bo'lmagan shaxs

Abdullayev B.D.ning so'zlariga ko'ra, xonadonda bitta uy xo'jaligi bo'lib, uning tarkibiga Abdullayev B.D.ning o'zi, uning onasi, turmush o'rtog'i, nikoh qurgan o'g'li, nikohda bo'lmagan qizi, kelini, nabirasi, singlisi va bola parvarishlovchi kiradi.

Oilaviy holati

13. **Oilaviy holatingiz ? - 15 yosh va undan katta shaxslar uchun to'ldiriladi.** Ushbu savolga respondentning javobi quyidagi javob variantlaridan birini belgilash tanlash orqali tanlanadi:

“**nikoh qurmagan**” – javobi, umuman hech kim bilan nikoh holatida bo'lmagan shaxslar tomonidan tanlanadi;

“**rasmiy nikohda**” – javobi, FHDYO organlarida rasmiy qayd etilgan bo'lsa belgilanadi;

“**ro'yxatga olinmagan nikohda**”- javobi, FHDYO organlarida rasmiy qayd etilmagan bo'lsa yoki faqatgina **shar'iy** nikohdan o'tgan bo'lsa, ushbu javob belgilandi;

“**Beva, tul**” – javobi, oldin nikohda bo'lgan, ammo turmush o'rtog'ining vafot etishi yoki sud tomonidan turmush o'rtog'ining vafot etgan deb topish qaroriga muvofiq hozirda yangi nikohga kirmagan respondentlar uchun belgilanadi;

“**ajrashgan (qonuniy)**” – javobi, respondent oldin FHDYO organlarida qayd etilgan nikohda bo'lgan bo'lib, ammo hozirda uning nikohi FHDYO organlari tomonidan rasmiy ravishda bekor qilingan bo'lsa yoki sud tomonidan ajrim qarori qabul qilingan bo'lsa belgilanadi;

“**ajrashmagan, alohida yashaydi**” – javobi, respondent FHDYO organlarida qayd etilgan nikohda bo'lib, ammo hozirda turmush o'rtog'i bilan birgalikda yashamasa, ya'ni ularning nikohi rasman FHDYO organlarida bekor qilinmagan bo'lsa, yoki nikohi qayd etilmasdan birgalikda yashagan, hozirda birga yashamayotgan respondentlar uchun belgilanadi.

“**rasmiy nikohda**” va “**ro'yxatga olinmagan nikohda**” – javobi to'ldirilgan bo'lsa, respondentlarga turmush o'rtog'i (qayd etilmagan nikohda bo'lgan shaxs)ning uy a'zolari ro'yxatidan tanlanadi.

The image shows a digital interface for a survey. At the top, there is a header bar with the title "1-SHAKL" on the left and navigation arrows on the right. Below the header, there is a section titled "Oilaviy holati" with an information icon. Under this section, there is a list of six options for marital status, numbered 1 through 6:

1. Nikoh qurmagan
2. Rasmiy nikohda
3. Ro'yxatga olinmagan nikohda
4. Beva, tul
5. Ajrashgan (qonuniy)
6. Alohida yashaydi

14. Ushbu ro'yxatga olish sanasida yashayotgan joyi.

Ushbu shaxs ro'yxatga olish davrida qayerda yashayotganligini tegishli javoblardan birini tanlab belgilaydi.

Jumladan:

ushbu aholi punkti (mahalla, qishloq, ovul va boshqa yashash hududlari)da yashovchi shaxslar uchun;

respublikaning boshqa aholi punktida (uy xo'jaligi tarkibiga kiruvchi ammo ro'yxatga olish vaqtida respublikaning boshqa aholi punktlarida yashovchi shaxslar uchun);

boshqa mamlakat hududida yashovchi (ishlash uchun, xizmat safari, davolanish, sayohat yoki boshqa sabablar bilan vaqtincha boshqa mamlakatga ketgan uy xo'jaligi a'zosi) shaxslar uchun. Bunda hozirda bo'lib turgan mamlakatini ko'rsatishi kerak.

1-SHAKL

Ro'yxatga olish sanasida yashayotgan joy ⓘ

1. Ushbu aholi punktida
2. Respublikaning boshqa aholi punktida
3. Boshqa mamlakatda

15. Respondentning mazkur turar joyda doimiy, vaqtinchalik yashashi yoki vaqtinchalik yashamasligi qayd etiladi va ro'yxatda keltirilgan javoblarni tanlab olinadi, jumladan:

ushbu turar joyda doimiy yashaydi;

ushbu turar joyda doimiy yashaydi ammo vaqtinchalik bu yerda emas;

(Misol uchun: *A. Shokirov Samarqandda doimiy ro'yxatda turadi, lekin ro'yxatga olish paytida Toshkentda vaqtincha yashaydi. Demak, A. Shokirovga Samarqandda doimiy ro'yxatda turgan manzili bo'yicha 2-shakl to'ldiriladi*) va ushbu turar joyda vaqtincha turmaslik sababi va muddatiga aniqlik kiritiladi;

respublikaning boshqa hududidan kelib vaqtincha yashaydi.

1-SHAKL

Ushbu joyda doimiy, vaqtinchalik yashaydi yoki vaqtinchalik yashamaydi ⓘ

1. Ushbu turar joyda doimiy yashaydi
2. Ushbu turar joyda doimiy yashaydi, ammo vaqtinchalik bu yerda emas
3. Respublikaning boshqa hududidan kelib, vaqtinchalik yashaydi

2-bo'lim. Yashash uchun foydalaniladigan turar joy xususiyatlari

1. **“Yakka tartibdagi hovli yoki xonadonning umumiy qurilish maydoni, m² (butun sonlarda)”** qismida yakka tartibdagi turar joy uyi, ko'p qavatli turar joy uyi (xonadon) uchun umumiy maydon ko'rsatilishi shart.

Umumiy maydon kvadrat metrlarda butun sonlarda ko'rsatiladi (Misol uchun: 9, 27, 103);

Agar maydon o'lchami butun son emas, ya'ni kasr bo'lsa, butun songacha yaqinlashtirish quyidagicha amalga oshiriladi: agar butun qismdan keyingi son beshdan katta yoki teng bo'lsa — 1 qo'shiladi (Misol uchun: 65,50 va 65,53 = 66); agar beshdan kichik bo'lsa — kasr qismi tashlab yuboriladi (masalan, 65,49 = 65);

Yashash joyining umumiy maydoni (xonadon, yakka tartibdagi uy) — bu yashash xonalari va yordamchi xonalar (oshxona, yo'lak, xona ichidagi koridorlar

va zinapoyalar, vanna yoki dush, hojatxona, ombor va xo‘jalik shkaflari), shuningdek, mansardalar, verandalar va boshqa xonalarning umumiy maydonini o‘z ichiga oladi.

!! Eslatma: Yakka tartibdagi turar joy uyidagi binolardan tashqaridagi maydonlar (masalan, bog‘, gulzor va h.k.) umumiy maydonga kiritilmaydi.

2. “Qurilgan vaqti”:

Agar respondent(lar) **turar joy binosining qurilgan** vaqtini aniq bilishsa, **“aniq qurilgan yili”** javob varianti belgilanadi hamda aniq qurilgan yili yoziladi.

Binolarning qurilgan vaqtini aniqlashda, mazkur bino qachondan, nechanchi yildan boshlab foydalana boshlaganligi inobatga olinib, savolnoma to‘ldiriladi.

Misol uchun: turar joy qurilishi 2009-yilda boshlanib, 2010-yilda yoki 2016-yilda tugatilgan va foydalanishga topshirilgan bo‘lsa **“2010-2016”** javobi belgilanadi. Agarda turar joy rekonstruksiya qilingan bo‘lsa yoki noturar joydan turar joyga aylantirilgan bo‘lsa, unda binoning rekonstruksiya vaqti inobatga olinib, javob belgilanadi.

Agarda respondent(lar) turar joy binosining qurilgan vaqtini aniq bilmasa, **“noma‘lum”** javob varianti belgilanadi.

The image shows a digital form titled "Qurilgan vaqti" (Built time) with a list of 10 options for selecting the year or period of construction. The options are:

1. Aniq qurilgan yili
2. 1966 yilgacha
3. 1966-1969 yillar
4. 1970-1979 yillar
5. 1980-1989 yillar
6. 1990-1999 yillar
7. 2000-2009 yillar
8. 2010-2022 yillar
9. 2023 yildan keyin
10. Noma'lum

3. “Tashqi devorlarining asosiy materiali”:

- agar uy devorlari pishgan g‘ishtdan barpo etilgan bo‘lsa, **“pishgan g‘isht”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari betondan (monolit) barpo etilgan bo‘lsa, **“beton (monolit)”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari xom g‘ishtdan barpo etilgan bo‘lsa, **“xom g‘isht”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari paxsa bo‘lsa, **“paxsa”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari blokdan (shu jumladan, penabeton, gazobeton) barpo etilgan bo‘lsa, **“blok (pena blok, gazo blok, beton)”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari tabiiy yoki sun‘iy toshlardan barpo etilgan bo‘lsa, **“tosh”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari yog‘och yoki taxtadan barpo etilgan bo‘lsa, **“yog‘och/taxta”** javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari bir nechta materiallardan barpo etilgan bo‘lsa, masalan, uyning birinchi qavati yoki biror-bir qismi, xonasi g‘isht yoki toshdan, qolgan

qismi, ikkinchi qavati taxtadan qurilgan bo'lsa, "**aralash materiallar**" javob varianti belgilanadi;

- agar uy devorlari yuqorida sanab o'tilgan materiallardan tashqari boshqa materiallardan barpo etilgan bo'lsa "**boshqa materiallar**" varianti belgilanadi.

Tashqi devorlarning asosiy materiali

1. Pishgan g'isht
2. Xom g'isht
3. Beton (monolit)
4. Paxsa
5. Blok (penoblok, gazablok va boshqa)
6. Tosh
7. Yog'och/taxta
8. Aralash materiallar
9. Boshqa materiallar

4. "Yashash joyida mavjud qulayliklar, shu jumladan sanitar gigiyenik sharoitlar bo'yicha qulayliklar":

Quyida keltirilgan qulayliklar (sharoitlar)dan birini yoki bir nechtasini belgilang:

Suv ta'minoti:

- **markaziy suv tizimiga ulangan (uy ichiga)** – agar suv markaziy quvurlar orqali turar joy ichidagi suv taqsimlash tarmog'iga kelib tushgan bo'lsa, "**uy ichiga kiritilgan**" javob varianti belgilanadi. Bunda hovlidagi alohida oshxonaga ulangan suv ta'minoti ham inobatga olinadi;

- **markaziy suv tizimiga ulangan (uy tashqarisida)** – agar suv markaziy quvurlar orqali turar joy tashqarisidagi suv taqsimlash tarmog'iga kelib tushgan bo'lsa, "**uy tashqarisida**" javob varianti belgilanadi;

- "**tashib kelinadigan**" – javob varianti maxsus mashinalar orqali aholi punktlari suv bilan ta'minlanadigan bo'lsa yoki uy xo'jaligi a'zolari tomonidan suv manbaiga velosiped, mototsikl, yengil avtomobil, arava va boshqa vositalar orqali borib suv olib kelingan hollarda belgilanadi;

- "**boshqa turdagi**" – javob varianti uy xo'jaligining suv ta'minoti yuqoridagilardan tashqari boshqa manbalar (**masalan:** quduq, bosma kran, hovuz, buloq va boshqalar) bo'lsa belgilanadi.

Suv ta'minoti mavjud bo'lmasa "**mavjud emas**" javobi tanlanadi.

Suv ta'minoti

Ushbu maydon to'ldirishi shart

Hojatxona

☒ 1. Markaziy suv tizimiga ulangan (uy ichida)

☐ 2. Markaziy suv tizimiga ulangan (uy tashqarisida)

☐ 3. Tashib kelinadigan

☐ 4. Boshqa turdagi (quduq, bosma kran, buloq)

☐ 5. Mavjud emas

Tasdiqlash

Hojatxona:

- **uy ichida suv bilan yuviladigan** – hojatxona turar joy ichida joylashgan bo‘lib, suv bosimi orqali kanalizatsiyaga oqizib yuborilsa, ushbu javob varianti belgilanadi. Bunda suv quvuri mavjudligi shartli belgi sifatida qabul qilinadi;

- **uy tashqarisida suv bilan yuviladigan** – hojatxona turar joy tashqarisida joylashgan bo‘lib, suv bosimi orqali kanalizatsiyaga oqizib yuborilsa, ushbu javob varianti belgilanadi. Bunda suv quvuri mavjudligi shartli belgi sifatida qabul qilinadi;

- **uy tashqarisida maxsus tozalanadigan yama shaklida** – ushbu hojatxona turi ma’lum bir chuqurlikka ega bo‘lib uni faqat maxsus axlat olish mashinasi yoki qo‘l ishi orqali tozalanib boriladi;

- **uy tashqarisida maxsus tozalanmaydigan yama shaklida** – ushbu hojatxona turi ma’lum bir chuqurlikka ega bo‘lib uni tozalash ishlari amalga oshirilmaydi va to‘lganda ko‘mib yuboriladi;

- **mavjud emas** – yuqorida keltirilgan javoblardan **hech biri bo‘lmagan** taqdirda, ushbu javob varianti belgilanadi.

1-SHAKL

Hojatxona *

Ushbu maydon to'ldirilishi shart

Isitish tizimi *

☐ 1. Suv bilan yuviladigan (uy ichida)

☐ 2. Suv bilan yuviladigan (uy tashqarisida)

☐ 3. Uy tashqarisida (yerda qazilgan, maxsus tozalanadigan yama shaklida)

☐ 4. Uy tashqarisida (yerda qazilgan, maxsus tozalanmaydigan yama shaklida)

☐ 5. Mavjud emas

Tasdiqlash

Isitish tizimi:

- **markaziy tizimga ulangan** – turar joy markaziy qozonxona yoki ko‘p kvartirali uy qozonxonasi (lokal) orqali isitiladigan bo‘lsa, ushbu javob belgilanadi;

- **yakka tartibdagi isitish qurilmalari** – turar joy xonadonining muqobil gaz, suv isitgichi, mahalliy, markazlashmagan gaz qozonxonalari orqali, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalari orqali isitiladigan bo‘lsa, ushbu javob belgilanadi;

- **pechlar (o‘tin, ko‘mir va boshqalar)** – turar joy qattiq (ko‘mir, o‘tin) yoki boshqa yoqilg‘i manbalaridan foydalanilgan holda isitilsa, ushbu javob belgilanadi;

- **mavjud emas** - yuqorida keltirilgan javoblardan **hech biri bo‘lmagan** taqdirda, ushbu javob varianti belgilanadi.

1-SHAKL

Isitish tizimi *

Ushbu maydon to'ldirilishi shart

Gaz *

☐ 1. Markaziy tizimga ulangan

☐ 2. Yakka tartibdagi isitish qurilmalari

☐ 3. Pechlar (o'tin, ko'mir va boshqalar)

☐ 4. Mavjud emas

Tasdiqlash

Gaz ta'minoti:

- **markaziy gaz tarmog'iga ulangan** – turar joy markaziy gaz tarmog'i orqali gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, mazkur javob belgilanadi;

- **suyultirilgan gaz (ballon)** – turar joy yakka tartibdagi yoki mahallalardan taqdim etib boriladigan suyultirilgan gaz ballonlari bilan ta'minlangan bo'lsa, mazkur javob belgilanadi;

- **mavjud emas** – yuqorida keltirilgan javoblardan **hech biri bo'lmagan** taqdirda, ushbu javob varianti belgilanadi.

Gaz *

Ushbu maydon to'ldirilishi shart

Issiq suv ta'minoti *

☐ 1. Markaziy gaz tarmog'iga ulangan

☐ 2. Suyultirilgan gaz (ballon)

☐ 3. Mavjud emas

Tasdiqlash

Issiq suv ta'minoti:

- **markaziy tizimga ulangan** – uy xo'jaligining maishiy ehtiyojlari uchun issiq suv maxsus markaziy suv quvurlari orqali ta'minlansa, ushbu javob belgilanadi;

- **yakka tartibdagi suv isitish qurilmalari** – turar joyga kelib tushadigan issiq suv, yakka tartibda o'rnatilgan maxsus suvni isitishga mo'ljallangan (gaz, ko'mir, dizel, elektr va boshqa) maxsus qurilmalar yordamida isitiladigan bo'lsa, mazkur javob belgilanadi;

- **mavjud emas** – turar joyda yuqorida ko'rsatilgan markaziy issiq suv ta'minoti yoki maxsus isitish qurilmalari umuman mavjud bo'lmagan taqdirda ushbu javob varianti belgilanadi.

1-SHAKL

Issiq suv ta'minoti * ⓘ

Ushbu maydon to'ldirilishi shart

Kanalizatsiya tizimi * ⓘ

a ulangan

☐ 2. Yakka tartibdagi suv isitish qurilmalari

☐ 3. Mavjud emas

Tasdiqlash

Kanalizatsiya tizimi:

- **markaziy tizimga ulangan** – xonadon ichida kanalizatsiya quvurlari orqali markaziy kanalizatsiya tizimiga ulangan;

- **yakka tartibda** – yakka tartibdagi kanalizatsiya orqali oqizib yuboriladigan, bunda maxsus qazilgan chuqur va quduqlar ham inobatga olinadi;

- **mavjud emas** – turar joyda foydalanilgan suvni oqizib yuborish uchun umuman kanalizatsiya tizimi mavjud emas.

Kanalizatsiya tizimi * ⓘ

Ushbu mavdon to'ldirilishi shart

Yuvinish joyi * ⓘ

☐ 1. Markaziy tizimga ulangan

☐ 2. Yakka tartibda

☐ 3. Mavjud emas

Tasdiqlash

Yuvinish joyi:

- turar joyning ichkarisida va/yoki tashqarisida **dush, vanna, hammom yoki boshqa turdagi** yuvinish joylaridan birortasi mavjud bo'lsa, mos javob varianti belgilanadi.

Agarda yuqorida keltirilgan javoblarning bir nechitasi mavjud bo'lgan taqdirda, uy xo'jaligi a'zolari tomonidan kundalik yuvinish maqsadida asosan qaysi yuvinish joyi turidan ko'proq foydalansa, ana shu javob belgilanadi;

- turar joyda yuqorida sanab o'tilgan javoblarning **birortasi ham mavjud bo'lmasa**, yuvinish joyi **mavjud emas** javobi belgilanadi.

Elektr ta'minoti:

- **markaziy elektr tarmog'iga ulangan** – turar joyda elektr kabellari (simlar) o'tkazilgan bo'lib, elektr markaziy tarmoq orqali uzatilsa, ushbu javob belgilanadi;

- **yakka tartibdagi elektr tarmog'i** (muqobil energiya manbalari) – turar joy markaziy elektr tarmog'iga ulanmagan bo'lib, uy xo'jaligi a'zolari tomonidan yakka tartibdagi maxsus qurilmalar orqali elektr bilan ta'minlangan bo'lsa, ushbu javob belgilanadi;

- turar joy hech qanday elektr tarmog'iga ulanmagan bo'lsa **“mavjud emas”** javob varianti belgilanadi.

Internetga ulanish imkoniyati:

Uy xo'jaligi a'zolari tomonidan Internetdan foydalanish imkoniyatini belgilab beradi.

Bunda uy xo'jaligi a'zolari tomonidan Internetga qanday usul bilan ulanishining ahamiyati yo'q.

Uy xo'jaligi a'zolari Internetga telefon kabellari (optik tolali) orqali, **Wi-Fi router** (maxsus qurilmalar) orqali, mobil telefonlar orqali ulanish imkoniyatiga ega bo'lsalar, **“mavjud”** javob varianti belgilanadi.

Uy xo'jaligi a'zolari tomonidan umuman Internetdan foydalanish imkoni bo'lmasa, **“mavjud emas”** javob varianti belgilanadi.

Maishiy chiqindilarni markazlashtirilgan yig'ish xizmati:

Mazkur turar joy (uy xo'jaligi a'zolari) tomonidan tashlangan chiqindilarni, maxsus belgilangan hamda ma'lum turar joylar, ko'p kvartirali uylar, xonadonlarga xizmat qiladigan joylardan markazlashgan holda maxsus transport vositalari orqali chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadi.

Maishiy chiqindilarni markazlashtirilgan yig'ish xizmati ⓘ

1. Ha

2. Yo'q

5. **“Uy xo'jaligi a'zolarining 2025-yil davomida qishloq xo'jalik yerlari (tomorqasi) yoki 2026 yilning 15 yanvar holatiga chorva mollari va parrandalari bo'lganmi?”** savoliga asosan ushbu uy xo'jaligi a'zolaridan birining qishloq xo'jalik yerlari (tomorqasi) yoki qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari mavjud bo'lsa, **“Ha”** javobini belgilang va **5-SHAKL – “Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma”**ni to'ldirish lozim.

Uy xo'jaligi azolaridan birining 2025-yilda yer uchastkalari (yer uchastkalarining bir qismi) va (yoki) 2026-yil 15 yanvar holatiga qishloq xo'jaligi xayvonlari hamda parrandalar uning mulkida, egaligida yoki foydalanishida bo'lganmi? ⓘ

1. Ha

2. Yo'q

Orqaga Davom etish

Agar mazkur turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolarining hech biri qishloq xo'jaligi yerlariga, qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarga ega bo'lmasa, **“Yo'q”** javobini belgilang (6.2-satr).

Agar 6-savolga **“Ha”** javobi belgilansa, 7-savol ochiladi: **«Uy xo'jaligi a'zolari ro'yxatidan qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchisini ko'rsating».**

☐ 1.1 BAXTIYOR YULDASHEV

☐ 1.2 MUXABBAT YULDASHEVA

☐ 1.3 AKMAL YULDASHEV

☐ 1.4 GULRUX YULDASHEVA

Тасдиқлаш

Ushbu savolda mazkur turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolari ro'yxatidan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan va bir-biridan mustaqil ravishda boshqaruvni amalga oshirayotgan barcha boshqaruvchi shaxslar ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. **Tomorqa xo'jaligi.**
2. **Yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligi.**

MA'LUMOT UCHUN!

Yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari 5-Shakl «Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma» ni to'ldirmaydi.

Ushbu xo'jaliklar 6-Shakl — «Yuridik shaxslar uchun qishloq xo'jaligi ni ro'yxatga olish savolnoma»ni **e-Stat.4 axborot tizimi orqali internet tarmog'ida** to'ldiradi.

3. Tomorqa xo'jaligi va yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligini bir vaqtning o'zida yuritish.

Agar bir shaxs tomorqa xo'jaligini ham, yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligini ham boshqarsa, ushbu ikki faoliyat turi bo'yicha bitta 5-shakl to'ldiriladi.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchi shaxs - bu xo'jalik rahbari nomidan xo'jalikni boshqaradigan shaxs yoki ushbu xo'jalik rahbari bo'lib, xo'jalikdagi kunlik moliyaviy va ishlab chiqarish operatsiyalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

DIQQAT!!!

Qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchi **shaxslar soniga qarab, shu miqdorda 5-shakl ketma-ket tarzda** to'ldiriladi.

Quyida keltirilgan misollar mazkur turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolari orasida mustaqil qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchi shaxslarni aniqlashga yordam beradi. (E'tibor bering: ko'rsatilgan mustaqil boshqaruvchilar soni to'ldiriladigan 5-shakllar soniga to'g'ri keladi).

✓ Agar yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligi yoki tomorqa xo'jaligi qishloq xo'jaligi maqsadlarida (huquqiy hujjatsiz) foydalanilayotgan yer maydonlariga ega bo'lsa va bu yer maydonlari ro'yxatga olish o'tkazilayotgan mahalla hududida joylashgan bo'lsa, ushbu barcha yer uchastkalari bo'yicha qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish uchun yagona umumiy savolnoma (5-shakl) to'ldiriladi.

✓ Agar alohida bir xonadonda (bir tom ostida) yashovchi ikki yoki undan ortiq uy xo'jaligi birgalikda yagona xo'jalik rahbari (boshqaruvchi) tomonidan bitta yuridik shaxs tashkil etmagan xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, bu xo'jalik uchun umumiy (bitta) 5-shakl savolnomasi to'ldiriladi.

✓ Agar hovlida tomorqa yer uchastkasi bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsuloti faqat shu yer uchastkasida yetishtirilsa (ishlab chiqarilsa), ushbu tomorqa yer uchastkasi bo'yicha tomorqa xo'jaligi uchun bitta savolnoma to'ldiriladi.

✓ Agar uy xo'jaligi boshlig'i tomorqa yer uchastkasiga ega bo'lgan yakka tartibdagi uyga, shuningdek so'rov o'tkazilayotgan mahalla hududida joylashgan va qishloq xo'jaligi maqsadlarida vaqtinchalik foydalanishga (ijaraga, ikkilamchi ijaraga yoki mustaqil ravishda o'zlashtirilgan) olingan yer uchastkalariga ega bo'lsa, ushbu yer uchastkalarining barchasi bo'yicha bitta 5-shakl savolnomasi to'ldiriladi.

✓ Agar uy xo'jaligi boshlig'i yoki a'zosi boshqa-boshqa tumanlarda joylashgan ikki alohida umrbod meros qilib olinadigan egalik huquqiga ega yer uchastkasi

mavjud bo'lgan turar joylarga ega bo'lsa, har bir yer uchastkasi mavjud bo'lgan turar joy bo'yicha alohida 5-shakl savolnomasi to'ldiriladi.

✓ Agar alohida bir xonadonda (hovlida, bir tom ostida) yashovchi ikki yoki undan ortiq uy xo'jaligi yagona tomorqa yer maydoniga ega bo'lib, yuridik shaxs tashkil etmagan holda alohida qishloq xo'jaligi (moliyaviy-xo'jalik) faoliyatini yuritisa, har bir xo'jalik uchun 5-shakl savolnomasi alohida to'ldiriladi.

6-savolga «**Ha**» yoki «**Yo'q**» javobi belgilanganidan qat'iy nazar, 2-shakl «Shaxsga doir savolnoma»ni to'ldirishga o'tiladi.

2- va 3-shakllar to'ldirib bo'lingandan so'ng, agar 1 shakl 2 bo'lim 6-savoliga «*Ha*» javobi berilgan bo'lsa, 7-savolda ko'rsatilgan boshqaruvchisi (qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar) soniga mos ravishda shuncha miqdorda 5-shakl «Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma» ochiladi va to'ldiriladi.

6.2. 2-shakl – “Shaxsga doir savolnoma”ni to‘ldirish tartibi”

2-shakl savolnomasi 1-shakl savolnomasining I bo‘limi “Uy xo‘jaliklari soni, ularning tarkibi va yashash sharoiti” va 4-shakl “Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha savolnoma”dagi **ro‘yxatga kiritilgan barcha respondentlar** uchun to‘ldiriladi.

Ro‘yxatga olish jarayonida respondentlardan, ular tomonidan berilgan javoblarning to‘g‘riligini tasdiqlovchi hujjatlar, jumladan, pasport, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma (nikoh tuzilganlik haqidagi guvohnoma, nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma, bilim darajasini tasdiqlovchi diplom, tilni bilish bo‘yicha sertifikat) taqdim etish talab etilmaydi.

Planshet qurilmalarida:

- ro‘yxatga olish uchastkasi raqami;
- so‘rov o‘tkazilayotgan xonadon raqami;
- uy xo‘jaligi doirasida **oilaning** tartib raqami;
- respondentlarning tartib raqami;
- respondentning JSHSHIR (Shaxsiy raqam) raqami;
- familiyasi, ismi, sharifi, tug‘ilgan vaqti, yoshi, jinsi va birinchi ko‘rsatilgan shaxsga qarindoshlik munosabatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning barchasi **1-SHAKLDA** kiritilgan ma’lumotlar asosida **avtomatik tarzda to‘ldirilgan bo‘ladi.**

5.1 Uy xo‘jaligining har bir a‘zolari (yoshi va oilaviy holatidan qat’iy nazar) bitta xonadonda ota-ona bilan birga yashaydigan bo‘lsa, ulardan birini planshet qurilmasida shakllangan ro‘yxatda tanlash imkoniyati mavjud.

Agarda uy xo‘jaligida ota bo‘lmasa, onaning o‘zi ko‘chirib tanlanadi.

Agarda uy xo‘jaligi a‘zolarining otasi va onasi ham bo‘lmasa hech qaysi ustun tanlanmaydi.

7-savol “Nechta farzand dunyoga keltirgansiz?” (15 yosh va undan katta yoshdagi ayollardan so‘raladi).

15 yoshdan katta ayollardan (*BMT tashkilotining tavsiyalariga asosan*) ya’ni respondentlardan farzand ko‘rganligi (tuqqanligi) so‘raladi.

Bunda, respondent dunyoga keltirgan jami farzandlari soni (bunda tug‘ilgan chaqaloqning o‘lik yoki tirik tug‘ilganidan qat’iy nazar) qayd etiladi.

Agar respondent farzand dunyoga keltirmagan bo‘lsa, **“0” nol** raqami yoziladi.

Nechta farzandni dunyoga keltirgansiz? (jami tug'ilgan farzandlar soni) ⓘ

8-savol “Tug'ilgan joyingiz?” savoliga respondentning tavallud topgan joyi (shahar yoki tuman nomi) belgilanadi.

Agar respondent O'zbekiston Respublikasida tug'ilgan bo'lsa, **“O'zbekiston Respublikasi”** javobi belgilanadi va tuman nomi alohida belgilanadi.

Shaharlar deganda viloyatlar darajasidagi shaharlar va Nukus shahri nazarda tutiladi.

Agar respondent Toshkent shahrida tug'ilgan bo'lsa, uning qaysi tumanda tug'ilgani ko'rsatiladi.

Misol uchun: Agar respondent Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumanida tug'ilganini aytsa, **“O'zbekiston Respublikasi”** varianti belgilanib, tuman sifatida **“Yuqori Chirchiq tumani”** tanlanadi.

Agar respondent O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lsa, **“boshqa davlat”** javobi belgilanadi va respondent javobiga asosan davlat nomi yoziladi.

Tug'ilgan joyingiz? ⓘ

1. O'zbekiston Respublikasi

2. Boshqa davlat

Tug'ilgan joyingiz? ⓘ

2. Boshqa davlat

Mamlakat nomini yozing ⓘ

AMERIKALI SAMOA

ANDORRA

ANGILYA

ARGENTINA

ARMANISTON

ARUBA

AVSTRIYA

BANGLADESH

Tug'ilgan joyingiz? ⓘ

1. O'zbekiston Respublikasi

Hudud nomi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) ⓘ

Toshkent v.

Shahar/Tuman ⓘ

Yuqorichirchiq tumani

9-savol “Mazkur tuman (shahar)da tug'ilganingizdan beri yashaysizmi?”

“Ha” javobi mazkur tuman (shahar)da tug'ilganidan beri istiqomat qiladigan respondentlar uchun belgilanadi, bunda mazkur tuman (shahar)da ro'yxatdan o'tganligi, yashashining doimiy yoki vaqtinchalik xarakterga ega ekanligi muhim emas.

Agar respondent **“Ha”** javobini tanlagan bo'lsa to'g'ridan – to'g'ri **10 savolga o'tiladi**.

Misol uchun: Agar respondent tuman (shahar) doirasida bir aholi punktidan boshqa aholi punktiga ko'chib o'tsa, misol uchun, fuqaro S. Botirov Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanining **“Beshbola”** mahallasida tug'ilgan, lekin ro'yxatga olish vaqtida ushbu tumanning **“Lolazor”** mahallasida yashaydi. Bu holatda S. Botirov uchun **“ha”** javobi belgilanadi;

Quyidagi holatlarda ham **“ha”** javobi belgilanadi:

- agar respondent shahar (tumanga bo‘ysinuvchi) ichida bir turar joydan boshqa turar joyga ko‘chib o‘tsa;

- doimiy yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lmagan harakatlanishlar, jumladan, xizmat safarlari, dam olish sababiga ko‘ra harakatlanish, oila a‘zolarini ko‘rish maqsadida tashrif buyurishlar va boshqalar.

Agar respondent ushbu tuman (shahar)ga boshqa tuman (shahar)dan ko‘chib kelgan bo‘lsa **9 - savolga “yo‘q”** javobi belgilanadi.

“Yo‘q” javobi mazkur tuman (shahar)da tug‘ilganidan beri yashamaydigan (bir tuman (shahar)da tug‘ilib, boshqa tuman (shahar)da yashayotgan) respondentlar uchun belgilanadi.

Misol uchun: fuqaro A. Shakirov Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tug‘ilgan, lekin ro‘yxatga olish vaqtida Oqdaryo tumanida yashaydi. Ushbu holatda A. Shokirov uchun **“yo‘q”** javobi belgilanadi.

Quyidagi hollarda respondent viloyat ichida tumandan tumanga yoki respublika ichida bir hududdan boshqa bir hududga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarga ko‘chib yursa, uzluksizlik sharti buzilgan hisoblanadi:

- ta‘lim olish maqsadida (oliy ta‘lim muassasalari, akademiyalar, texnikumlar, litseylar, kollejlari, maxsus yoki ixtisoslashgan maktablar, Temurbeklar maktabi, Prezident maktabi va h.k.) ushbu muassasalarga tegishli turar joylarda yashash uchun ko‘chish;

- uzoq muddatli (**bir yildan ortiq**) xizmat safarlari, davolanish, ishlash va boshqa sabablar uchun ko‘chish;

- chaqiriq asosida harbiy xizmatda bo‘lganlar;

- jazoni o‘tash uchun ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida yashash.

Shuningdek, mazkur savolga **“yo‘q”** javobi belgilangan **respondentlar uchun 9a hamda 9b savollariga o‘tiladi:**

9a-savol. “Qachon ko‘chib keldingiz?”

Mazkur tuman (shahar)ga 2025-yil 14-yanvargacha ko‘chib kelgan bo‘lsa, faqat yili yoziladi, agar 2025-yil 14-yanvardan keyin kelgan bo‘lsa, oyi va yili yoziladi.

9b-savol. “Oxirgi doimiy yashagan joyingiz?”

Oxirgi doimiy yashash joyini yozishda ko‘chib kelgan joyining ma‘muriy hududiy o‘zgarishlarini inobatga olmagan holda ko‘rsatish lozim. Agar respondent **“O‘zbekiston Respublikasi”** javob variantini aytsa, faqat viloyat, tuman (shahar) nomi yoziladi hamda **10-savolga** o‘tiladi.

Agar **“boshqa davlat”** javob varianti belgilansa, davlat nomi davlatlar ro‘yxatidan tanlanadi va **10-savolga** o‘tiladi.

10-savol. “Boshqa mamlakatda (O‘zbekistonga ko‘chib kelganingizdan so‘ng) uzluksiz bir yil va undan ortiq muddatda yashaganmisiz?”

Agar respondent bir yil yoki undan ortiq muddat davomida boshqa davlat hududida bo‘lgan bo‘lsa, 10-savolda **“ha”** javobini belgilaydi va 10a savolga o‘tiladi.

Misol uchun:

Agar fuqaro Rossiyada **1 yildan ortiq**, Qozog‘istonda 4 oy va Turkiyada 9 oy yashagan bo‘lsa, **“Rossiya Federatsiyasi”** deb yoziladi.

Agar u yuqorida aytilgan 3 davlatda ham **1 yildan ortiq** muddatda yashagan bo'lsa, oxirgi yashagan davlat (Turkiya) yoziladi.

Agar respondent boshqa davlatda **1 yildan kam bo'lgan** muddat yashagan bo'lsa, javob sifatida **“yo‘q” javobi** belgilanadi.

Shu bilan birga, **1 yildan kam bo'lgan muddatda** Tashqi ishlar vazirligi (elchixonalar, konsulliklar va h.k.)da faoliyat ko'rsatayotgan elchilar, vakillar hamda ularning oila a'zolari uchun ham **“yo‘q” javobi** belgilanadi. **“Yo‘q”** javobini belgilaganlar 11-savolga o'tadilar.

ESLATMA!!!

Boshqa davlatda tug'ilib, O'zbekiston hududiga doimiy yashash uchun ko'chib kelgan respondentlarga ushbu savol quyidagicha o'qiladi: «O'zbekistonga ko'chib kelganingizdan so'ng uzluksiz bir yil va undan ortiq muddatda boshqa mamlakatda yashaganmisiz?»

Agar respondent boshqa davlatda tug'ilgan bo'lib, O'zbekiston hududiga doimiy yashash uchun ko'chib kelganidan keyingi davr mobaynida boshqa davlatda bir yil va undan ortiq vaqt davomida yashagan (bo'lgan) bo'lsa, **“ha”** javobi belgilanadi.

Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz bir yil va undan ko'proq muddatda yashagan respondentlar uchun **“ha”** javobi belgilanadi hamda **10a, 10b, 10c va 10d** savollariga o'tiladi:

10a-savol: respondent bo'lgan xorijiy davlat nomi;

Misol uchun:

Fuqaro Rossiyada **1 yildan ortiq** bo'lib, keyin Qozog'istonda **4 oy** va Turkiyada **9 oy yashagan** bo'lsa, unda Rossiya davlati yoziladi.

Agar fuqaro ushbu misolda keltirilgan **3 ta** davlatda ham **1 yildan ortiq** vaqt davomida yashagan bo'lsa, **unda oxirgi yashagan davlati (Turkiya) yoziladi.**

10b-savol: O'zbekistondan chiqib ketgan sana;

10c-savol: O'zbekistonga qaytgan sana;

10d-savol: xorijga chiqish maqsadi (ish, ta'lim, sayohat, oilaviy sabablar, dam olish va boshqalar)ni belgilaydi.

Mazkur aholi yashash punktida tug'ilganingizdan beri yashaysizmi? 

2. Yo'q 

Qachon ko'chib kelgansiz? 

1. 2025 yil 14 yanvargacha 

Qachon ko'chib kelganingizni yilda ko'rsating 

2005

Oxirgi yashagan joyingiz? 

1. O'zbekiston Respublikasi 

Hudud nomi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) 

Jizzax 

Shahar/Tuman 

G'allaorol tumani 

11-savol “Fuqarolingiz?”

Mazkur savolga respondent O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lsa, tegishli javob varianti belgilaydi, agarda respondentning fuqaroligi bo‘lmasa, **“fuqaroligi bo‘lmagan shaxs”** javob varianti belgilanadi.

Fuqarolingiz? ⓘ

- 1. O'zbekiston Respublikasi
- 2. Fuqaroligi yo'q shaxs
- 3. Boshqa davlat fuqarosi

Agar respondent o‘zini boshqa mamlakat fuqarosi deb javob bersa, **“boshqa davlat fuqarosi”** javob varianti belgilanadi hamda o‘sha mamlakatning nomi ro‘yxatga oluvchi tomonidan savolnomaga belgilanadi.

11a-savol “Siz qochoq (qochqin) maqomiga egamisiz?” – savoliga qochoq maqomiga ega bo‘lgan yoki siyosiy sabablarga ko‘ra majburiy o‘z yashash joyidan ko‘chirilgan respondentlar **“ha”** javob variantini belgilaydilar, aks holda **“yo‘q”** javob varianti belgilanadi.

Fuqarolingiz? ⓘ

2. Fuqaroligi yo'q shaxs X ▾

Siz qochoq maqomiga egamisiz? ⓘ

- 1. Ha
- 2. Yo'q

Qochoq deb hisoblanganlar uchun qochoqlik statusi beriladi va bu xalqaro tan olingan status bo‘lib, BMT qochoqlar konvensiyasi va Yevropa Ittifoqi qonunlariga asoslanadi. Irqi, millati, diniy yoki siyosiy qarashlari, jinsi, biror bir muayyan ijtimoiy guruhga tegishliligiga asoslanib, tazyiq ostida qolishi mumkinligiga ko‘ra, xavotirda bo‘lgan insonlar qochqin hisoblanadi.

Shuningdek, **11a-savolda**, tabiiy ofatlar natijasida yoki biror obyektlar qurilishi bilan bog‘liq holatlarda ko‘chirilgan shaxslar uchun ham **“yo‘q”** javob varianti belgilanadi.

12 - savol “Millatingiz?”

Ro‘yxatga oluvchi respondentning bergan ma’lumoti bo‘yicha mos **millat (barcha millatlar ro‘yxati keltirilgan)** nomini belgilaydi.

Millatingiz? ⓘ

- O'ZBEK
- QORAQALPOQ
- QOZOQ
- TOJIK
- QIRG'IZ
- RUS
- TURKMAN

14 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda **aqliy** va **jismoniy zaif** shaxslar uchun ushbu savolga ularning ota-onalari (asrab oluvchilari, vasiylar, homiylar yoki ularning qonuniy vakillari) tomonidan javob beriladi.

13-savol “Ona tilingiz?”

Ro'yxatga oluvchi respondentning bergan ma'lumoti bo'yicha **mos tilni** belgilaydi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun (**6 yoshgacha bo'lgan bolalar**) ona tili hamda odatda uyda suhbatlashadigan tilni ota-onalarning bergan javoblari asosida belgilanadi.

Eshitishida hamda nutqida nuqsoni bor (**kar, soqovlar**) respondentlar uchun ona tili, ular qaysi tilda o'qib, qaysi alifboda yozsalar o'sha til ona tili deb belgilanadi.

14-savol “Qaysi tillarda suhbatlasha olasiz? (ona tilidan tashqari)” - ushbu savol **6 osh va undan katta shaxslarga** beriladi:

Respondentning ona tilidan tashqari biron-bir tilda suhbatlasha olishi, o'qishi va yozishi yoki faqatgina suhbatlasha olishi tushuniladi. (**Ro'yxatda barcha davlat tillari keltirilgan**)

15-savol “Ta'lim darajangiz?”

Respondent javoblari orasidan tamomlagan oxirgi ta'lim darajasi belgilanadi. Agar respondent ayni vaqtda ta'lim olayotgan bo'lsa, undan avvalgi ta'lim darajasi belgilanadi.

“Boshlang'ich” ta'lim o'rta maktabning 4-sinfini bitirgan respondentlar uchun belgilanadi;

“To'liqsiz o'rta” ta'lim darajasi o'rta maktabning 9-sinfini bitirgan respondentlar uchun belgilanadi;

“Umumiy o'rta” ta'lim darajasi o'rta maktabning 11-sinfini bitirgan respondentlar uchun belgilanadi;

“O'rta maxsus” ta'lim darajasi akademik litsey, o'rta-maxsus kasb hunar kollejlari yoki texnikumlarni bitirgan respondentlar uchun belgilanadi;

“Bakalavr” oliy ta'limning bakalavriat bosqichini tugatgan respondentlar uchun belgilanadi;

“Magistr” magistraturani tugatgan respondentlar uchun belgilanadi;

“Umumiy oliy” ilgari amalda bo'lgan 5 yillik oliy ta'lim muassasasini bitirgan respondentlar uchun belgilanadi;

. Bakalavr

. Magistr

. Umumiy oliy

“Fan nomzodi” javob varianti, fan nomzodi dissertatsiyasini himoya qilgan respondentlar uchun belgilanadi;

“Fan doktori” javob varianti, fan doktori dissertatsiyasini himoya qilgan respondentlar uchun belgilanadi;

“**PhD**” javob varianti falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilgan yoki tibbiyot fanlari uchun klinik ordinaturani tugatgan shaxslar uchun belgilanadi;

“**Doctor of Science**” javob varianti fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olgan shaxslarga belgilanadi.

Ilmiy daraja qayerda olingani (respublika ichida yoki chet elda) ahamiyat kasb etmaydi.

. Fan nomzodi
 . Fan doktori
 . PhD
 . Doctor of Science

Ta’limga umuman ega bo’lmagan respondentlar uchun “**ta’limga ega emasman**” javobi belgilanib, ular qo’shimcha ravishda “**o’qishni va/yoki yozishni bilasizmi?**” savoliga javob beradi va **16-savolga o’tadi**.

16-savol “Hozirda ta’lim olasizmi?”

“**Ha**” javobi:

“**boshlang’ich ta’lim**” javob varianti boshlang’ich ta’limni **I – IV sinflariga** ta’lim beruvchi muassasalarda ta’lim olayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

“**umumiy o’rta ta’lim**” javob varianti umumiy o’rta ta’lim beruvchi muassasalarda **V-IX sinflarda** ta’lim olayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

“**o’rta maxsus ta’lim**” javobi akademik litsey va o’rta-maxsus kasb-hunar kollejlari va texnikumlarida ta’lim olayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

“**bakalavriat**” javobi oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat bosqichlarida tahsil olayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

“**magistratura**” javobi oliy ta’lim muassasalarini magistratura bosqichida tahsil olayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

Agar respondent oliy ta’lim muassasalari yoki ilmiy tashkilotlarda ilmiy daraja olish maqsadida tahsil olayotgan bo’lsa, uning ta’lim shakliga mos ravishda “**tayanch doktorantura**”, “**doktorantura**” yoki “**mustaqil izlanuvchi**” variantlaridan bittasi belgilanadi.

16a-savol “Bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga boradimi?” mazkur savol **3 - 6 yosh** oralig’idagi bolalar uchun mo’ljallangan.

Mazkur savoldagi “**ha**” javobi, maktabgacha ta’lim tashkilotiga boradigan bolalar uchun beriladi.

Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti **davlat yoki nodavlat** tashkilot ekanligiga aniqlik kiritilib, tegishli javob varianti belgilanadi.

Agar ro’yxatga olish vaqtida bola turli sabablarga ko’ra, jumladan, kasalligi tufayli maktabgacha ta’lim tashkilotiga vaqtincha bormagan bo’lsa ham “**ha**” javob varianti belgilanadi.

“**Yo’q**” javobi maktabgacha ta’lim tashkilotiga umuman bormaydigan bolalar uchun belgilanadi.

17-savol “Yashash uchun daromad manbalarigizni ko’rsating?”

Respondent ushbu savolga javob berishidan oldin, tegishli daromad manbalari keltirilgan ro’yxat bilan tanishtiriladi.

Respondent unga taqdim etilgan ro'yxatdan bir yoki bir nechta daromad manbalarini tanlab aytishi mumkin.

Respondent tomonidan berilgan javob(lar) asosida javob variantlari belgilanadi.

“Ish haqidan” javob varianti daromad manbai sifatida o'z mehnat majburiyatlari uchun pul yoki natura ko'rinishida ish haqi, ustama, mukofot va boshqa qo'shimcha to'lovlar oladigan respondentlar, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermer va/yoki dehqon xo'jaliklari hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad oladigan respondentlar uchun belgilanadi.

“Tadbirkorlik (shu jumladan YATTdan)” javob varianti rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan bo'lib, tadbirkorlik, jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini boshlagan hamda ushbu faoliyatdan daromad olayotgan respondentlar uchun belgilanadi.

“Mustaqil ish faoliyatidan” javob varianti o'z ishlarini mustaqil ravishda tashkil etib, o'zini-o'zi band qilgan hamda ushbu faoliyatdan yoki jamoat ishlaridan daromad olayotgan respondentlar uchun belgilanadi.

“Shaxsiy yordamchi xo'jalikdan” javob varianti shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jaliklari mahsulotlarini yetishtiruvchi, chorva mollarini, parrandalarni boquvchi va boshqa qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanib daromad olayotgan respondentlar uchun belgilanadi.

“Shaxsiy iste'moli uchun tovarlar ishlab chiqarish” javob varianti faqatgina o'z iste'moli uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi respondentlar uchun belgilanadi.

“Stipendiya” javob varianti ta'lim muassasalarida tahsil olib stipendiya oladigan respondentlar uchun belgilanadi.

“Pensiya (nogironlik pensiyasidan tashqari)” javob varianti nogironlik pensiyasi yoki nafaqasidan tashqari, yoshga doir yoki boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi respondentlar uchun belgilanadi.

“Nogironlik pensiyasi” javob varianti nogironligi bo'yicha pensiya yoki nafaqa oluvchi respondentlar uchun belgilanadi.

“Mahalladan nafaqa” javob varianti mahalladan uch turdagi, ya'ni 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa, kam ta'minlangan oilalarga beriladigan moddiy yordam oladigan respondentlar uchun belgilanadi.

“Ishsizlik nafaqasi” javob varianti rasmiy ravishda kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tgan va ishsizlik nafaqasini oluvchi respondentlar uchun belgilanadi.

“Davlat ta'minotining boshqa turlari” javob varianti har xil turdagi kompensatsiyalar, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola parvarishi uchun beriladigan nafaqalar, sog'lig'ini vaqtincha yo'qotganlik uchun beriladigan nafaqa, tovon pullari va boshqa turdagi moddiy ta'minot oluvchi respondentlar uchun to'ldiriladi.

“Yig'ib qo'yilgan jamg'arma, omonat jamg'armasi” javob varianti yashash uchun daromad manbai sifatida ular tomonidan avval yig'ib qo'yilgan jamg'armalar, shuningdek, banklardagi omonat jamg'armalari bo'lgan respondentlar uchun belgilanadi.

“Mulknii ijaraga berish, foizlar, dividendlar, gonorarlar, patentlar” javob varianti yer uchastkalarini, uy, mashina, dala hovli, garaj va shu kabi mulklarni ijaraga berish, pul qo‘yilmalar, depozitlar, obligatsiyalar, qimmatbaho qog‘ozlardan foiz to‘lovlari, dividendlar, mualliflik huquqlari, turli xil ixtirolar uchun gonorarlar, paylar yoki patentlardan daromad oladigan respondentlar uchun belgilanadi.

“Respublika tashqarisidan olingan mablag‘lardan” javob varianti O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidan pul mablag‘lari (pul o‘tkazmalari) oluvchi respondentlar uchun belgilanadi. *Misol uchun*, oila a‘zolari yoki yaqinlaridan biri xorijda ishlab, o‘qib yoki yashab yurib, uyiga yoki yaqiniga pul yuborgan bo‘lsa, bu ham daromad manbai bo‘lib hisoblanadi.

“Ota-onaning qaramog‘ida” javob varianti ota-onasining mablag‘iga yashovchilar;

“Boshqa shaxsning qaramog‘ida, homiylik, aliment” javob varianti oila a‘zolari, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar mablag‘larini, hadyalar, aliment va homiylik mablag‘larini oluvchi respondentlar uchun belgilanadi.

“Boshqa manbalardan” javob varianti yashash uchun daromad manbai sifatida yuqorida keltirilganlardan boshqa manbani (*misol uchun*, biror bir xizmat ko‘rsatib, tilanchilik, plastik, kvars idishlar, metall yoki qog‘oz yig‘ib topshirishdan olingan daromad va boshqalar) aytgan respondentlar uchun belgilanadi.

Agar daromad manbai ikki yoki undan ortiq bo‘lsa, ro‘yxatga oluvchi asosiy daromad manbaini respondentdan so‘rab, aniqlik kiritib olishi zarur va mazkur asosiy daromad manbai belgilanadi.

Yashash uchun daromad manbalarini ko'rsating? ⓘ

1. Ish haqidani, 2. Tadbirkorlik (shu jumladan, YATT)dan, 3. Mustaqil ish faoliyatidan

Agar respondentda bir nechta daromad manbai bo'lsa, asosiy daromad manbaini tartib raqamini tanlang ⓘ

1. Ish haqidani

2. Tadbirkorlik (shu jumladan, YATT)dan

3. Mustaqil ish faoliyatidan

18-savol “2026-yil 15-yanvargacha bo‘lgan oxirgi 7 kun (so‘nggi bir hafta) davomida bir soat bo‘lsa ham ish haqi to‘lanadigan yoki daromad keltiradigan ish bilan shug‘ullanganmisiz?”

Mazkur savolga **“ha”** javobi 2026-yilning **7-14-yanvar kunlari** oralig‘ida quyidagi ishlarni bajargan respondentlar uchun belgilanadi:

- ma‘lum to‘lov evaziga yollanib ishlash, jumladan, xorijda (kamida bir soatga), bunda ushbu ish doimiy yoki vaqtinchalik bo‘lganligidan qat‘iy nazar.

Yollanma (yollanib ishlovchi) ishchi – korxona, tashkilot, muassasalarda buyruq yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan shartnoma yoki og‘zaki kelishuv asosida ishlaydigan xodim tushuniladi;

- yollanmasdan mustaqil holda, bir yoki bir nechta hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilgan ishlar, bunda yollanib ishlaydigan xodimlarni jalb qilib yoki jalb qilmasdan ishlaganligidan qat‘iy nazar;

- keyinchalik sotish maqsadida, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda (tomorqalar, mavsumiy ijaraga olingan yerlar va boshqa turdagilar) mahsulotni ishlab chiqarish jarayonidagi ishlar.

Joriy yilning 7 - 14 yanvar kunlari ish haqi to'lanadigan yoki daromad keltiradigan yoki qarindoshlarida ish haqi to'lanmaydigan ish yoki mehnat bilan mashg'ul bo'lganmisiz?

1. Ha

2. Ayrim sabablarga ko'ra vaqtincha ishlamagan, jumladan, mehnat tatili, kasallik, tug'ish va xomiladorlik bo'yicha mehnat tatili, 3 yoshgacha farzand parvarishi, vaxta yoki smena usulida, maxsus tusga ega ish bilan band bo'lgan, malakasini oshirish bo'yicha o'qishda bo'lganlar

3. Yo'q

Shu bilan birga, ishga ega bo'lgan ishlovchi respondentlar qatoriga ish beruvchi bilan mehnat shartnomasiga ega bo'lib, ammo belgilangan muddatlarda vaqtinchalik ishga chiqmaganlar ham kiradi. Bunda, vaqtinchalik ishga chiqmaslikka quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- kasallik yoki jarohat;
- kasalga g'amxo'rlik qilish;
- mehnat ta'tili, shuningdek, homiladorlik ta'tili, tug'ish va 3 yoshgacha bola parvarishlash bilan bog'liq ta'tillar;
- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ta'tilida (kasalligi tufayli);
- ishdan ajralgan holda ta'lim olish (malakasini oshirish, qayta o'qish va shu kabilar).

Shuningdek, ishlovchilarga harbiy xizmatchilar, diniy idoralarda ishlovchilar, 7-14-yanvar kunlari oralig'ida ish haqi yoki boshqa daromad keltiruvchi manbaga ega bo'lgan talabalar va pensionerlar ham kiradi.

Mazkur savolga **“yo‘q”** javobi quyidagi respondentlar uchun belgilanadi:

- oila a'zolari va qarindoshlaridan ish haqi olmasdan ishlayotganlar;
- mehnat shartnomasi tugagan mavsumiy ishchilar;
- o'zining ishini (tadbirkorlik faoliyati) tashkil etgan ammo faoliyatini boshlamagan respondentlar;
- ish beruvchi bilan mehnat munosabatlariga kirishmagan va ko'rsatilgan muddatlar oralig'ida ish haqi to'lanadigan ishlarni bajarmagan respondentlar;
- kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish so'rab murojaat qilgan, lekin ishsizlik nafaqasini olmagan respondentlar;
- o'z uylarida uy ishlarini bajargan lekin biror joyda ishlash istagi bo'lmagan respondentlar;
- jismoniy shaxslarga yoki xayriya tashkilotlariga o'z ixtiyorlari bilan ish haqi olmasdan xizmat ko'rsatuvchi respondentlar;
- tilanchilik, qog'oz va plastik idishlar yig'ib topshiruvchi, ishlash istagi yo'q respondentlar.

“Yo‘q” javob varianti belgilangan respondentlar uchun 23-savolga o'tiladi.

19-savol “Asosiy mehnat faoliyatingizni qayerda olib borasiz (qayerda ishlaysiz)?”:

- **“korxona, tashkilotda (korxona, tashkilotning quyi tuzilmaviy bo'limlarida) muassasada”** javob varianti mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha davlat/nodavlat, yirik/kichik tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va

ularning bo‘limlari hamda quyi tizimlarida ishlaydigan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“dehqon, fermer xo‘jaliklarida”** javob varianti dehqon, fermer xo‘jaligida yollanib ish bilan band bo‘lgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“yakka tartibdagi tadbirkor”** javob varianti mulk huquqi bilan o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan foydalangan holda yuridik shaxs tashkil etmasdan, xodimlarni yollash huquqiga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi respondentlar uchun belgilanadi;

- **“yakka tartibdagi tadbirkor qo‘l ostida”** javob varianti jismoniy shaxslarda yollanib, ish bilan band bo‘lgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“o‘zini-o‘zi band qilgan”** javob varianti mehnat daromadi olishga yo‘naltirilgan, ishlarni bajarish bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olinmagan va o‘z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydigan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“sotish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (qayta ishlash) bo‘yicha shaxsiy yordamchi xo‘jalikda band”** javob varianti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘z tomorqalarida keyinchalik sotish maqsadida ishlab chiqarish bilan band respondentlar uchun belgilanadi va boshqalar;

Asosiy mehnat faoliyatingizni qayerda olib borgansiz (qayerda ishlaysiz)? ⓘ

1. Korxona, tashkilot (korxona, tashkilotning quyi tuzilmaviy bo‘limlarida), muassasada
2. Dehqon, fermer xo‘jaliklarida
3. Yakka tadbirkor sifatida
4. Yakka tadbirkor qo‘l ostida
5. O‘zini ozi band qilgan
5. Sotish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (qayta ishlash) bo‘yicha shaxsiy yordamchi xo‘jalikda
6. Ish haqi to‘lanmaydigan shaxsiy yordamchi xo‘jalikda
7. Boshqa

20-savol “Asosiy ish joyingizda kim bo‘lib ishlaysiz?”

“Yollanib ishlovchi xodim” javob varianti ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki og‘zaki kelishuv asosida ishlagan va mehnati uchun ish haqi (ish haqi, bajarilgan ishi uchun komissiya haqi, mahsulot sotishdan olingan foiz va boshqalar) yoki natura shaklida to‘lov olgan respondentlar uchun belgilanadi.

Shuningdek, ushbu javob varianti tayinlangan yoki saylangan korxona, tashkilot va boshqa turdagi muassasa rahbarlari va xodimlari, ruhoniylar, diniy ishlar sohasida ishlaydiganlar, harbiy xizmatchilar, qarindoshinikida yoki tanishinikida ish haqi olib ishlagan respondentlar uchun ham belgilanadi.

Dehqon va fermer xo‘jaliklarida, ishlab chiqarish kooperativlari a‘zolarida mehnat shartnomasi asosida band bo‘lgan respondentlar uchun ham mazkur javob varianti belgilanadi.

“O‘z ishining, korxonasining egasi (hamkori, muassisi)” javob varianti o‘z mol-mulki asosida o‘z tadbirkorlik faoliyatini mustaqil (xususiy, oilaviy, qo‘shma korxona) yuritayotganlar, yakka tartibda ishlaydigan tadbirkorlik faoliyati bilan

shugʻullanadigan korxona rahbarlari (soliq organlarida roʻyxatdan oʻtgan yoki oʻtmaganligidan qatʻiy nazar), oʻz korxonasida (kooperativida) ishlaydigan, tovar va xizmatlar ishlab chiqaradigan, mulkdorlar jamoasining har bir aʼzosi ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot sotish, investitsiya qilish va korxona aʼzolari oʻrtasida daromadlarni taqsimlash masalalarida teng huquqlarga ega boʻlgan respondentlar uchun belgilanadi.

“Mustaqil ravishda ishlovchi, shu jumladan, bir martalik va mavsumiy ishlarda (xizmatlarda) ishlovchi” javob varianti har xil xizmatlar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ayirboshlash (sotish) yoki oʻz isteʼmoli uchun ishlab chiqarish bilan shugʻullanadigan, shuningdek, mavsumiy va bir martalik ishlarda xizmat bilan band boʻlgan respondentlar uchun belgilanadi.

“Tashkilotda yoki qarindoshlarning biriga tegishli boʻlgan tashkilotda yordam beruvchi” javob varianti dehqon (fermer) uy xoʻjaligida, qarindoshiga yoki uy xoʻjaligi aʼzosining biriga tegishli boʻlgan xususiy korxonada (oilada, jismoniy shaxsda) ish haqi toʻlanmagan holda band boʻlgan respondentlar uchun belgilanadi. Bunga, qarindoshinikida ish haqi olmasdan ishlagan (dala hovlida, tomorqada va shunga oʻxshash ishlarda) respondentlar kirmaydi.

“Lavozimiga koʻra tasniflab boʻlmaydigan shaxs” javobi asosiy ish joyi yuqoridagi holatlarga mos kelmagan respondentlar uchun tanlanadi.

Asosiy ish joyingizda kim boʻlib ishtalgansiz? ⓘ

1. Yollanib ishlovchi xodim
2. O'z ishining, korxonasini egasi (hamkori, muassisi)
3. Mustaqil ravishda ishlovchi, shu jumladan, bir martalik va mavsumiy ishlarda (xizmatlarda) ishlovchi
4. Qarindoshlarning biriga yoki o'ziga tegishli tashkilotda ish haqi to'lanmaydigan ishlarda yordam beruvchi
5. Lavozimiga ko'ra tasniflab bo'lmaydigan shaxs

20a - savol – “Asosiy ish joyingizda kasbingiz nima?” savolida respondentning asosiy ish joyidagi kasbi nomi roʻyxatdan tanlanadi. Agar roʻyxatda mavjud boʻlmagan kasb boʻlsa, uning nomi yoziladi.

21 – savol – “Asosiy ishingiz qaysi iqtisodiy faoliyat turiga toʻgʻri keladi?”

Ushbu savolda berilgan 20 ta IFUT (Iqtisodiy Faoliyat Turlarining Xalqaro Standart Tasnifi) kodi ish beruvchi tashkilotning faoliyati boʻyicha emas, balki respondent bajaradigan asosiy kasbi (ish vazifasi) boʻyicha belgilanadi.

Misol uchun:

Transport korxonasida ishlovchi **hamshira** - 21.17. Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish;

Qurilish tashkilotida ishlovchi **haydovchi** - 21.8. Tashish va saqlash;

Bank yoki sugʻurta tashkilotida ishlovchi **farrosh** - 21.19. Boshqa turdagi xizmatlar koʻrsatish;

Oliy taʼlim muassasasida ishlovchi **shifokor (tibbiyot punkti)** - 21.17. Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish;

Savdo korxonasida ishlovchi **IT mutaxassis** - 21.10. Axborot va aloqa;

Zavod yoki fabrikada ishlovchi **oshpaz (ishchilar oshxonasi)** - 21.9. Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar;

Qurilish tashkilotida ishlovchi **buxgalter** - 21.11. Moliyaviy va sug'urta faoliyati;
Davlat muassasasida ishlovchi **qo'riqchi** - 21.14. Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish;

Maktab yoki universitetda ishlovchi **farrosh** - 21.16. Ta'lim"

Asosiy ish joyingizda kim bo'lib ishlagansiz? ⓘ

1. Yollanib ishlovchi xodim X ▾

Asosiy ish joyingizda kasbingiz nima? ⓘ

Iqtisodchi

Asosiy ishingiz qaysi iqtisodiy faoliyat turiga to'g'ri keladi? ⓘ

15. Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy xizmatlar X ▾

22-savol "Asosiy ish joyingiz qayerda joylashgan?"

Ushbu savolda respondentning asosiy ish joyi qaysi tuman (shahar)da joylashganligi tushuniladi.

"**Hozirda yashab turgan tuman (shahar)da**" javob varianti asosiy ish joyi doimiy yashaydigan tuman (shahar)da joylashgan respondentlar uchun belgilanadi;

"**Respublikaning boshqa tuman (shahar)da**" javob varianti doimiy yashab turgan tuman (shahar)dan boshqa bir tuman (shahar)ga ishlash uchun boradigan (qatnaydigan) respondentlar uchun belgilanadi hamda tuman (shahar) nomi yozib qo'yiladi;

"**Boshqa**" javob varianti O'zbekiston Respublikasi hududidan boshqa davlat hududiga ishlash uchun boradigan (qatnaydigan) respondentlar uchun belgilanadi hamda davlat nomi ro'yxatda tanlanadi.

Ko'chib yuruvchi xarakterga ega bo'lgan ishda ishlaydigan respondentlar ya'ni, haydovchi, mashinist, uchuvchi, styuardessa, quruvchi, vaxtabay ishlovchilar, geolog va boshqalar uchun ish faoliyatini qaysi ma'muriy-hududiy birlikda boshlasalar, ana shu hudud nomi yoziladi.

23-savol "2026-yil 15-yanvargacha bo'lgan oxirgi 4 hafta (28 kun) davomida faol ravishda ish izladingizmi?"

"**Ha**" javob varianti quyidagi hollarda belgilanishi mumkin:

- agar respondent kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga, Boshqaruv samaradorligi agentligining hududiy filiallariga, turli xildagi tashkilotlarning kadrlar bilan ishlash bo'limlariga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga ish so'rab murojaat qilgan bo'lsa;

- ish izlayotganligi to'g'risida e'lon bergan bo'lsa yoki ish beruvchi tomonidan berilgan e'lon bo'yicha murojaat qilgan bo'lsa;

- ish topishda yordam so'rab qarindoshlariga, do'stlariga, yaqinlariga murojaat qilgan bo'lsa;

- shaxsiy ishini boshlash arafasida (faoliyatini ro'yxatdan o'tkazayotgan bo'lsa, patent, litsenziya olishni kutayotgan, o'z ishini amalga oshirish uchun bino, kredit, yer, uskuna izlayotgan va boshqalar) bo'lsa.

"**Yo'q**" javob varianti ko'rsatilgan muddat oralig'ida ish izlamagan respondentlar uchun belgilanadi.

Mazkur savolga javob bergan respondentlar shu bilan birga, topgan ishiga 2 hafta ichida kirisha olishi yoki olmasligiga aniqlik kiritiladi. Bunda **ijobiy** javob bergan ya'ni

ish taklif etilganda ishga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan respondentlar uchun so'rovnoma to'ldirish yakunlanadi. Agarda respondent taklif etilgan ishga kira olmaydigan bo'lsa, navbatdagi savolga javob beradi.

Ishga kirisha olmaydigan respondentlar **“Ish izlamaslik yoki taklif etilgan ishga kirishmaslik sababini ko'rsating”** savoliga javob beradilar. Bunda tegishli javob variantlaridagi sabablardan biri ko'rsatiladi.

“Ish topdim, o'zimning shaxsiy ishimni tashkil qildim va yaqin 2 hafta ichida kirishaman” javob varianti 14-yanvar kuniga qadar ish topgan va joriy yilning 15-yanvaridan boshlab 2 hafta ichida ishga kiradigan yoki ishga kirishlari kerak bo'lgan respondentlar uchun, shuningdek, o'z shaxsiy ishlarini ochish bilan barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlagan ammo hali ishga kirmagan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“ish topdim, javobini kutayapman”** javob varianti ish topgan va ishga kirish bo'yicha ish beruvchining javobini kutayotgan (bunda kutish muddati ro'yxatga olish boshlangunga qadar 4 haftadan oshmasligi kerak), shu bilan birga vakant joyga e'lon qilingan tanlovda ishtirok etib, uning natijalarini kutayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“mavsum boshlanishini kutayapman”** javob varianti asosan mavsumiy ishlarda band bo'lgan, ro'yxatga olish davrida ishsiz bo'lgan va ish izlamayotgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“pensiya yoki nafaqaga chiqqanman”** javob varianti ro'yxatga olish vaqtida pensiya yoki nafaqaga chiqqan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“sog'lig'im tufayli ishlamayman”** javob varianti mehnatga layoqatli yoshdagi ammo mehnatga sog'lig'i tufayli layoqatsiz bo'lgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“ta'lim muassasasida tahsil olaman”** javob varianti barcha turdagi ta'lim olish muassasalarida tahsil oladigan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“uy-ro'zg'or ishlari, bola va oilaning boshqa a'zolari parvarishi bilan bandman”** javob varianti ro'yxatga olish davrida asosan uy ro'zg'or ishlarida band bo'lgan, bola hamda uy xo'jaligining boshqa a'zolarini parvarishlash bilan band bo'lgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“ishlashga xohishim yo'q”** javob varianti ish umuman izlamagan va ishlash istagi yo'q bo'lgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“boshqa sabablar”** javob varianti respondentlar tomonidan yuqorida keltirilgan javob variantlaridan boshqa javob aytilganda belgilanadi.

6.3. 3-shakl – “O‘zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma”ni to‘ldirish tartibi

3-shakl savolnomasi aholini ro‘yxatga olish vaqtida O‘zbekiston Respublikasiga vaqtinchalik yashash uchun kelgan, ammo boshqa davlatda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari uchun to‘ldiriladi.

Savolnomani to‘ldirishdan oldin savolnoma tepa qismidagi ro‘yxatga olish, hisob uchastka raqamlari va to‘liq manzil yoziladi.

So‘rovni o‘tkazishdan oldin ro‘yxatga oluvchi mehmonxona, xostel, uy-mehmonxona va shunga o‘xshash muassasalar ma‘muriyatidan ushbu muassasalarda ro‘yxatga olish payti, ya’ni 2026-yil 15-yanvarning 00 soat 00 minutda vaqtincha yashayotganlar bo‘lganligiga aniqlik kiritadi.

Respondentning tartib raqami sifatida suhbat o‘tkazilayotgan shaxsning tartib raqami, ya’ni nechanchi respondent bilan suhbat o‘tkazilayotgan bo‘lsa o‘sha raqam yoziladi.

1-savol “Tug‘ilgan sanasi”. Respondentning tug‘ilgan kun, oy va yili dasturiy ta’minotdagi kalendar yordamida belgilanadi

30	1999	1999
31	August	1999
1	Sentabr	1997
2	Oktabr	1998
3	Noyabr	1999
4	Dekabr	2000
5	Yanvar	2001
6	Fevral	2002
7	Mart	2003
8	April	2004

Tasdiqlash

2-savol “Jinsi”. Respondentning javobiga asoslanib berilgan javob variantlaridan biri belgilanadi.

3-savol “Fuqaroligi”. Respondent qaysi davlat fuqarosi bo‘lsa ana shu mamlakat nomini belgilash kerak, agar respondent bir nechta davlat fuqarosi bo‘ladigan bo‘lsa, asosiy fuqaroligiga aniqlik kiritib, ushbu mamlakat nomini belgilash lozim bo‘ladi.

Fuqaroligi bo‘lmagan respondentlar uchun “**fuqaroligi bo‘lmagan shaxs**” javob varianti belgilanadi.

4-savol “Doimiy yashaydigan mamlakat”. Respondentning doimiy yashaydigan davlati nomi belgilanadi.

Jinsi ⓘ

1. Erkak X ▾

Millatingiz ⓘ

BAXREYN X ▾

Doimiy yashash mamlakati ⓘ

AVSTRIYA X ▾

5-savol “O‘zbekistonga kelish sanasi”. Respondentning O‘zbekistonga kelish sanasi, oy, yili ko‘rinishida belgilash lozim.

30	2021	2018
31	Avqust	2017
1	Sentabr	2019
2	Oktabr	2020
3	Noyabr	2021
4	Dekabr	2022
5	Yanvar	2023
6	Fevral	2024
7	Mart	2025

Tasdiqlash

6-savol “O‘zbekistonga kelishdan maqsadi”:

- **“ish”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga ixtiyoriy turdagi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish maqsadida kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“o‘qish”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga til kurslari, mutaxassislik va maxsus kurslarda ta’lim olishga kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“davolanish”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga davolanish hamda sog‘lig‘ini tiklash maqsadida kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“xizmat safari”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga yig‘ilish, seminar, konferensiya, kongress, yarmarka, ko‘rgazmalar, ma’ruza va konsertlar berish, professional sport musobaqalarida ishtirok etish hamda boshqa turdagi xizmat safarlari maqsadida kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“oilaviy sabab”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga oila a’zolari va do‘stlarini ko‘rish, to‘y va shunga o‘xshash marosimlarda ishtirok etish maqsadida kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“turizm, dam olish”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga mehnat ta’tili va bo‘sh vaqtini o‘tkazish, diqqatga sazovor joylarni ko‘rish, xaridlar amalga oshirish, madaniy tadbirlarda ishtirok etish, alpinizm tadbirlarida ishtirok etish, sayohat va dam olish maqsadida kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“tijorat”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasiga keyinchalik o‘z mamlakatida sotish maqsadida tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun kelgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“tranzit migratsiyasi”** javob varianti O‘zbekiston Respublikasida boshqa mamlakatga ketish vaqtida vaqtincha bo‘lib turgan respondentlar uchun belgilanadi;

- **“boshqa maqsadlarda”** yuqorida sanab o‘tilgan javoblardan boshqa javob bo‘lganda belgilanadi.

1. Ish
2. O‘qish
3. Davolanish
4. Xizmat safari
5. Oilaviy sabablar
6. Turizm, dam olish
7. Tijorat
8. Tranzit migratsiyasi
9. Boshqa maqsadlarda

6.4. 4 – shakl – “Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish savolnoma”ni to'ldirish

4-shakl savolnomasi aholining ayrim toifalariga tegishli bo'lgan hamda doimiy ravishda quyidagi turdagi muassasalarda yashaydigan respondentlar bo'yicha to'ldiriladi:

- to'liq davlat ta'minotidagi **jismoniy** yoki **psixik rivojlanishida nuqsoni** bo'lgan bolalar uchun bolalar **internat uyi**;

- bolalar shaharchasi (“SOS – O'zbekiston bolalar mahallalari”);

- “Muruvvat” bolalar internat uyi;

- bolalar uyi tibbiyot muassasalarida;

- yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarda;

- maxsus umumta'lim maktab-internatlarda;

- doimiy ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan boshqa davlat ijtimoiy muassasalarida;

- urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati;

- “Saxovat” internat uylarida.

Shuningdek, **savolnomada** quyidagilar bo'yicha ham to'ldiriladi:

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalarda (**jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsonalari, qamoqxonalar yoki mehnat-davolash profilaktika muassasalarida**), Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati va Chegara qo'shinlari tizimidagi muassasalarda yashovchi shaxslar bo'yicha ham to'ldiriladi;

doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar (boshpanasiz);

diniy tashkilotlarga tegishli (yoki ularga foydalanishga berilgan) binolarda yashovchi shaxslar.

Savolnoma to'ldirilayotganda **uchastka turi har doim “hisob uchastkasi” sifatida tanlanadi.**

Agar muassasaning manzili hisob uchastkasi manzillar ro'yxatida mavjud bo'lmasa, uning manzil ma'lumotlarini kiritish uchun **“Ro'yxatdan tashqari so'rov”** funksiyasi qo'llaniladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, viloyatga bo'ysunuvchi tuman va shaharlar, (tumanga bo'ysunuvchi shahar, shaharcha, QAP) mahalla fuqarolar yig'ini nomi tegishli ma'lumotnomalardan tanlanadi.

Ko'cha nomi **qo'lda, klaviatura orqali kiritiladi.**

Misol uchun:

Psixofizik rivojlanishida o'ziga xosliklari bo'lgan nogiron bolalar uchun davlat muassasasi – **“Muruvvat-2 internat uyi”**, Andijon viloyati, Andijon tumani Bo'taqara shaharchasi, Oq ravot mahalla fuqarolar yig'ini, Talant ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan.

4-SHAKL

Hudud nomi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) ⓘ

Andijon X ▾

Shahar/Tuman ⓘ

Andijon tumani X ▾

Shaharcha, Aholi punkti ⓘ

Butaqora shaharcha X ▾

Mahalla ⓘ

m.f.y. Oq rovvot X ▾

Ko'cha (shoh ko'cha, tor ko'cha va h.k) nomi * ⓘ

TALANT 6/250

Bino raqami * ⓘ

1 1/4

Manzil ma'lumotlari kiritilgandan so'ng, davom etish tugmasi bosilib, navbatdagi oynaga o'tiladi va ekranda muassasa haqida ma'lumotlar paydo bo'ladi va unga mos muassasa nomi kiritiladi hamda tanlanadi.

Muassasa nomi to'liq va tushunarli yozib chiqiladi.

Muassasa turi tanlanadi – mazkur muassasa yoki tashkilot qanday turga mansubligiga qarab tanlanadi.

Agar muassasa ro'yxatda mavjud bo'lmasa **“boshqa idora tashkilot”** tanlanadi, muassasa turi to'liq va tushunarli yoziladi.

Muassasa turi * ⓘ

1. To'liq davlat ta'minotidagi jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuxsoni bo'lgan bolalar uchun bolalar internat uyi, Bolalar shaharchasi, "SOS – O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi, "Muruvvat" bolalar internat uyi, Bolalar uyi
2. Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati, "Saxovat" internat uyi
3. Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya va Davlat bojxona qo'mitasi huzuridagi tashkilot yoki muassasa, oila a'zolari yashayotgan yopiq hudud
4. Shifoxona va boshqa sog'liqni saqlash tashkiloti
5. Diniy tashkilot
6. Boshqa idora, tashkilot

Shundan so'ng, ushbu muassasada doimiy yashovchi va ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan shaxslar soni ko'rsatiladi.

Agar muassasada respondentlar soni **50 nafar va undan ortiq** bo'lsa, so'rov o'tkazish va ro'yxat varaqalarini to'ldirish ishlari **bir necha kun davomida** amalga oshirilishi mumkin.

Ro'yxatga olish savolnomasiga kiritilgan ma'lumotlar har kuni planshet orqali serverga yuborilishi zarur bo'lgani sababli, **bir kunda so'rovga kiritiladigan shaxslar sonini o'rtacha 50–60 nafar atrofida belgilash tavsiya etiladi.**

Bunday muassasada **bir vaqtning o'zida bir nechta ro'yxatga oluvchi** ishlashi mumkin.

Agar planshet qurilmasida server bilan bog‘lanish imkoni bo‘lsa, birinchi a’zo haqidagi **identifikatsiya raqami** kiritiladi va tizim orqali uning **familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, jinsi, fuqaroligi va tug‘ilgan mamlakati** avtomatik ravishda chiqadi.

Agar identifikatsion raqam yoki server bilan bog‘lanish imkoni bo‘lmasa, bu ma’lumotlar **respondentning so‘ziga ko‘ra, qo‘lda kiritiladi**.

Shundan so‘ng navbatdagi respondent uchun **identifikatsiya raqami yoki familiya, ism, otasining ismini** kiritish oynasi ochiladi va unga nisbatan tegishli savollar beriladi.

Ro‘yxatga kiritilgan **so‘nggi respondent** ma’lumot bergandan keyin, **4-shakl to‘ldirish yakunlanadi** va **2-shakl**ni to‘ldirish oynasi ochiladi.

Yuqorida keltirilgan savollar 2-shaklda **qayta so‘ralmaydi**, chunki ularning javoblari avtomatik ravishda 4-shakl savolnomasidan ko‘chiriladi: **familiya, ism, otasining ismi (agar bo‘lsa), identifikatsion raqam, tug‘ilgan sana, jins**.

Ayrim toifadagi shaxslarga 2-shaklda mavjud bo‘lgan quyidagi savollar berilmaydi:

5. Uy xo‘jaligida birinchi ko‘rsatilgan shaxsga (oilal boshlig‘iga) nisbatan qarindoshlik munosabatingiz?

9. Mazkur aholi yashash punktida tug‘ilganingizdan beri yashaysizmi?

19. Asosiy mehnat faoliyatingizni qayerda olib borasiz (qayerda ishlaysiz)?

20. Asosiy ish joyingizda kim bo‘lib ishlaysiz?

21. Asosiy ishingiz qaysi iqtisodiy faoliyat turiga to‘g‘ri keladi?

22. Asosiy ish joyingiz qayerda joylashgan?

23. 2026-yil 15-yanvargacha bo‘lgan oxirgi 4 hafta (28 kun) davomida faol ravishda ish izladingizmi?

6.5. 5 - shakl – “Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bo‘yicha savolnoma”ni to‘ldirish tartibi

Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bo‘yicha jismoniy shaxslar savolnomasini to‘ldirish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) jismoniy shaxslar uchun qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish savolnomasini to‘ldirish qoidalarini belgilaydi va ro‘yxatga olish davrida jismoniy shaxslar uchun ishlab chiqilgan ro‘yxatdan o‘tkazish savolnomasini to‘ldirishda statistika organlari, “mahalla yettiligi” tizimida ishlovchi xodimlar va ro‘yxatga olishga boshqa vaqtincha jalb etilgan xodimlar tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Agar ro‘yxatga olish obyekti doirasida bir nechta boshqaruvchilarga ega bo‘lgan bir nechta mustaqil xo‘jaliklar mavjud bo‘lsa, har bir xo‘jalik uchun alohida savolnoma to‘ldiriladi.

Savolnoma O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan tayyorlangan 2020-yildagi Butunjahon qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish Dasturi tavsiyalari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan.

1. Umumiy qoidalar

Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish savolnomasi, so‘rov o‘tkaziladigan obyektlarning katta-kichikligidan qat’iy nazar, barcha statistik birliklar (yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklar) uchun yagona hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda **statistik birlik** deb qishloq xo‘jaligi (dehqonchilik, chorvachilik) mahsulotlarini yetishtirayotgan shuningdek, qishloq xo‘jaligi chorva mollari va parrandalari mavjud bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo‘jaligi yoki tomorqa xo‘jaligiga aytiladi.

Dehqon xo‘jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a‘zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatini bog‘dorchilik va uzumchilikka yoki sabzavot va poliz ekinlarini yoxud boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashish asosida amalga oshiradi.

Dehqon xo‘jaligining faoliyati tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi va dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda ham, yuridik shaxs tashkil etmasdan ham amalga oshirilishi mumkin (*O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2021-yil 1-aprel, O‘RQ-680*).

Tomorqa xo‘jaligi shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir.

Tomorqa xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi va tomorqa xo‘jaligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etilmaydi. Tomorqa xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish (qayta ishlash) bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil ravishda amalga

oshiruvchi shaxs aholi bandligi to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxs maqomini olishi mumkin.

Tomorqa xo'jaligini yuritish uchun ajratilgan shaxsiy tomorqa yer uchastkasida yetishtirilgan (qayta ishlangan) qishloq xo'jaligi mahsulotlari xususiy mulkdir (*O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 1-aprel, O'RQ-681*).

3. Intervyuyerlarga bo'lgan talablar

Og'zaki tarzda so'rov o'tkazilganda savolnoma planshet qurilmasi orqali to'ldiriladi.

So'rov o'tkazishda har bir savol ketma-ketligi ro'yxatdan o'tkazish savolnomalarida keltirilgan tartib bo'yicha berilishi zarur.

Savolnoma savollariga javoblarni kiritishda unda ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning o'lchov birliklariga qat'iy amal qilinishi zarur.

Sonli ma'lumotlar quyidagi ko'rsatmalarga muvofiq kiritiladi:

- ayrim bo'limlar uchun butun sonlar;
- boshqa bo'limlar uchun o'nlikdan keyin ikkita raqam (masalan: 1,55);
- ko'rsatkich yo'q bo'lsa — "0" kiritiladi yoki "mavjud emas" tugmachasi

belgilanadi.


Alohida savollarga javoblar «✓» shaklidagi raqamsiz belgi bilan belgilanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish umrbod egalik huquqi, ijara yoki ikkilamchi ijarada yer uchastkalariga ega va/yoki qishloq xo'jaligi chorva mollari va parrandalari mavjud bo'lgan yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaliklari va tomorqa xo'jaliklari uchun o'tkaziladi.

ESLATMA:

Ro'yxatga olish **1-shakl** savolnomasini to'ldirish jarayonida, ushbu savolnomaning **II bo'lim 6-savoliga** muvofiq quyidagilar so'ralgan:

6-savol - "Uy xo'jaligi a'zolarining 2025-yil davomida qishloq xo'jalik yerlari (tomorqasi) yoki 2026 yilning 15 yanvar holatiga chorva mollari va parrandalari bo'lganmi?" savoliga asosan ushbu uy xo'jaligi a'zolaridan birining qishloq xo'jalik yerlari (tomorqasi) yoki qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari mavjud bo'lsa, **"Ha"** javobini belgilang.



Uy xo'jaligi azolaridan birining 2025-yilda yer uchastkalari (yer uchastkalarining bir qismi) va (yoki) 2026-yil 15 yanvar holatiga qishloq xo'jaligi xayvonlari hamda parrandalar uning mulkida, egaligida yoki foydalanishida bo'lganmi?

1. Ha

2. Yo'q

Orqaga Davom etish

Shunga muvofiq, 7-savol ochilgan: «Uy xo'jaligi a'zolari ro'yxatidan qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchisini ko'rsating».

☐	1.1 BAXTIYOR YULDASHEV
☐	1.2 MUXABBAT YULDASHEVA
☐	1.3 AKMAL YULDASHEV
☐	1.4 GULRUX YULDASHEVA
Тасдиқлаш	

Ushbu savolda mazkur turar joyda yashovchi uy xo'jaligi a'zolari ro'yxatidan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan va bir-biridan mustaqil ravishda boshqaruvni amalga oshirayotgan barcha boshqaruvchi shaxslar ko'rsatilgan.

Qishloq xo'jaligi faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. **Tomorqa xo'jaligi** (agar mavjud bo'lsa, boshqa mahallalar hududida joylashgan yer maydonlarini ham o'z ichiga olgan holda).

2. **Yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligi.**

MA'LUMOT UCHUN!

Yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari 5-Shakl «Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha savolnoma» ni to'ldirmaydi.

Ushbu xo'jaliklar 6-Shakl — «Yuridik shaxslar uchun qishloq xo'jaligi ni ro'yxatga olish savolnoma»ni **e-Stat.4 axborot tizimi orqali internet tarmog'ida** to'ldiradi.

3. **Tomorqa xo'jaligi va yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligini bir vaqtning o'zida yuritish.**

Agar bir shaxs tomorqa xo'jaligini ham, yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligini ham boshqarsa, ushbu ikki faoliyat turi bo'yicha bitta 5-shakl to'ldiriladi.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchi shaxs - bu xo'jalik rahbari nomidan xo'jalikni boshqaradigan shaxs yoki ushbu xo'jalik rahbari bo'lib, xo'jalikdagi kundalik moliyaviy va ishlab chiqarish operatsiyalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

DIQQAT!!!

Qishloq xo'jaligi faoliyatini boshqaruvchi **shaxslar soniga qarab, shu miqdorda 5-shakl ketma-ket tarzda** to'ldiriladi.

I. Bo'lim

Umumiy tavsif

1-SAVOL – 2025-yil davomida xo'jalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning asosiy maqsadi.

Agar xo'jalik o'zi yetishtirgan mahsulotining ma'lum bir qismini sotsa, qolgan qismini esa o'z iste'moli uchun ishlatasa, ishlab chiqarishning **asosiy maqsadi qiymat jihatidan qaysi qismi (o'z ehtiyoji yoki sotish) ko'proq bo'lsa, shunga ko'ra belgilanadi.**

Javoblarga qarab, bir yoki bir nechta turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va/yoki qishloq xo'jaligi chorva mollari va parrandalar yetishtirish maqsadlari ko'rsatiladi va respondentning javobi asosida quyidagi variantlar belgilanadi (taqdim etilgan **4 ta javob variantidan faqat bittasi belgilanadi**):

I БЎЛИМ. УМУМИЙ ТАВСИФ

1. Охирги 12 ой давомида хўжаликда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришнинг асосий мақсади

1. фақат сотиш учун маҳсулот етиштириш
2. асосан сотиш учун маҳсулот етиштириш, қисман ўз истеъмоли улуши билан
3. асосан ўз истеъмоли учун маҳсулот етиштириш, қисман сотиш улуши билан
4. фақат ўз истеъмоли учун маҳсулот етиштириш

Misol uchun:

Agar xo'jalik tomonidan barcha mahsulotlar faqat sotish maqsadida yetishtirilgan bo'lsa, **“faqat sotish uchun mahsulot yetishtirish”** javob varianti tanlanadi;

Agar xo'jalik tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarining bir qismi sotilgan, qolgan qismi esa o'z ehtiyoji uchun foydalanilgan bo'lsa va **sotilgan** mahsulotning qiymati (javob beruvchi/xo'jalik rahbari fikriga ko'ra) iste'mol qiymatidan kattaroq bo'lsa, **“asosan sotish uchun mahsulot yetishtirish, qisman o'z iste'moli ulushi bilan”** javob varianti tanlanadi.

Agar xo'jalik tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarining bir qismi sotilgan, qolgan qismi esa o'z ehtiyoji uchun foydalanilgan bo'lsa va **iste'mol** qilingan mahsulotning qiymati (javob beruvchi/xo'jalik rahbari fikriga ko'ra) sotilgan mahsulot qiymatidan **kattaroq** bo'lsa, **“asosan o'z iste'moli uchun mahsulot yetishtirish, qisman sotish ulushi bilan”** javob varianti tanlanadi.

Agar xo'jalik tomonidan barcha mahsulotlar faqat o'z iste'moli uchun yetishtirilgan bo'lsa, **“faqat o'z iste'moli uchun mahsulot yetishtirish”** javob varianti tanlanadi.

Ma'lumot uchun:

Sotish uchun ishlab chiqarish **naqd** yoki **naqdsiz shaklda sotish** yoki **boshqa mahsulotga almashish** tushuniladi.

Xo'jalik tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qarindoshlariga berish va sovg'a qilish – **sotish hisoblanmaydi** (oila a'zolariga berish va sovg'a qilish - **o'z iste'moli uchun mahsulot yetishtirishga** kiradi).

O'z iste'moli uchun mahsulot yetishtirish — bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uy xo'jaligining oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirish va ushbu xo'jalikda mavjud chorva mollarining ozuqasi maqsadida yetishtirishni anglatadi.

II. BO'LIM

Xo'jalikdagi mehnat faoliyati

1-SAVOL - Ushbu xonadonda yashovchi, 2025-yil davomida qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullangan xo'jalik a'zolarining ish vaqti va ishlagan oylari.

Ushbu savolga javob berish uchun mazkur turar joyda yashovchi, 15 yoshdan katta bo'lgan barcha a'zolar ro'yxati (1.1-ustun — F.I.O.) taqdim etiladi.

Mazkur ro'yxatdan, 2025-yil davomida ushbu xo'jalikda qishloq xo'jaligi ishlarida ishtirok etgan shaxslar uchun 1.2. “Qishloq xo'jaligi ishlarida ishtirok

etganligi” ustunida “**ha**” javobi belgilanadi, qolgan shaxslar uchun esa “**yo‘q**” javobi belgilanadi.

“**Ha**” javobi belgilangan har bir shaxs uchun 1.3.1 va 1.3.2 ustunlari ochiladi.

1.3.1 ustunida bir kunda ishlangan o‘rtacha ish soatlari soni (butun sonlarda) ko‘rsatiladi.

1.3.2 ustunida 2025-yil davomida ishlangan oylar soni (butun sonlarda) ko‘rsatiladi.

Misol uchun:

*Xo‘jalikda qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar – uy xo‘jaligi boshlig‘i (otasi) va katta voyaga yetgan o‘g‘li, ular **haftasiga 40 soatdan** ishlaydi.*

*Shuningdek, oxirgi **6 oy mobaynida** xonadon boshlig‘ining turmush o‘rtog‘i ham ushbu ish bilan band.*

*Shu bilan birga, ularga qishloq xo‘jaligi ishlarini yuritishda har kuni **voyaga yetmagan 16 yoshli o‘g‘il** va **17 yoshli qiz** farzandlari hamda davlat tashkilotida **iqtisodchi** bo‘lib ishlayotgan **24 yoshli kelin** ham yordam beradilar.*

***O‘g‘il** va **qiz** xo‘jalikda chorva mollarini boqishga (**kuniga 1 soatdan**) hamda chorva mollarining turar joylarini (molxona, qo‘yxona) tartibga keltirishda (**kuniga 1 soatdan**) yordam beradilar.*

*Kelin esa bir kunda ikki mahal (**ertalab va kechqurun**) sigirlarni sog‘adi (**kuniga 1 soatdan**).*

Shuningdek, uy xo‘jaligida kolleжда tahsil olayotgan, xo‘jalikning qishloq xo‘jaligi faoliyatida ishtirok etmaydigan 2 nafar qiz farzand ham yashaydi.

Ushbu holat quyidagicha aks ettiriladi:

1.1. F.I.O.	1.2. Qishloq xo‘jaligi faoliyatida ishtirok etganligi: ha; yo‘q	1.3. Bandligi	
		1.3.1. soat (bir kunda)	1.3.2. Oylar (1–12)
Yuldashev Nurulla Gaybullayevich (ota)	ha	6	12
Yuldasheva Shirin Rustamovna (ona)	ha	2	6
Yuldashev Sherzod Nurullayevich (katta o‘g‘li)	ha	6	12
Yuldasheva Aida Nematovna (kelini)	ha	1	12
Yuldashev Behruz Nurullayevich (o‘g‘li)	ha	2	12
Yuldasheva Sevinch Nurullayeva (qizi)	ha	2	12
Yuldasheva Lola Nurullayeva (qizi)	yo‘q		

Yuldasheva Nargiza Nurullayeva (qizi)	yo'q		
--	------	--	--

A-SAVOL. Yashab turgan joyingizdagi tomorqa yerini ham qo'shgan holda, 2025-yilda foydalanishingizda jami nechta ekin ekilgan, ekin ekilmagan (bo'sh turgan) hamda bog'dorchilik yer maydonlari mavjud bo'lgan?

Ushbu savolga javob berishda xo'jalik foydalanishida bo'lgan barcha yer maydonlarining soni ko'rsatiladi (ularning joylashgan manzildan qat'iy nazar, hatto bir mahalla hududida joylashgan bo'lsa ham).

III, IV va V bo'limlar A-savolda ko'rsatilgan yer maydonlari soniga muvofiq har bir yer maydoni uchun alohida to'ldiriladi.

Misol uchun:

1. Uy xo'jaligi turar joyi bilan tomorqa yer maydoni mavjud hovlida istiqomat qiladi. Ro'yxatga olish davrida usbu turar joy bo'yicha 1-shakl, unda yashovchi shaxslar uchun 2-shakl hamda tomorqa yer maydoni bo'yicha 5-shakl to'ldiriladi. 5-shakldagi A-savolga yerlar soniga 1 (bir) raqami va yer maydonining manziliga yashab turgan hovli manzili kiritiladi.

Faqat tomorqa yeri mavjud xo'jaliklar uchun 5-shaklning A-savolida yer maydonlari soni 1 ta deb ko'rsatiladi.

Tomorqa yeridan tashqari boshqa manzillardagi foydalanilayotgan yoki foydalanilmayotgan turar joy siz yerlar bo'yicha 5-shakldagi A-savolga javob kiritish quyidagi misollarda keltirilgan:

1. Uy xo'jaligi o'zi yashab turgan mahallada joylashgan tomorqa yer maydoniga (turar joy binosi bilan) ega, shuningdek qo'shimcha ravishda shu mahallada joylashgan turar joy binosisiz yer maydonini ijaraga olgan.

Bu holda A-savolda yer maydonlari soni 2 ta deb ko'rsatiladi va 5-shaklning III, IV va V bo'limlari ikki marta, ya'ni har bir yer maydoni uchun alohida to'ldiriladi.

2. Uy xo'jaligi so'rov o'tkazilayotgan Navoiy viloyati Zarafshon shahrining "Navro'z" mahallasida joylashgan tomorqa yer maydoniga (turar joy binosi bilan) ega.

Shuningdek, Navoiy viloyati Karmana tumanining "Kattamachit" mahallasida joylashgan turar joy binosisiz yer maydoniga ega.

Ushbu holatda A-savolda yer maydonlari soni 2 ta deb ko'rsatiladi va 5-shaklning III, IV va V bo'limlari 2 marta, ya'ni har bir yer maydoni uchun alohida to'ldiriladi.

III. BO'LIM

Yer resurslari va ulardan foydalanish

1-SAVOL. Yer maydonlari joylashgan manzilni ko'rsating.

Quyidagilar ko'rsatiladi:

- hudud nomi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri);
- tuman yoki shahar nomi;
- mahalla nomi.

Ma'lumot uchun!

Agar respondent ekin maydonlarining o'lchamini baholashda qiynalsa, intervyuyer (mahalla yettiligi) respondentning roziligi bilan barcha ekin maydonlari hamda ekin turlari bo'yicha maydonlarni taxminan o'lchab aniqlaydi.

2-SAVOL - 2026-yilning 15-yanvar holatiga yer uchastkasiga bo'lgan egalik huquqi va ularning maydoni (sotix, 0,01 aniqlikkacha).

Ushbu savolga respondentning javobi asosida 2026-yilning 15-yanvar holatiga barcha egalik huquqidagi yer uchastkalari va ularning maydoni quyidagi variantlar bo'yicha belgilanadi (taqdim etilgan 5 ta javob variantlaridan barchasi ham tanlanishi mumkin).

Quyidagi variantlar ko'rsatiladi:

	Yerga bo'lgan egalik huquqi	Yer maydonining o'lchami (sotix)
2.1	Umrbod egalik qilish huquqi	
2.2	Ijaraga olingan (to'liq, auksion orqali, lot)	
2.3	Ikkilamchi ijaraga olingan	
2.4	Ijaraga berilgan yerlar	
2.5	Boshqa yerlar (xo'jalikka tegishli bo'lmagan, biroq xo'jalik tomonidan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilayotgan mahalla hududidagi yerlar)	

“Umrbod egalik qilish huquqi” - meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etgan, etmagan holda ham) va tomorqa xo'jaliklari egalariga **taqdim etiladigan yer uchastkalari tushuniladi.**

“Ijaraga olingan (to'liq, auksion, lot)” - uy xo'jaligi tomorqasi hududidan tashqarida qishloq xo'jaligi maqsadlarida vaqtincha foydalanilayotgan, og'zaki, yozma shartnomasi yoki onlayn-auksion savdo asosida ijaraga olingan yer uchastkalari kiritiladi;

“Ikkilamchi ijaraga olingan” – uy xo'jaligi tomorqasi hududidan tashqarida qishloq xo'jaligi maqsadlarida vaqtincha foydalanilayotgan, jismoniy yoki yuridik shaxs (ijarachi)dan og'zaki yoki yozma subijara shartnomasi asosida ijaraga olingan yer uchastkalari kiritiladi;

“Ijaraga berilgan” - bir shaxs (ijaraga beruvchi) o'z yerlarini boshqa shaxsga, ma'lum muddatga, belgilangan shartlar asosida, ijara haqi evaziga yoki to'lovsiz foydalanish uchun berilishi. Bunda ijaraga berilgan yer maydoni umrbod egalik qilish huquqi asosidagi yer maydonidan kichik bo'lishi lozim.

“Boshqa yerlar” - xo'jalik yer uchastkasining asosiy yer maydoni tarkibiga kirmagan (rasmiylashtirilgan hujjat asosida kirmagan) uy hududidan tashqarida, ya'ni ko'cha tomonida, yon atroflaridagi (uyga tutash hududlarda) xo'jalik tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilayotgan, mevali, manzarali (terak, archa, tol va boshqalar) daraxtlar ekilgan mahalla hududidagi yer uchastkalari.

Misol uchun:

Uy xo'jaligi umrbod egalik qilish huquqi asosida 20 sotix tomorqa yer maydoniga ega bo'lib, shundan 5 sotixi ijaraga berilgan. Shuningdek, fermer xo'jaligidan tomorqa yer maydoniga bevosita tutashgan 15 sotix yer maydoni ikkilamchi ijaraga olingan.

Bundan tashqari, uy darvozasi tashqarisi (ko'cha tomoni)da joylashgan, xo'jalikning asosiy yer maydoniga kirmaydigan yana 4 sotix yer maydoni mavjud. Ushbu 4 sotix yer maydonida uy xo'jaligi rahbari tomonidan 20 tup olma va 10 tup nok daraxti ekilgan. Mazkur 4 sotix yer maydoni boshqa yerlar toifasiga kiradi. Ushbu 20 tup olma va 10 tup nok daraxti to'liq hisobga olinishi lozim.

Eslatma:

Agar uy xo'jaligi tomorqa yer maydonidan tashqarida, unga tutash holda (tomorqa yonida) joylashgan yer maydonlaridan foydalansa, barcha ushbu yerlar bitta manzil bo'yicha bitta yer maydoni sifatida hisobga olinadi.

Yer maydonlariga egalik qilish huquqlari bo'yicha javob variantlarini to'ldirish namunasi:

	Yerga bo'lgan egalik huquqi	Yer maydonining o'lchami (sotix)
2.1	Umrbod egalik qilish huquqi	20
2.2	Ijaraga olingan (to'liq, aukcion orqali, lot)	0
2.3	Ikkilamchi ijaraga olingan	15
2.4	Ijaraga berilgan yerlar	5
2.5	Boshqa yerlar (xo'jalikka tegishli bo'lmagan, biroq xo'jalik tomonidan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilayotgan mahalla hududidagi yerlar)	4

Eslatma:

Savolnoma to'ldirilganda yer maydoni ko'rsatkichlari sotixda (0,01 sotixgacha aniqlikda) aks ettirilishi kerak.

Yer uchastkalari maydonlari haqidagi ma'lumotlarni to'ldirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1 m² = 0,01 sotix;

10 m² = 0,1 sotix;

100 m² = 1 sotix;

10 000 m² = 1 gektar;

1 gektar = 100 sotix.

Agar umumiy yer maydoni, masalan, 1 gektar bo'lsa, III bo'limning 3-savoli, 3 satrga **100 sotix deb kiritilishi lozim.**

3 - SAVOL – 2025-yil davomida xo'jalik tasarrufidagi yer maydoni va ularning foydalanish turlari bo'yicha taqsimlanishi.

Xo'jalikning umumiy yer maydonini yerdan foydalanish turlari bo'yicha hisobga olish 2025-yil foydalanish holatiga ko'ra amalga oshiriladi.

Savolnomaning qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlari haqidagi ma’lumotlar to‘ldirilganda quyidagi **qoidalariga rioya qilish kerak:**

- qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydonlari haqidagi ma’lumotlarni to‘ldirishda 2025-yil hosili uchun ekilgan asosiy (birlamchi) ekinlar hisobga olinadi;

- qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlari asosiy maqsadga ko‘ra ko‘rsatilishi lozim.

Eslatma:

Agar xo‘jalikda yerlar navbatma-navbat ishlov berish asosida foydalanilayotgan bo‘lsa, u holda umumiy yer maydoniga quyidagilar kiritilishi lozim:

- ekin ekilgan maydonlar;

- shuningdek, ro‘yxatga olish kunida hali ekilmagan yoki ko‘chat qilinmagan, lekin ishlov berish uchun tayyorlangan yerlar.

Yer uchastkasining **umumiy yer maydoni** III Bo‘lim, 2-savoldagi barcha (2.1, 2.2, 2.3, 2.5) satrlar yig‘indisidan 2.4-satr (ijaraga berilgan yerlar) qiymatini ayirib tashlagan holda ro‘yxatga olinadi va xo‘jalikning amaldagi egaligida va foydalanishida bo‘lgan (foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan) **barcha yerlarni** qamrab oladi.

Shu bilan birga, quyidagilarga e’tibor bering:

III-bo‘limning 2-savolida ko‘rsatilgan yer maydonlari yig‘indisi (2.1+2.2+2.3+2.5–2.4 satrlar) har doim ham 3-savolning 3-satri “Umumiy yer maydoni” bilan teng bo‘lavermasligi mumkin. Bunga hisobga olish davrlarining farqliligi sabab bo‘ladi:

2-savol uchun — 2026 yil 15 yanvar holatiga,

3-savol uchun — 2025-yil davomida.

Bu holat xo‘jalikda 2025-yil davomida foydalanilgan, biroq 2026 yil 15 yanvar holatiga kelib foydalanishda bo‘lmagan yer maydonlari mavjud bo‘lgan taqdirda yuzaga keladi.

Masalan, xo‘jalik rahbari 2025-yil davomida yer maydonini ijaraga olib, yil oxiriga kelib uni qaytarib bergan bo‘lishi mumkin yoki 2025-yil davomida o‘ziga tegishli yer maydonidan foydalangan, biroq yil oxiriga kelib ushbu yer maydonini sotgan bo‘lishi mumkin.

Umumiy yer maydoni

shu jumladan:

3.1 Qishloq xo‘jaligi maqsadlarida **foydalanilgan yerlar, jami:**

3.1.1 ekin (haydalgan) yerlar

shu jumladan:

3.1.1.1 **bir yillik ekinlar ekilgan ochiq yerlar** (*gullar, ko‘p yillik o‘tlar va ozuqa uchun bedani hisobga olgan holda*);

3.1.1.2 **yopiq yerlar** (*issiqxonalar*);

3.1.1.3 **vaqtincha ekilmagan yerlar**;

3.1.2 ko‘p yillik ekinlar yer maydonlari;

3.1.3 tabiiy pichanzorlar va yaylovlar bilan band bo‘lgan yerlar;

3.1.4 xo‘jalik maqsadlarida foydalanilgan yerlar;

3.2 o‘rmon va boshqa o‘rmon bilan qoplangan yerlar;

3.3 baliq boqish (akvakultura) uchun foydalaniladigan yerlar;

3.4 yuqoridagi turlarga kiritilmagan boshqa yer maydonlari.

3.1.1.1, 3.1.1.2, 3.1.1.3, 3.1.2, 3.1.3, 3.1.4, 3.2, 3.3 – satrlar to'ldiriladi.

3.1, 3.1.1 va 3.4 satrlar avtomatik tarzda to'ldiriladi.

Bir yillik ekinlar ekilgan ochiq yerlar — ekinlari bir yil ichida ekilib, hosili olinadigan ekinlar yetishtiriladigan yer maydonlaridir.

Yopiq yerlar - dehqonchilik mahsulotlarini **nazorat qilinadigan sharoitlarda** (zarur harorat, namlik va yoritishni ta'minlagan holda) yetishtirish uchun mo'ljallangan, **shisha, plastmassa yoki boshqa materiallardan tayyorlangan tomli doimiy inshootlar** ostida joylashgan hududlardir.

Bunday inshootlarda **bir yillik va ko'p yillik ekinlar** yetishtirilishi mumkin.

Issiqxonalar — sun'iy ravishda (neft, gaz, elektr energiyasi, ko'mir, o'tin va boshqalar yordamida) isitiladigan inshoot bo'lib, ularda qishloq xo'jaligi ekinlaridan yil davomida hosil olishni tashkil qilish mumkin bo'lib, ekishdan boshlanib to hosilni yig'ib olish bilan tugallanadigan davrni o'z ichiga oladi.

Issiqxonalarning maqbul balandligi **2 metr** atrofida va undan ham baland bo'lishi mumkin. Issiqxonalarning balandligi ularning ichida qishloq xo'jaligi ekinlariga ishlov berish uchun nafaqat odamlar, balki qishloq xo'jaligi texnikalarining ham bemalol harakatlanishini ta'minlashi zarur.

Vaqtincha ekilmagan yerlar (dam olayotgan) haydaladigan yerlar bo'lib, yerga qayta ishlov berishdan oldin uzoq muddat dam oladi. Bunday holat xo'jalikning almashlab ekish tizimining bir qismi bo'lishi mumkin yoki odatda ekiladigan ekinlar suv toshqini, suv tanqisligi yoki boshqa sabablar oqibatida ekilmasligi yoxud o'tqazilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ko'p yillik ekinlar yer maydonlariga bir necha yillar davomida takroriy ekishni talab qilmaydigan ko'p yillik ekinlarni yetishtirish uchun foydalaniladigan yerlar, nastarin kabi gulli daraxtlar va butalar bilan band yerlar, ko'chatzorlar (o'rmon daraxtlari ko'chatzorlari bundan mustasno, ular "o'rmonlar yoki boshqa o'rmon bilan qoplangan yerlar" toifasiga kiritilishi kerak) kiradi. Tabiiy pichanzorlar va yaylovlar bilan band yerlar ko'p yillik ekinlar ekiladigan yerlar jumlasiga kirmaydi.

Tabiiy pichanzorlar va yaylovlar bilan band yerlarga uzoq vaqt davomida (besh yil va undan ortiq) ham madaniy, ham tabiiy (tabiiy pichanzorlar yoki yaylovlar) o'tli ozuqa o'simliklarini yetishtirish uchun foydalaniladigan yerlar kiradi.

Ekstensiv usulda foydalaniladigan yaylovlar:

Masalan, agar xo'jalik umumiy foydalanishdagi yaylovlarda chorva mollarini boqsa, bunday yaylovlar xo'jalikning umumiy yer maydoniga kiritilmaydi.

Agar xo'jalik yaylov yerlaridan **ijara** asosida foydalanilayotgan bo'lsa, ijara turidan kelib chiqqan holda, ushbu yer maydonlari mos ravishda "Ijaraga olingan yerlar"-2.2 satr yoki "Ikkilamchi ijaraga olingan yerlar"-2.3 satr satrida aks ettiriladi va ushbu bo'lim 3 savolining "Tabiiy pichanzorlar va yaylovlar band yerlar" 3.1.3-satrida ko'rsatiladi.

Xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan yerlar — xo'jalik egasining uyi, uy atrofidagi hovli, molxona(lar), otxona(lar), somonxona, traktorlar uchun garaj, parranda kataklari joylashgan va boshqa yerlar.

DIQQAT!

Agar, turar joy (hovli) tomorqa yeriga ega va uy xo‘jaligi ushbu tomorqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirayotgan bo‘lsa, uy xo‘jaligi **istiqomat qilayotgan turar joyning qurilish osti maydoni** va atrofidagi hovli yeri (yo‘laklar) qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanilayotgan bino va inshootlarni (molxona, somonxona, traktorlar uchun garaj, parranda kataklarini) qo‘shgan holda **3.1.4 “xo‘jalik maqsadlarida foydalanilgan yerlar”**-satrida ko‘rsatishi lozim.

Agar, uy xo‘jaligi **istiqomat qilayotgan turar joy (hovli)**da qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilmasa hamda umuman qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanmasa, uy xo‘jaligi istiqomat qilayotgan turar joyning qurilish osti maydoni va atrofidagi hovli yeri (yo‘laklar) **3.4 “yuqoridagi turlarga kiritilmagan boshqa yer maydonlari”**-satrida ko‘rsatishi lozim.

O‘rmonlar va boshqa o‘rmon bilan qoplangan yerlar – maydoni 0,5 gektardan ortiq, balandligi 5 metrdan (m) va o‘rmon bilan qoplanganligi **10% dan** ortiq bo‘lgan yoki **o‘sish joyida ushbu chegaraviy qiymatlarga yetishi mumkin bo‘lgan daraxtlar bo‘lgan yerlar**. Bunga tabiiy va sun‘iy ekilgan o‘rmonlar kiradi.

Bunga tabiiy va sun‘iy ekilgan o‘rmonlar kiradi. **O‘rmonlar va boshqa o‘rmon bilan qoplangan yerlarga** 5 yil ichida o‘rmonga aylantirilishi mo‘ljallangan o‘rmon yo‘llari, yong‘inga qarshi yo‘laklar va boshqa kichik ochiq maydonlar, shuningdek, daraxtlar vaqtincha o‘smaydigan maydonlar (o‘rmon tuzish doirasida o‘rmonni to‘liq kesish, tashlab ketilgan almashlab ekish yoki tabiiy ofat natijasida) kiradi. Bu yerda shamol to‘sqichlar, shamoldan himoyalovchi yo‘laklar va maydoni 0,5 gektardan ortiq va kengligi 20 metrdan ortiq bo‘lgan daraxtlar qatorlari kiritiladi. O‘rmonning ajralmas qismini tashkil etuvchi o‘rmon daraxtlari ko‘chatzorlarini ham ushbu toifaga kiritish kerak.

Baliq boqish (akvakultura) uchun foydalanilgan yerlar deganda xo‘jalikda akvakultura uchun foydalaniladigan suvlar maydoni tushuniladi. U ikki xil bo‘lishi mumkin: quruqlikdagi va ichki suvlardagi. So‘nggi turdagi maydonlar akvakultura maqsadlarida foydalanish uchun ijaraga olingan suv maydonlarining bir qismidir. Bunday suv havzalariga daryolar, ko‘llar, suv omborlari, to‘g‘onlar, kanallarning qismlari kirishi mumkin. Shuningdek, akvakultura maydoni tarkibiga yordamchi inshootlar ham qo‘shiladi, masalan, havza qirg‘og‘idagi to‘g‘on yoki damba devorlari hamda suv yuzasidagi suzuvchi tuzilmalar (qafaslar, pontonlar va h.k.).

Yer usti akvakulturasida sholi dalalari, hovuzlar, basseynlar, kanallar va xo‘jalikning boshqa yer maydonlarida amalga oshiriladi.

Akvakultura uchun ajratilgan yer maydoni tarkibiga suv havzalaridagi baliqchilik pitomniklarining yer maydoni kiritilishi kerak, ammo omborxonalar, baliqni qayta ishlash binolari, laboratoriyalar va ofislar kabi akvakultura bilan bog‘liq yerda joylashgan inshootlar maydoni hisobga olinmasligi lozim.

Yuqoridagi turlarga kiritilmagan boshqa yer maydonlari - xo‘jalik ichidagi yo‘llar va so‘qmoqlar; baliqchilikda foydalanilmaydigan kanallar; zovurlar; ko‘llar va boshqa suv havzalari; qirg‘oq bo‘yi hududlar; maysazorlar va boshqalar.

Misol uchun:

1. Uy xo'jaligi so'rov o'tkazilayotgan Buxoro viloyati Kogon shahrining "Navro'z" mahallasida joylashgan tomorqa yer maydoniga (turar joy binosi bilan) ega.

Uy xo'jaligi yashab turgan tomorqasining jami **20 sotixdan:**

- **5 sotix** - qo'shnisiga vaqtinchalik foydalanishga (ijaraga) bergan,
- **4 sotix** - turar joy binolari va hovli yuzining (bruschatka bilan yotqizilgan qismi) maydoni tashkil etadi,
- **4 sotixda** - bir yillik ekinlar (sabzavotlar, kartoshka, beda, gullar);
- **2 sotix** yopiq yerda - pomidor yetishtirilgan;
- **3 sotixda** - ko'p yillik mevali daraxt va butalar (2 tup olma, 2 tup o'rik, 2 tup gilos, 2 tup shaftoli, 2 tup olcha mavjud va ularning orasiga turli xil sabzavotlar ekilgan, shuningdek, 1 sotixda malina va 5 tup tok (uzum) ekilgan);
- **1 sotix** yerda molxona qurilgan;
- **1 sotix** yer oxirgi 12 oy davomida bo'sh qoldirilgan.

Shu bilan birga uy xo'jaligining darvozasidan tashqari (ko'cha tomonida) va atrof qismida ham mahallaga tegishli **4 sotix yer** maydonida ushbu xo'jalikka tegishli **4 tup tol, 5 tup terak, 6 tup pavlovniya, 2 tup tut, 2 tup archa daraxti** mavjud.

2. Shuningdek, Buxoro viloyati Buxoro tumanining "Navoiy" mahallasida joylashgan **turar joy**siz **15 sotix yer** yer maydoniga ega:

- **10 sotixga** yem - xashak uchun makkajo'xori,
- **5 sotixga** - loviya ekilgan.

Ushbu holatda A-savolda yer maydonlari soni **2 ta** deb ko'rsatiladi va 5-shaklning III, IV va V bo'limlari 2 marta, ya'ni har bir yer maydoni uchun alohida to'ldiriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda uy xo'jaligi tomonidan foydalanilayotgan yerlar quyidagicha taqsimlanadi:

1. Buxoro viloyati Kogon shahrining "Navro'z" mahallasida joylashgan **birinchi** tomorqa yer maydoni bo'yicha:

		Maydon (sotix)
3	Umumiy yer maydoni	19
3.1	qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilgan yerlar, jami (3.1.1+3.1.2+3.1.3+3.1.4)	19
3.1.1	ekin (haydalgan) yerlar <i>шундан: (3.1.1.1+3.1.1.2+3.1.1.3)</i>	7
3.1.1.1	bir yillik ekinlar ekilgan ochiq yerlar (shu jumladan, ko'p yillik o'tlar va ozuqa uchun beda)	4
3.1.1.2	yopiq yerlar (issiqxonalar)	2
3.1.1.3	vaqtincha ekilmagan yerlar	1
3.1.2	ko'p yillik ekinlar yer maydonlari	7
3.1.3	tabiiy pichanzorlar va yaylovlar bilan band bo'lgan yerlar	0
3.1.4	xo'jalik maqsadlarida foydalanilgan yerlar	5
3.2	o'rmon va boshqa o'rmon bilan qoplangan yerlar	0
3.3	baliq boqish (akvakultura) uchun foydalanilgan yerlar	0
3.4	yuqoridagi turlarga kiritilmagan boshqa yer maydonlari	0

Undan so'ng, **birinchi** maydoni bo'yicha IV va V bo'limlari to'ldiriladi.

2. Shuningdek, Buxoro viloyati Buxoro tumanining “Navoiy” mahallasida joylashgan **ikkinchi turar joysiz 15 sotix yer** maydoni bo'yicha:

		Maydon (sotix)
3	Umumiy yer maydoni	15
3.1	qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilgan yerlar, jami (3.1.1+3.1.2+3.1.3+3.1.4)	15
3.1.1	ekin (haydalgan) yerlar <i>шундан: (3.1.1.1+3.1.1.2+3.1.1.3)</i>	15
3.1.1.1	bir yillik ekinlar ekilgan ochiq yerlar (shu jumladan, ko'p yillik o'tlar va ozuqa uchun beda)	15
3.1.1.2	yopiq yerlar (issiqxonalar)	0
3.1.1.3	vaqtincha ekilmagan yerlar	0
3.1.2	ko'p yillik ekinlar yer maydonlari	0
3.1.3	tabiiy pichanzorlar va yaylovlar bilan band bo'lgan yerlar	0
3.1.4	xo'jalik maqsadlarida foydalanilgan yerlar	0
3.2	o'rmon va boshqa o'rmon bilan qoplangan yerlar	0
3.3	baliq boqish (akvakultura) uchun foydalanilgan yerlar	0
3.4	yuqoridagi turlarga kiritilmagan boshqa yer maydonlari	0

Undan so'ng, **ikkinchi** yer maydoni bo'yicha IV va V bo'limlari to'ldiriladi.

IV.BO'LIM SUG'ORISH

Sug'orish - yomg'irdan tashqari hollarda, yaylovlar holatini yaxshilash yoki ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida tuproqni suv bilan sun'iy namlashdir. Sug'orish, odatda, ekinlarga suv yetkazib berish uchun mo'ljallangan infratuzilma va jihozlar mavjudligini nazarda tutadi (masalan, sug'orish kanallari, nasoslar, yomg'irlatib sug'orish uskunalari yoki lokallashtirilgan sug'orish tizimlari). Shuningdek, chelak, leyka va boshqa anjomlardan foydalanib o'simliklarni **qo'lda sug'orish** ham sug'orishga kiradi. Daryo yoki boshqa suv oqimlarining havzadan toshishi natijasida yerlarning **nazoratsiz suv bosishi** sug'orish deb hisoblanmaydi.

Sug'orish - bu suv manbaidan suvni olib, uni qishloq xo'jaligi ekinlariga yetkazib berish jarayonining har qanday turini o'z ichiga oladi. Sug'orish uchun suv turli manbalardan - **daryolar, suv omborlari, quduqlar** va boshqa manbalardan olinishi mumkin. Sug'orish suvi katta hududda joylashgan bir nechta xo'jaliklarga xizmat qiluvchi **keng qamrovli sug'orish tizimi** orqali yoki **mahalliy suv tarmog'i** orqali (masalan, bir mahallaga xizmat qiluvchi) yetkazilishi mumkin. Shahar va shahar atrofi hududlarida sug'orish **shlanglar** va **chelaklar** yordamida amalga oshiriladi, ba'zan bu jarayonda **shahar (munitsipal) suv ta'minoti tizimidan** ham foydalaniladi.

Sug'oriladigan yerlar - qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar.

1-SAVOL – 2025-yil davomida ushbu yer uchastkasi kamida bir marta bo‘lsa ham sug‘orilganmi?

Yer maydoni 2025-yil davomida kamida bir marta sug‘orilgan bo‘lsa, u amalda sug‘orilgan yer hisoblanadi.

Agar yer maydoni sug‘orilgan bo‘lsa, 1.1-satr “**Ha**” javobi belgilanadi. Agar yer maydoni sug‘orilmagan bo‘lsa, 1.2-satr “**Yo‘q**” javobi belgilanadi.


Agar “**Ha**” javobi belgilansa, suv manbalari bo‘yicha savol (2-savol) va sug‘orish usullari bo‘yicha savol (3-savol) ochiladi.

2-SAVOL – Qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orish uchun 2025-yil davomida foydalanilgan suv manbalari

Savolnomani to‘ldirishda xo‘jalikda qo‘llanilayotgan sug‘orish manbalarini quyidagi ro‘yxat asosida ko‘rsatish lozim (taqdim etilgan 5 ta javob variantlaridan barchasi ham tanlanishi mumkin):

Misol uchun:

Xo‘jalik qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun **yer usti suvlari** (kanal suvi) va **vodoprovod suvidan** foydalangan. Shu asosda quyidagi ro‘yxatdan 1 va 3-bandlar belgilanadi.



☒	1. Ер усти сувлари (ирмоқ, дарё, сув омборлари, ҳовуз, кўл, ариқ, канал, зовур, заҳқаш (закач), қудуқ)
☐	2. Ер ости сувлари
☐	3. Ер усти ва ер ости сувларининг аралашмаси
☒	4. Водопровод сувлари
☐	5. Тозаланган оқова сувлари
☐	6. Бошқалар

Тасдиқлаш

Yer usti suvlar — bu yer yuzidagi suvlar bo‘lib, ular sug‘orish uchun qo‘llaniladi, masalan, cho‘kmalar, daryolar, suv omborlari, hovuzlar, ko‘llar, ariqlar, kanallar, aniq suv omborlari.

Yer ostidagi suvlar - bu yer ostida, suvni saqlaydigan qatlamlarda joylashgan suvlardir, ya’ni tuproqdagi, tuproq suvlari darajasidan pastroqdagi to‘yinganlik zonasidagi suvlardir, yerdagi bo‘shliqlar suv bilan to‘ldirilgan. Odatda ular quduqlardan chiqariladi.

Vodoprovod suvi — markazlashgan suv ta’minoti tizimi (kommunal yoki maxsus qishloq xo‘jaligi tizimi) orqali kelayotgan suv.

Tozalangan oqava suvlar — bu oqava (xonadon yoki ishlab chiqarish) suvlari bo‘lib, ularning tozalanganlik darajasi sug‘orish uchun mo‘ljallangan.

3 - SAVOL. 2025-yil davomida qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orishda foydalanilgan sug‘orish usullari.

Savolnomani to‘ldirishda xo‘jalikda qo‘llanilayotgan sug‘orish usullarini quyidagi ro‘yxat asosida ko‘rsatish lozim (taqdim etilgan 4 ta javob variantlaridan barchasi ham tanlanishi mumkin):

Misol uchun:

Xo‘jalik qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orishda **yer usti sug‘orish** va **tomchilatib sug‘orish** usullaridan foydalangan. Shu sababli quyidagi ro‘yxatdan 1 va 2-bandlar belgilanadi:

Tomchilatib sugʻorish — qishloq xoʻjaligi ekinlarini parvarishlashda oʻsimlikning ildizi yonidagi zonaga uning ehtiyojiga mos miqdordagi suvni yetkazib beradigan sugʻorish usuli;

Yomgʻirlatib sugʻorish — qishloq xoʻjaligi ekinlarini sugʻorishning tuproq va oʻsimliklar sathi ustiga imkon boricha tabiiy yomgʻirlatishni imitatsiya qiluvchi sepish tarzida suv yetkazib beradigan usuli, xususan:

keng qamrovli yomgʻirlatib sugʻorish tizimi — aylanma yoki frontal harakatlanuvchi agregatlar yordamida suv yetkazib beradigan yomgʻirlatib sugʻorish tizimi;

“sprinkler” tizimi — statsionar kalta purkovchi uskunalar yordamida suv yetkazib beradigan yomgʻirlatib sugʻorish tizimi;

mobil yomgʻirlatib sugʻorish tizimi — koʻchma tirkama va baraban tipidagi agregat yordamida ekinlarni yomgʻirlatib sugʻorish tizimi;

Egiluvchan quvur orqali sugʻorish — suvni ekinlarning ildizlariga toʻgʻridan-toʻgʻri egiluvchan quvurlar orqali, kichik teshiklari (kapelnitsalar yoki emitterlar) orqali berilishi.

V-BOʻLIM

Qishloq xoʻjaligi ekinlari

Savolnomaning qishloq xoʻjaligi ekinlari maydonlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarini toʻldirishda quyidagi **qoidalariga amal qilish zarur**:

- qishloq xoʻjaligi ekinlari ekin maydonlari haqidagi maʼlumotlarni toʻldirishda 2025-yil hosili uchun ekilgan asosiy (birlamchi) ekinlar hisobga olinadi;

- qishloq xoʻjaligi ekinlari maydonlari asosiy maqsadga koʻra koʻrsatilishi lozim;

- har bir ekin alohida koʻrsatiladi;

- sabzavotlar, poliz ekinlari, koʻchatlar va urugʻlar - alohida koʻrsatiladi;

- yosh mevali bogʻlar va koʻp yillik daraxtlar qator oralaridagi ekinlar (2.10-satr) alohida koʻrsatiladi;

- agar ekin faqat issiqxonada yetishtiriladigan boʻlsa, u holda "ochiq yer" boʻyicha barcha ustunlarda 0 (nol) qoʻyiladi yoki aksincha;

- bir ekinning ochiq va yopiq maydoni takrorlanmaydi - alohida hisobga olinadi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining umumiy ekin maydoniga quyidagilar qo‘shiladi:

- **kuzgi ekinlar** va ekilgan ko‘p yillik o‘tlar maydonlari;
- **kuzgi va bahorgi asosiy ekinlar**, shuningdek, ekilgan **ko‘p yillik o‘tlar maydonlari**;

- yoz mavsumida nobud bo‘lgan, lekin qayta ekilmagan kuzgi va bahorgi ekinlar;

- yosh mevali bog‘lar, shuningdek, boshqa ko‘p yillik daraxtlar qator oralariga ekilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlarida 2025-yil hosili uchun haqiqatda ekilgan asosiy ekinlar maydonlari, shuningdek, tomorqa xo‘jaligi yer uchastkasi chegarasidan tashqaridagi xo‘jalik tomonidan ekin ekish uchun foydalanilgan yer maydonlarini (boshqa yerlarni) ham qo‘shgan holda aks ettiriladi.

1 - SAVOL. 2025-yil davomida xo‘jalikda ekin ekilgan yerlar maydonini bir yillik ekin turlari bo‘yicha ko‘rsating (sotixda 0,01 aniqlikda).

Ma’lumot uchun:

Agar respondent yer maydonlarining o‘lchamini baholashda qiynalsa, intervyuyer (“mahalla yettiligi”) respondentning roziligi bilan barcha ekin maydonlari hamda ekin turlari bo‘yicha maydonlarni taxminan o‘lchab aniqlashi mumkin.

Ekinlar guruhlari bo‘yicha umumiy maydon ko‘rsatiladi, xo‘jalikda yetishtirilgan ekin turlari esa ✓ belgisi bilan belgilanadi.

Misol uchun:

1. Xo‘jalikda ekin ekilgan maydonlar mavjud. **7 sotixning barchasida** sabzavotlar yetishtirilgan, ushbu **7 sotix “Sabzavotlar, jami” guruhida** ko‘rsatiladi va ushbu mahsulotlarning turlari (*karam, pomidor, sholg‘om, turp* va h.k) **faqatgina ✓ belgisini qo‘yish orqali belgilanadi.**

2. Xo‘jalik yer maydonida 2 sotix brokkoli, 3 sotix pomidor, 1 sotix kartoshka va 2 sotix tarvuz ekilgan.

“1.2 Sabzavot ekinlari” guruhidan 1.2.3 brokkoli va 1.2.4 pomidor satrlari tanlanadi.

“Ochiq yerlar” ustunida xo‘jalikda yetishtirilgan barcha sabzavot ekinlari egallagan umumiy maydon ko‘rsatiladi, ya’ni: 5 sotix (brokkoli 2 sotix + pomidor 3 sotix).

“1.3 Kartoshka” guruhidan 3-satr - kartoshka tanlanadi va ochilgan “Ochiq yerlar” ustunida 1 sotix ko‘rsatiladi.

“1.5 Oziqbop poliz ekinlari” guruhidan 1.5.2 tarvuz satri tanlanadi va “Ochiq yerlar” ustunida 2 sotix kiritiladi.

Ushbu bo‘limda **ochiq yerlar va yopiq yerlardagi bir yillik ekinlar** ekilgan maydonlari haqida batafsil ma’lumot ko‘rsatilishi lozim. Ma’lumotlar **ochiq yerlarda** hamda **yopiq yerlarda (issiqxona) alohida hisobga olinadi**. Barcha ekin yerlarining o‘lchov birligi **“sotix”**da ko‘rsatiladi.

Asosiy ekinlar – joriy yil hosili uchun bahorgi ekinlarni ekish oxiriga mustaqil maydonlarni egallagan ekinlar. Bu toifadagi ekin yerlar o‘tgan yilning kuzida ekilgan kuzgi ekinlar, joriy yilning bahorida ekilgan barcha ekinlar hamda o‘tgan yillarda ekilgan ko‘p yillik o‘tlarning saqlanib qolgan maydonlarini o‘z ichiga oladi.

Aralash ekishlar - bir maydonda asosiy ekin bilan bir vaqtda boshqa, asosiy bo‘lmagan ekin ekiladigan holatlar. Xo‘jalikda aralash ekinlar (asosiy ekinlar bilan bir vaqtda ekilgan asosiy bo‘lmagan ekinlar – bug‘doy-beda, arpa-beda, bug‘doy-arpa, arpa-bug‘doy, sarimsoq-piyoz, pomidor-bodring va h.k.) maydonlari mavjud bo‘lgan hollarda, aralash ekinlarning eng ko‘p miqdorini tashkil etuvchi asosiy ekinlar bo‘yicha ekin maydonini hisobga olinadi.

Ekin maydoniga – bog‘lar, rezavor mevalar, yashil gazonlar, yo‘laklar va boshqa ekin ekilmagan maydonlar (misol uchun, sun‘iy hovuzlar) kiritilmaydi.

Siderat ekinlar (tuproq unumdorligini tabiiy ravishda oshirish tuproqni organik moddalar va azotli birikmalar bilan boyitish maqsadida ekiladigan o‘simliklar) hamda **tabiiy o‘tloq va yaylovlarga** ekilgan ko‘p yillik o‘tlar (ularni yaxshilash maqsadida) ekin maydoniga kiritilmaydi.

Agar o‘simliklar nobud bo‘lib, ularning o‘rniga boshqa ekin qayta ekilgan bo‘lsa, hisobga **qayta ekilgan va hosil olingan** ekin maydonlari olinadi.

Agar ayrim ekin maydonlari (nobud bo‘lganlaridan tashqari) bahorda don uchun mo‘ljallangan, lekin amalda **yem-xashak (pichan, yashil massa, silos)** uchun o‘rib olingan bo‘lsa, ular **“yem-xashak ekinlari”** guruhiga kiritiladi.

Ilgari hisobga olingan don ekinlarini **asossiz ravishda yem-xashak guruhiga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.**

Misol uchun: faqat don uchun ekiladigan **sholi** kabi ekinlarni bir yillik o‘tlar sifatida ko‘rsatish mumkin emas.

Shuningdek, yoz davrida nobud bo‘lgan yoki chorva ozuqa sifatida ishlatilgan kuzgi va bahorgi ekinlar **asli mo‘ljallangan toifasi bo‘yicha** (masalan, donli yoki texnik ekinlar sifatida) ko‘rsatiladi.

Umumiy ekin maydoniga quyidagilar qo‘shilmaydi:

- yashil ozuqa yoki silos uchun ekiladigan **oraliq ekinlar**,
- asosiy hosildan keyin ekilgan **takroriy ekinlar**,
- **siderat ekinlar** (ya’ni tuproqni oziqlantirish uchun yetishtirilib, keyin tuproqqa qo‘shiladigan o‘simliklar),
- tabiiy o‘tloq va yaylovlarni yaxshilash maqsadida ekilgan ko‘p yillik o‘tlar (ular dastlabki haydalishdan so‘ng ekilgan bo‘ladi).

1.1 Don va dukkakli don ekinlari, jami:

Bu guruh quyidagi ekinlarni o‘z ichiga oladi:

- 1.1.1 bug‘doy;
- 1.1.2 arpa;
- 1.1.3 javdar;
- 1.1.4 don uchun makkajo‘xori;
- 1.1.5 oq jo‘xori;
- 1.1.6 sholi;
- 1.1.7 no‘xat;
- 1.1.8 mosh;
- 1.1.9 loviya;
- 1.1.10 boshqalar (**suli, tariq, tritikale**, marjumat, yasmiq (**chechevitsa**), burchoq (**china**) va boshqalar).

Don va dukkakli don ekinlar guruhiga faqat don yetishtirish uchun ekilgan maydonlar kiradi.

Agar makkajo‘xori yashil massa uchun ekilgan bo‘lsa, lekin don to‘liq pishgan holda yig‘ilgan bo‘lsa, u holda uning maydoni don ekinlari guruhiga kiritiladi va 1.1.4-satrdan “*don uchun makkajo‘xori*” belgilanadi.

Agar oq jo‘xori ekinining somoni supurgi tayyorlashda ishlatilsa, uning maydoni ham don va dukkakli don ekinlar guruhiga kiritiladi va 1.1.5-satrdan “*oq jo‘xori*” belgilanadi.

Silos, ko‘k ozuqa, senaj uchun ekilgan don va dukkakli don ekinlari “**Yem-xashak ekinlari**” guruhiga kiritiladi.

Shuningdek, makkajo‘xorining so‘nggi pishish bosqichidagi (sut-mum pishiqlik davri) holida silos yoki yashil ozuqa uchun o‘rib olingan maydonlari ham Yem-xashak ekinlari guruhiga kiritiladi va 1.6.2-satrdan “**Bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar**” belgilanadi.

1.2 Sabzavot ekinlari, jami:

Bu guruh quyidagi ekinlarni o‘z ichiga oladi:

- 1.2.1 karam;
- 1.2.2 gulkaram;
- 1.2.3 brokkoli;
- 1.2.4 pomidor;
- 1.2.5 bodring;
- 1.2.6 baqlajon;
- 1.2.7 qalampir (bulg‘or, achchiq va boshqalar);
- 1.2.8 qovoq;
- 1.2.9 sabzi;
- 1.2.10 sholg‘om;
- 1.2.11 turp;
- 1.2.12 rediska;
- 1.2.13 oziqbob lavlagi;
- 1.2.14 boshpiyoz va shalot piyoz;
- 1.2.15 sarimsoq piyoz;
- 1.2.16 sabzavot urug‘lari;
- 1.2.17 sabzavot ko‘chatlari;
- 1.2.18 boshqalar (salat latuk, sachratqi, ismaloq, rukkola, kornishonlar, artishoklar, qovoqchalar, sarsabil, ko‘k piyoz, rayhon va boshqalar). Shuningdek,

to'liq yetilishidan oldin yig'ib olinadigan dukkakililar (masalan, yashil no'xat, loviya, pishmagan dukkakililar va boshqalar).

Eslatma:

Urug'lik uchun ekilgan sabzavotlar (hosili to'liq urug' olish maqsadida ekilgan sabzavotlar) maydonlari to'liq holda **“Sabzavot ekinlari”** guruhida ko'rsatiladi va **“sabzavot urug'lari”** 1.2.16-satrdan belgilanadi.

Urug'lik oziqbop poliz ekinlari (urug' olish uchun yetishtiriladigan bir yillik oziqbop poliz mahsulotlari) esa **“Oziqbop poliz ekinlari”** guruhida ko'rsatiladi va **“poliz urug'lari”** 1.5.3-satrdan belgilanadi.

1.3 Kartoshka:

Xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha turdagi **kartoshka ekinlari maydoni** haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Misol uchun:

Xo'jalik tomonidan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan 12 sotix yer maydoni mavjud, shundan 1 sotixga kartoshka ekilgan. Ushbu satr quyidagicha to'ldiriladi:

1.4 Texnik ekinlar, jami:

Bu guruh quyidagi ekinlarni o'z ichiga oladi:

- 1.4.1 qand lavlagi;
- 1.4.2 tamaki;
- 1.4.3 kungaboqar;
- 1.4.4 zig'ir;
- 1.4.5 soya;
- 1.4.6 kunjut;
- 1.4.7 yeryong'oq;
- 1.4.8 maxsar;
- 1.4.9 dorivor o'simliklar;
- 1.4.10 boshqalar (raps, kanop va boshqalar).

Izoh:

Agar xo'jalikda texnik ekinlar mavjud bo'lmasa, **“mavjud emas”** tugmachasini tanlang.

Qo'shimcha izohlar:

Supurgi navli jo'xori poyasi supurgi uchun foydalanilgan bo'lsa, ularning maydoni don va dukkakli don ekinlari guruhida hisobga olinadi.

Qand lavlagi bo'yicha, ozuqabop lavlagidan tashqari faqat mahsuloti qand va boshqa qayta ishlanishi mo'ljallangan ekinlar hisobga olinadi, ular **texnik ekinlar guruhining 1.4.1-satri** — “qand lavlagi” bo'yicha ko'rsatiladi.

Zig'irdan olingan mahsulotning kelgusida foydalanilishidan (urug'lik, tola) qat'iy nazar barcha maydonlari **texnik ekinlar guruhida** hisobga olinadi va **zig'ir (1.4.4-satr)** satrida belgilanadi.

Dorivor o'simliklar bo'yicha, joriy yil ekinlari o'tgan yillar ekinlari bilan birga ko'rsatilishi zarur, ularning maydoni **texnik ekinlar guruhida** ko'rsatiladi va 1.4.9-satrda “dorivor o'simliklari” belgilanadi.

Ma'lumot uchun:

Dorivor o'simliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi: qizilmiya, zanjabil (imbir), qalampirmunchoq, steviya, **kavrak, dalachoy, ermon, kiyik o'ti, bo'ymodaron, chayono't (krapiva), mavrak (shalfey), tikanak, moychechak** va boshqa turdagi shifobaxsh o'simliklar.

1.5 Oziqbop poliz ekinlari, jami:

Bu guruh quyidagi ekinlarni o'z ichiga oladi:

1.5.1 qovun;

1.5.2 tarvuz;

1.5.3 poliz urug'lari;

1.5.4 poliz ko'chatlari.

Izoh:

Agar xo'jalikda oziqbop poliz ekinlar mavjud bo'lmasa, “mavjud emas” tugmachasini tanlang.



1.6 Yem-hashak (ozuqa) ekinlari, jami:

Bu guruh quyidagi ekinlarni o'z ichiga oladi:

- ildizmevalar va poliz;

- bir yillik va ko'p yillik o'tlar.

Eslatma:

Chorva mollarini boqish maqsadida bir yillik va ko'p yillik o'tlar ekini faqat **ekilgan yer maydoni sifatida hisobga olinadi** va «Yem-hashak ekinlari» **guruhida** ko'rsatiladi va 2.6.2-satrda “Bir yillik va ko'p yillik o'tlar” belgilanadi, shuningdek, pichan uchun ekilgan beda ham ushbu satrda hisobga olinadi.

Ozuqa ekinlari guruhidagi bir yillik o'tlar quyidagilar bo'yicha ko'rsatiladi:

chorva mollariga yem sifatida yetishtiriladigan pichan, urug', yashil ozuqa va boshqa barcha bir yillik o'tlar;

yashil ozuqa uchun foydalanilgan, uni yig'ib olinganidan keyin bahorgi ekinlar ekish amalga oshirilmagan kuzgi ekinlar;

pichan, yashil ozuqa uchun ekilgan bahorgi don va dukkakli don (makkajo'xoridan tashqari) ekinlari;

yashil ozuqa uchun ekilgan oзуqabop karam ekinlari.

silos olish uchun mo'ljallangan kungaboqar, oq jo'xori, lyupin, no'xat, oзуqabop dukkaklilar va boshqalar.

1.7 Gullar, jami

Bu guruh quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.7.1 atirgul;

1.7.2 xrizantema;

1.7.3 romashka (tibbiyot maqsadlarida bo'lmagani);

1.7.4 astra;

1.7.5 petuniya;

1.7.6 lola;

1.7.7 chinnigul (gvozdika);

1.7.8 boshqalar (nilufar, liliya, floksa va boshqalar).

Eslatma:

Gullarning umumiy ekilgan maydoni ko'rsatiladi va ularning turlari belgilanadi.

Misol uchun:

Xo'jalik tomonidan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan 12 sotix yer maydoni mavjud, shundan 0,5 sotixga atirgul va astra gullar ekilgan. Ushbu satr quyidagicha to'ldiriladi va gul turlari belgilanadi:

Гуллар

Гуллар ⓘ

1. Атиргул, 4. Астра × ▾

Очиқ ер сотих, 0.01 аниқликгача

Жами гуллар * ⓘ

0.5

3/6

Ёпиқ ер сотих, 0.01 аниқликгача

Жами гуллар * ⓘ

0

1/6

1.8 Gul ko'chatlari.

Xo'jalikda yetishtirilayotgan barcha turdagi gul ko'chatlari maydoni ko'rsatiladi.

Izoh:

Agar xo'jalikda gul ko'chatlari mavjud bo'lmasa, ushbu satr to'ldirilmasdan keyingi satrga o'tiladi.

Гул кўчатлари

Гул кўчатлари (Очиқ ер сотих, 0.01 аниқликгача) 

0/6

Гул кўчатлари (Ёпиқ ер сотих, 0.01 аниқликгача) 

0/6

1.9 Yuqorida ko‘rsatilmagan boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari.

Agar xo‘jalikda savolnomada yuqorida ko‘rsatilmagan qishloq xo‘jaligi ekin turlari mavjud bo‘lsa, ularning ekilgan maydoni mos ravishda “Yuqorida ko‘rsatilmagan boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari” 1.9-satrdan ko‘rsatilishi lozim.

Izoh:

Agar xo‘jalikda yuqorida ko‘rsatilmagan boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari mavjud bo‘lmasa, keyingi satrga o‘tiladi.

Юқорида кўрсатилмаган бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари

Юқорида кўрсатилмаган бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари (Очиқ ер сотих, 0.01 аниқликгача) 

0/6

1.10 Yosh mevali bog‘lar va ko‘p yillik daraxt qatorlari oralariga ekilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari.

Xo‘jalikda yosh mevali bog‘lar, ko‘p yillik daraxtlarning qator oralariga ekilgan ekinlar mavjud bo‘lsa, ularning maydoni “Yosh mevali bog‘lar va ko‘p yillik daraxt qatorlari oralariga ekilgan qishloq xo‘jaligi ekinlari” 1.10-satrdan hisobga olinadi.

Misol uchun:

Xo‘jalik tomonidan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalaniladigan 12 sotix yer maydoni mavjud, shundan 3 sotixga - ko‘p yillik mevali daraxt va ularning orasidagi 2 sotix yerga turli xil sabzavotlar ekilgan. Ushbu satr quyidagicha to‘ldiriladi:

Ёш мевали боғлар ва кўп йиллик дарахт қаторлари ораларига
экилган қишлоқ хўжалиги экинлариЁш мевали боғлар ва кўп йиллик дарахт қаторлари ораларига экилган қишлоқ
хўжалиги экинлари (Очиқ ер сотих, 0.01 аниқликгача) 

1/6

1.11 Qo‘ziqorin (kv.m)

Qo‘ziqorinlar qaysi usulda va qaysi joyda — ochiq yerda, stelajda, yopiq binoda, yerto‘lada yoki boshqa sharoitda yetishtirilganidan qat’iy nazar, ular yetishtirilgan barcha maydonlari hisobga olinishi va o‘lchov birligi “kv.m – m²” ko‘rsatilishi lozim.

Izoh:

Agar xo‘jalik qo‘ziqorin yetishtirmasa, ushbu satr to‘ldirilmaydi.

Қўзиқорин (кв. метр)

Қўзиқорин (кв. метр) ⓘ

0/5

Ma'lumot uchun:

Yopiq yerdagi ekinlar uchun mo'ljallangan yerlar - bu shisha, plastik yoki boshqa turdagi materialdan tayyorlangan tom yopmali doimiy inshootlar ostida joylashgan yerlar bo'lib, bir yillik hamda ko'p yillik ekinlarni yetishtirish uchun mo'ljallangan.

Yopiq yerlarga odatda sabzavotlar, ko'katlar va gullar yetishtiriladigan inshootlar – issiqxonalar, parniklar kiradi.

Vaqtinchalik himoya vositalari (masalan, sovuqdan himoya uchun plastik qoplamalar, plyonka bilan yopilgan yerlar) yopiq yerlar toifasiga kiritilmaydi.

Shuningdek, **hasharotlar yoki boshqa hayvonlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan to'r konstruksiyalari** ham bu toifaga kirmaydi. **Ko'chatxonalar (pitomniklar)** ham mazkur toifadan chiqarilishi lozim.

Agar xo'jalikda yopiq yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun yer maydoni mavjud bo'lsa, u holda ushbu bo'limning tegishli satrlari bo'yicha xo'jalikda oxirgi 12 oy davomida mavjud bo'lgan sabzavot ekinlari, oziqbop poliz ekinlari, gullar, gul ko'chatlari va boshqa ekin turlari bo'yicha hisobga olinishi kerak. Agar yopiq yer uchastkasidan oxirgi 12 oy davomida turli ekinlarni yetishtirish uchun foydalanilsa, u faqat bir marta hisobga olinadi.

Yopiq yerdagi (issiqxona va parniklardagi) qishloq xo'jaligi ekinlari bo'yicha ma'lumot kiritilayotganda, har bir ekin turi alohida hisobga olinishi lozim.

2-SAVOL. 2026-yilning 15-yanvar holatiga xo'jalikda ekilgan ko'p yillik mevali, manzarali va boshqa turdagi daraxtlar, rezavorlar, toklar maydoni va tuplari soni:

Ko'p yillik mevali, manzarali va boshqa turdagi daraxtlar, rezavor mevalar, toklar maydoni va tuplari soni 2026-yil 15-yanvar holatiga hisobga olinadi.

Agar ko'p yillik ekinlar alohida (butun) maydonlarga ekilgan bo'lsa, faqat ularning maydon o'lchami ko'rsatilishi mumkin.

Ko'p yillik ekinlar yer maydoni - ma'lum bir vaqt davomida ko'p yillik ekinlar egallagan yer maydonini anglatadi. Ko'p yillik ekinlar faqat mahsulot yetishtirish maqsadida, parvarish qilinayotgan hollardagina, ushbu toifaga kiritilishi lozim. Bu toifaga sotish yoki xo'jalikda foydalanish uchun yetishtirilayotgan ko'chatlar mavjud ko'chatxonalar, ko'chatzorlar (pitomniklar) kiritilmaydi.

Hosil berayotgan ko'p yillik ekinlar - hosilga kirgan ko'p yillik ekinlardir. Mevali daraxtlar va ayrim boshqa ko'p yillik ekinlar muayyan yoshga yetgandan so'ng hosil beradigan bo'ladi.

Hosil beradigan yoshdagi ekinlar meteorologik sharoit yoki boshqa sabablarga ko'ra oxirgi 12 oy davomida hosil bermagan bo'lsa ham, "hosil berayotgan yoshdagi ko'p yillik ekinlar" sifatida hisobga olinishi lozim.

Bir necha yil davomida hosil bergan, ammo endilikda qarib, hosil bermay qo'ygan daraxtlar hosildor hisoblanmaydi va ushbu toifaga kiritilmasligi lozim.

Ko'p yillik ekinlar shakllari: Ko'p yillik ekinlar zich ekilgan bog' ko'rinishida ham, alohida o'simlik yoki daraxtlar tarzida ham parvarish qilinishi mumkin. Har ikki holat ham ro'yxatga olinishi kerak.

Zich ekilgan ekinlar - bu o'simliklar, daraxtlar yoki butalar belgilangan tartibda va tizimli ravishda ekiladigan maydonlar bo'lib, misol uchun bog'lar shunday tuzilgan bo'ladi. Agar o'simliklar, daraxtlar yoki butalar muayyan tartibda emas, ammo yetarlicha zich holda ekilgan bo'lib, bog' sifatida qaralishi mumkin bo'lsa, ular ham zich ekinlar deb hisoblanadi.

Alohida turgan (ekilgan) butalar, daraxtlar soni - bu ko'p yillik ekinlarning daraxtlari bo'lib, ko'pincha butun xo'jalik maydoni bo'ylab tarqalgan (ularga danakli, urug'li, tropik, subtropik, sitrus, yong'oq mevalilar, rezavor mevalar, uzum va boshqalar kiradi).

Tokzorlar - uzumning barcha turlarini yetishtirish uchun mo'ljallangan tok tuplaridan iborat ko'p yillik daraxtzorlardir.

Ko'p yillik daraxtlar, rezavor meva ekinlari, uzumzorlar maydonlari va ulardagi butalar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldirishda quyidagi **qoidalarga rioya qilish zarur:**

Hosilga kirgan yoshdagi ko'p yillik daraxtlar alohida hisobga olinadi. Bunda daraxtzorlardan joriy yilda hosil olingan yoki olinmaganligidan qat'iy nazar, ular hosil berish yoshiga kirgan hisoblanadi.

Urug'li, danakli, yong'oq mevali daraxtlar birinchi mevalari paydo bo'lgandan keyin uchinchi-to'rtinchi yili hosilga kirgan hisoblanadi.

Rezavor mevalar (qarag'at, malina, krijovnik) ko'chatlari ekilganidan keyin uchinchi yili, qulupnaylar - ikkinchi yili, uzum - beshinchi yili hosilga kirgan hisoblanadi.

Qulupnay, maymunjon va shu kabilar maydoni amalda egallagan maydon bo'yicha aniqlanadi.

Eslatma:

Bog'lar, rezavor ekinlar va tokzorlar bo'yicha maydonlar ekilgan yilidan qat'i nazar hisobga olinadi. Jumladan, joriy yilda ekilgan, ilgari ekilgan, ammo hali hosil berish yoshiga yetmagan, shuningdek hosil berish yoshiga yetgan, lekin joriy yilda hosil olinmagan bog'lar, rezavor ekinlar va tokzorlar maydoni to'liq hisobga olinadi.

Shu bilan birga, joriy yilda ushbu daraxtlardan haqiqatda hosil olinganligi yoki olinmaganligidan qat'iy nazar, hosil berish yoshidagi maydon hamda daraxtlarni sug'urib tashlash rejalashtirilgan, lekin hali sug'urib tashlanmagan, shuningdek siyraklashgan (siyraklashish darajasidan qat'i nazar) mevali, yong'oqli va uzumzor maydonlar ham hisobga olinadi.

Daraxtlarni sug'urib tashlash - eski, kasal yoki keraksiz daraxtlarni (odatda ko'p yillik daraxtlarni) ildizi bilan birga yerdan olib tashlash jarayoni

bo'lib, yer maydonini yangi ekish ishlari yoki boshqa ehtiyojlar (masalan, haydash uchun) uchun tayyorlash maqsadida amalga oshiriladi.

Savolnoma to'ldirilayotganda ekin turlari mos keladigan ekin guruhlariga kiritilishi lozim. **Ochiq** yerlar va **yopiq** yerlar maydoni alohida hisobga olinadi.

2.2.1–2.2.12-satrlarda ochiq yerda yetishtirilgan ekinlar hisobga olinadi. 2.2.13-savolda esa yopiq yerda (issiqxonada) yetishtirilgan ekinlar alohida hisobga olinadi.

Yakka holda ekilgan jami daraxtlar tup sonlari tegishliligi bo'yicha ko'rsatilib, agarda xo'jalikda **hosil beradiganlari ham mavjud bo'lsa alohida ko'rsatiladi**.

Bog'lar va rezavor ekinlar guruhlarini bo'yicha maydon ko'rsatiladi, shundan alohida ravishda hosil berayotgan maydon ajratib ko'rsatiladi.

Alohida ekilgan daraxtlar bo'yicha ularning soni ko'rsatiladi, shundan hosil berayotgan daraxtlar soni alohida ajratib ko'rsatiladi.

DIQQAT!

Agar xo'jalikda ko'p yillik ekinlar maydoni (3-bo'lim, 3-savol, 3.1.2-satr) **20 sotix va undan ko'p bo'lsa**, 5-bo'lim, 2-savolda ko'p yillik daraxtlar va butalarning har bir turi bo'yicha maydon ochiladi. Agar daraxtlar yoki butalar soni ma'lum bo'lsa, ularning soni ham ko'rsatiladi, rezavor ekinlar bundan mustasno - ular bo'yicha maydon yer maydoni hajmidan qat'i nazar ochiladi.

Agar xo'jalikda ko'p yillik ekinlar maydoni (3-bo'lim, 3-savol, 3.1.2-satr) **20 sotixdan kam bo'lsa**, rezavor ekinlardan tashqari, daraxtlar va butalar faqat soni bo'yicha ko'rsatiladi. Rezavor ekinlar bo'yicha esa faqat maydon ko'rsatiladi.

Dastlab respondentga quyidagi savol beriladi: ushbu yer maydonida quyida keltirilgan ko'p yillik ekin turlaridan qaysilari mavjud? Mavjud bo'lgan turlar ✓ belgisi bilan belgilanadi.

Ko'p yillik daraxt va butalar satrlari to'ldirish misoli.

Misol uchun:

1. *Xo'jalikda jami “olma daraxtlar” soni 5 tani tashkil qiladi, shundan hosil beradigan 3 ta.*

Natijada, xo'jalikdagi jami hosil beradigan olma daraxtini soni 3 tani tashkil qiladi.

2. *Yer maydonida alohida o'sib turgan mevali daraxtlar mavjud bo'lib, ularning umumiy soni 10 tani tashkil etadi. Ushbu daraxtlar (olma, gilos, shaftoli, o'rik) turlari bo'yicha faqat ✓ belgisi qo'yish orqali tanlanadi, bunda har bir tur bo'yicha daraxtlar soni ko'rsatiladi:*

- olma — 2 tup (2.1.1 satr);
- gilos — 3 tup (2.2.3 satr);
- shaftoli — 4 tup (2.2.5 satr);
- o'rik — 1 tup (2.2.4 satr).

3. *Xo'jalikning ko'p yillik ekinlar yer maydonlari 30 sotixni tashkil etadi, shundan:*

- olma 10 sotixda (2.1.1 satr);
- o'rik 5 sotixda (2.2.4 satr);
- gilos 5 sotixda (2.2.3 satr);

- shaftoli 3 sotixda (2.2.5 satr);
- olcha 2 sotixda (2.2.2 satr);
- malina 2 sotixda (2.5.2 satr) va tok (uzum) (2.6 satr) 3 sotixda ekilgan.

Ushbu daraxtlar va butalar (olma, o'rik, gilos, shaftoli, olcha, malina, tok) har bir turi bo'yicha maydonlari ko'rsatiladi.

2.1 Mevali daraxtlar, jami:

- 2.1.1 olma;
- 2.1.2 nok;
- 2.1.3 behi;
- 2.1.4 boshqa urug'li mevalar
- 2.2.1 olxo'ri;
- 2.2.2 olcha;
- 2.2.3 gilos;
- 2.2.4 o'rik;
- 2.2.5 shaftoli;
- 2.2.6 boshqa danakli mevalar (nektarin, jiydalar, unabi va boshqalar)
- 2.3.1 yong'oq;
- 2.3.2 bodom;
- 2.3.3 pista;
- 2.3.4 boshqa yong'oq mevalilar
- 2.4.1 anjir;
- 2.4.2 xurmo;
- 2.4.3 anor;
- 2.4.4 boshqa subtropik mevalar (banan, kivi va boshqalar)

2.5 Rezavor mevalar, jami:

- 2.5.1 qulupnay;
- 2.5.2 malina;
- 2.5.3 golubika;
- 2.5.4 boshqa rezavor mevalar (maymunjon, qarag'at (smorodina) va boshqalar)

Misol uchun:

Майдони (сотих, 0.01 аниқликгача)

Жами (Малина) * 

1

1/6

Шундан ҳосил берадигани (Малина) * 

1

1/6

Майдони (сотих, 0.01 аниқликгача)

Жами (Бошқа резавор мевалилар) * 

0

1/6

Шундан ҳосил берадигани (Бошқа резавор мевалилар) * 

0

1/6

2.6 Toklar, jami:

- 2.6.1 xo'raki navi (husayni, charos, rizamat, toyifi va boshqalar);
- 2.6.2-mayizbop navi (oq kishmish, qora kishmish, bedona va boshqalar);

2.6.3 texnik navi (kavsak, armanyak, shardone va boshqalar);

2.6.4 boshqa navlari.

Misol uchun:

Barcha uzumzorlar ularning yoshi va yetishtirish usulidan (an'anaviy, shpalerli, intensiv va boshqalar) qat'iy nazar hisobga olinadi. Jumladan, ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan uzumzorlar, uy xo'jaligi hovlisidagi va tomorqa xo'jaligiga tegishli uzumzorlar, yosh (hali meva bermagan) uzumzorlar, hamda yo'llar, kanallar yoqasida, binolar va boshqa inshootlar yonida ekilib, uy xo'jaligi tomonidan foydalanilayotgan uzum butalari ham hisobga kiritiladi.

Uzumzor maydoni sotixda ko'rsatiladi - jami maydon va shundan hosil berayotgan qismi alohida belgilanadi. Hosil berish davriga hali kirmagan yosh ekinlar (butalar) uzumzorlarning umumiy maydoniga kiritiladi, ammo hosil berayotgan qismiga kiritilmaydi.

2.7 Tutlar

Xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha tutzorlarning maydonlari (soni) hisobga olinadi.

2.8 Teraklar, jami

Xo'jalikda mavjud teraklar maydoni va soni quyidagi o'lchamlarda alohida ko'rsatiladi: 5 metrgacha bo'lgani; 6 - 9 metrgacha; 10 metr va yuqori.

2.9 Tollar, jami

Xo'jalikda mavjud tollar maydoni va soni quyidagi o'lchamlarda alohida ko'rsatiladi: 3 metrgacha bo'lgani; 4 - 8 metrgacha; 9 metr va yuqori.

2.10 Pavlovniya, jami

Xo'jalikda mavjud pavlovniya maydoni va soni quyidagi o'lchamlarda alohida ko'rsatiladi: 6 metrgacha bo'lgani; 7 - 11 metrgacha; 12 metr va yuqori.

2.11 Manzarali daraxtlar va butalar, jami

2.11.1 chinor;

2.11.2 archa;

2.11.3 nastarin (siren);

2.11.4 boshqa manzarali daraxtlar

2.12 Yuqorida ko'rsatilmagan ko'p yillik daraxtlar

Agar xo'jalikda yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari ko'p yillik daraxtlar va rezavor mevalarning boshqa turlari ham mavjud bo'lsa, ular **“Yuqorida**

ko'rsatilmagan ko'p yillik daraxtlar"ning boshqa turlari qatorida hisobga olinadi.

Izoh:

Agar xo'jalikda yuqorida ko'rsatilmagan boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari mavjud bo'lmasa, keyingi satrga o'tiladi.

Юқорида кўрсатилмаган кўп йиллик дарахтлар

Жами (Юқорида кўрсатилмаган кўп йиллик дарахтлар)

2.13 Yopiq yerlardagi (issiqxonalardagi) ko'p yillik ekinlar, jami

2.13.1 sitrus mevalar, jami

2.13.1.1 shundan: limon

2.13.1.2 boshqa sitrus mevalar (laym, apelsin, mandarin va boshqalar)

2.13.2 boshqalar (sitrus mevalardan tashqari)

Ёпиқ ерлар (иссиқхона ва парник) даги кўп йиллик экинлар

Ёпиқ ерлар (иссиқхона ва парник) даги кўп йиллик экинлар

Agar xo'jalik tomonidan oxirgi 12 oy davomida yopiq yer uchastkasidan turli ekinlarni yetishtirish uchun foydalanilgan bo'lsa, ro'yxatga olishda 2026-yilning 15-yanvar holatiga yopiq yerdagi mavjud ko'p yillik ekinlar hisobga olinadi.

Xo'jalikda yetishtirilayotgan limon (2.13.1.1-satr) va boshqa turdagi sitrus daraxtlarning (2.13.1.2-satr) yig'indisi yopiq yerlarda (issiqxona va parniklarda) yetishtirilayotgan jami sitrus mevalar (2.13.1) yig'indisiga teng bo'lishi lozim.

Vaqtinchalik himoya vositalari (masalan, sovuqdan himoya uchun plastik qoplamalar, plyonka bilan yopilgan yerlar) yopiq yerlar toifasiga kiritilmaydi.

Shuningdek, **hasharotlar yoki boshqa hayvonlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan to'r konstruksiyalari** ham bu toifaga kirmaydi. **Ko'chatxonalar (pitomniklar)** ham mazkur toifadan chiqarilishi lozim.

3- SAVOL. 2025-yil davomida xo'jalikda yetishtirilgan ko'chatlar.

Savolnomani to'ldirishda xo'jalikda ildizi bilan yetishtiriladigan, lekin doimiy joyga hali ekilmagan (hosil beradigan yoshga yetmagan yoki sanoatda ishlatishga yaroqli holatga kelmagan) ko'p yillik ekinlar ko'chatlarining turlari bo'yicha tegishli satr ko'rsatilishi kerak.

Taqdim etilgan **7 ta** javob variantlaridan bir nechtasini xam tanlash mumkin:

3.1 mevali daraxt ko'chatlari (*keyinchalik ekish yoki sotish uchun yetishtiriladigan mevali daraxtlar - olma, nok, o'rik, shaftoli, anor va shu kabilarning ko'chatlari aks ettiriladi*);

3.2 tok ko'chatlari (*ko'chatzor bosqichida bo'lgan barcha navli tok tuplari aks ettiriladi*);

3.3 terak ko'chatlari (*daraxtzor barpo etish yoki sotish uchun yetishtiriladigan terakning yosh novdalari aks ettiriladi*);

3.4 tut ko'chatlari (*doimiy plantatsiyalarga ekilgunga qadar tut ko'chatlari - tut o'simliklari aks ettiriladi*);

3.5 pavlovniya ko'chatlari (*tez o'suvchi daraxt o'simligi - pavlovniya ko'chatlari ko'chatlik davrida aks ettirilgan*);

3.6 manzarali daraxt ko'chatlari (*manzarali daraxtlar - zarang, archa, tuya, chinor va ko'kalamzorlashtirish va sotish uchun yetishtiriladigan boshqa daraxtlar ko'chatlari aks ettiriladi*);

3.7 boshqalar (*boshqa ko'chat turlari - yong'oq, bodom, pista, subtropiklar, butalar va h.k.*).

☐ 1. Мевали дарахт кўчатлари

☐ 2. Ток кўчатлари

☐ 3. Терак кўчатлари

☐ 4. Тут кўчатлари

☐ 5. Павлония кўчатлари

☐ 6. Манзарали дарахт кўчатлари

☐ 7. Бошқалар

Тасдиқлаш

4 – SAVOL. 2025-yil davomida xo'jalikda ishlatilgan o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari:

Agar xo'jalikda 2025-yil davomida mineral yoki organik o'g'itlar ishlatilgan yoki o'simliklarni himoya qilish vositalari qo'llanilgan bo'lsa, u holda tegishli o'g'it yoki o'simliklarni himoya qilish vositalar turlari belgilanadi.

Organik o'g'itlar bu - qayta ishlangan o'simlik yoki hayvonlar materiallaridan tayyorlanadigan, tuproqning unumdorligini oshirish va o'simliklarni oziqlantirish uchun qo'llaniladigan tabiiy o'g'itlardir.

Go'ng - organik moddalardan tayyorlanadigan o'g'itdir. Go'ng tarkibidagi organik moddalar va turli oziq elementlari, jumladan tuproqdagi bakteriyalar ishtirokida o'simliklar o'zlashtira oladigan shaklga keltiriladigan azot hisobiga tuproqning fizik-kimyoviy xossalari yaxshilanadi va uning unumdorligi oshadi.

Bioo'g'it – biogumus va tabiiy organik moddalardan olingan ekologik toza o'g'itlar. Bular odatda, tirik mikroorganizmlarni o'z ichiga olgan moddalar bo'lib, ular urug'larga, tuproqqa, o'simlik yuzalariga nisbatan qo'llanilganda ularning o'sishiga, oziqlanishining yaxshilanishiga yoki o'simliklar tomonidan birlamchi oziq moddalarning o'zlashtirilishiga yo'l ochilishiga yordam beruvchi moddalardir. Ular azotni biriktirish, fosforni eritishning tabiiy jarayonlariga, o'simliklarning o'sishiga yordam beruvchi moddalarni sintez qilish orqali ularning o'sishini ta'minlaydi.

Mineral o'g'itlar - tuproqning hosildorligini oshirish va o'simliklarning ozuqa moddalari bilan ta'minlash uchun ishlatiladigan, noorganik moddalardan olingan o'g'itlardir. Ular tabiiy mineral resurslarni mexanik yoki kimyoviy qayta ishlash yo'li bilan ishlab chiqariladi.

Taqdim etilgan 7 ta javob variantlaridan bir nechtasini ham tanlash mumkin:

4.1 Organik o'g'itlar:

4.1.1 go'ng;

4.1.2 bioo'g'it.

4.2 Miniral o'g'itlar:

4.2.1 azot (ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy);

4.2.2 fosforli (ammofos, Qo'qon superfosfati, superfos);

4.2.3 kaliyli (kaliy xlorid).

4.3 O'simliklarni himoya qilish vositalari:

4.3.1 biologik (zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashish uchun qo'llaniladigan preparatlar va usullar bo'lib, ular tirik organizmlar (bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar, foydali hasharotlar), ularning hayot faoliyati mahsulotlari (antibiotiklar, feramonlar) yoki tabiiy moddalardan foydalanadi.

Ular kimyoviy pestitsidlarga ekologik jihatdan xavfsiz muqobil bo'lib, tanlab ta'sir qiladi va qishloq xo'jaligida barqaror ekotizimlar shakllanishiga yordam beradi);

4.3.2 kimyoviy (pestitsidlar) (o'simliklarga zarar keltiruvchi organizmlar, kasalliklar va zararli o'tlarga qarshi kurashishda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar hosil yig'ishdan oldin barglarni olib tashlash uchun (defoliantlar) va hosil yig'ishdan oldin o'simliklarni quritish uchun (desikantlar) qo'llaniladi.

Ular qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish va o'simliklarni himoya qilish maqsadida ishlatiladi, **ammo atrof-muhitga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.**

Pestitsidlar - oʻsimliklarga zarar keltiruvchi organizmlar, kasalliklar va zararli oʻtlarga qarshi kurashishda qoʻllaniladigan kimyoviy vositalar, shuningdek qishloq xoʻjaligi oʻsimliklari oʻsishini tartibga soluvchi moddalar, hosil yigʻishdan oldin barglarni olib tashlash uchun (defoliantlar) va hosil yigʻishdan oldin oʻsimliklarni quritish uchun (desikantlar) qoʻllaniladi. Ular qishloq xoʻjaligida hosildorlikni oshirish va oʻsimliklarni himoya qilish maqsadida ishlatiladi, **ammo atrof-muhitga va inson salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.**

Pestitsidlar bir necha turga boʻlinadi:

Insektitsidlar - hasharotlarga qarshi kurashish uchun.

Gerbitsidlar - zararli oʻtlarni yoʻq qilish uchun.

Fungitsidlar - kasalliklaridan himoyalash uchun.

Zootsidlar - zararli hayvonlarga (sichqonlar, qushlar) qarshi kurashish uchun.

Desikantlar - hosil yigʻishdan oldin oʻsimliklarni quritish uchun.

Xoʻjalikda qoʻllanilgan oʻgʻit turlari boʻyicha bir necha variantlarni koʻrsatish mumkin.

VI. BOʻLIM

Qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalari

1 – SAVOL. 2026-yilning 15-yanvar holatiga xoʻjalikdagi qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalarini saqlash usullari:

Taqdim etilgan **4 ta** javob variantlaridan bir nechtasini xam tanlash mumkin:

1.1 turgʻun (molxona) (jumladan bogʻlangan va bogʻlanmagan turlari) — hayvonlar yil davomida molxonada (molxona, choʻchqaxona, tovuqxona va boshqalar) saqlanadi va ochiq havoda boqilmaydi. Turgʻunda hayvonlarga ovqat berish, suv berish va parvarish qilish taʼminlanadi;

1.2 yaylov (hayvonlar (asosan yirik shoxli qoramollar, qoʻylar, echkilar) ochiq yaylovlarda boqiladi va doimiy ravishda turgʻunda boʻlmaydi.) shundan:

1.2.1 haydab boqish (*hayvonlarni yil davomida (yoki yilning katta qismida) xo'jalik markazidan uzoqdagi mavsumlik yaylovlarga olib chiqib boqish usuli*);

1.3 katak (tovuq va quyonlar kataklari) (*parrandalar (tovuqlar, bedanalar), shuningdek, quyonlar va kichik hayvonlar uchun qo'llaniladi. Hayvonlar odatda xona ichidagi kataklarda saqlanadi*);

1.4 xo'jalikda qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari mavjud emas.

Agar xo'jalikda hayvonlari va parrandalari mavjud bo'lmasa savolnomani VII bo'limi (Akvakultura) 1 savolga o'tiladi.

2 – SAVOL 2026-yilning 15-yanvar holatiga xo'jalikdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarining bosh soni, bosh

Eslatma:

Qishloq xo'jaligi chorva mollari va parrandalari bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni savolnomaga kiritishda **quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:**

Qishloq xo'jaligi chorva mollari va parrandalari bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar **2026-yil 15-yanvar soat 00:00 holatiga ko'ra boshda, asalari oilalari esa donalarda hisobga olinishi kerak.**

Ushbu vaqtdan so'ng sotilgan, so'yilgan yoki nobud bo'lgan (o'lgan) hayvonlar va parrandalar mavjud bosh soni bilan birga hisobga olinishi kerak; soat 00:00 dan keyin tug'ilganlari, shuningdek, ko'rsatilgan davrdan keyin xo'jalikka kelib tushgan bosh soni hisobga olinmaydi.

Hisobga **qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalar ularni amalda boqayotgan xo'jalik tomonidan** olinadi. Bunga xo'jalikka tegishli bo'lgan barcha hayvonlar va parrandalar (yirik shoxli qoramol, qo'y va echkilar, cho'chqalar, otlar, tuyalar, eshaklar, mo'ynali hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari) kiradi. Ular **qayerda bo'lishidan qat'iy nazar** (chorvachilik binolarida, otarda, ish joylarida yoki xo'jalikdan tashqari joylarda).

DIQQAT!!!

Chorva mollari va parrandalar ularni amalda boqayotgan xo'jalik tomonidan hisobga olinadi.

Boshqa xo'jalikka tegishli bo'lgan, sanitar yoki boshqa sabablarga ko'ra (sanitar tozalash va h.k.) mazkur ro'yxatdan o'tkazilayotgan xo'jalikka vaqtincha olib kelingan chorva mollari va parrandalar **hisobga olinmaydi.**

O'g'irlangan yoki nobud bo'lgan qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalar mavjud **podaga kiritilmaydi. Boshqa xo'jaliklardan sotish uchun qabul qilingan chorva mollari va parrandalar ham hisobga olinmaydi**, ya'ni ushbu chorva mollar va parrandalar sotayotgan shaxs hisobida emas sotishga bergan xo'jalik hisobida hisobga olinadi.

Mushuklar va itlar kabi uy hayvonlari ham **hisobga olinmaydi.**

Qishloq xo'jaligi hayvonlarining turlari bo'yicha (asosan oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun emas, balki reproduktiv maqsadlarda saqlanadigan qoramol, qo'y, echki, ot) tasdiqlangan naslchilik maqomiga ega bo'lgan va naslchilik maqsadlarida foydalaniladigan urg'ochi hayvonlar nasldor hayvonlar jumlasiga kiradi.

Urg'ochi ona mollar bosh soni tarkibini barcha sigirlar (sutdan chiqqan va qisirlarini qo'shgan holda), sovliqlar, to'qlilar va ona echkilar, biyalar (ular nasl berganligi yoki bermaganligidan qat'iy nazar) tashkil qiladi.

Ushbu savolning satrlari bo'yicha tushuntirishlar.

2.1 Yirik shoxli qoramollarning jami bosh soni **2.1-satr** bo'yicha hisobga olinadi va unga kichik va katta yoshdagi erkak (2.1.1-satr) va urg'ochi (2.1.2-satr) yirik shoxli qoramollar kiritiladi.

Bunda, barcha yoshdagi:

erkak qoramollarda (2.1.1-satr) - 1 yoshdan kichik buqachalar (axtalanganlarini ham qo'shgan holda), 1 yoshdan katta erkak buqalar, qayta ko'paytirish uchun foydalaniladigan nasldor buqalar hisobga olinadi.

Erkak qoramollar tarkibidan (2.1.1-satr) 1 yoshdan katta bo'lgan erkak qoramollar (2.1.1.1-satr) alohida ajratib ko'rsatiladi.

urg'ochi qoramollarda (2.1.2-satr) 1 yoshdan kichik urg'ochi buzoqchalar, 1 yoshdan katta urg'ochilar, qochirilgan va qochirilmagan g'unajinlar, sigirlar, nasldor urg'ochilar kiritiladi.

Urg'ochi qoramollar tarkibidan (2.1.2-satr) 1 yoshdan katta bo'lgan urg'ochi qoramollar (2.1.2.1-satr) alohida ko'rsatiladi, ular sonidan sigirlar alohida ajratib ko'rsatiladi.

Sigirlar bosh soniga (2.1.2.1.1-satr), dam olishdagi (sog'ish to'xtatilgan, keyingi tuqquniga qadar ikki oy davomida sog'im amalga oshirilmagan), qisir (ro'yxatdan o'tkazish paytidan oldingi 12 kalendar oy davomida nasl bermagan), oziqlantiruvchi (sog'ish umuman amalga oshirilmaydigan, amalda faqat buzoqlarni emizib o'stirish uchun foydalaniladigan) barcha sigirlarni kiritish zarur.

Shuningdek, urg'ochi qoramollar tarkibidan zotdor urg'ochi qoramollar (2.1.2.2-satr) ham alohida ajratiladi.

Erkak va urg'ochi qoramollar bosh soni xo'jalikka tegishli barcha yirik shoxli qoramollarning umumiy soniga teng bo'lishi lozim.

Misol uchun:

Xo'jalikda 4 ta yirik shoxli qoramollar bosh soni mavjud. Ular quyidagicha taqsimlanadi:

Йирик шохли қорамоллар, жами	4	1/5
Эркак қорамоллар	2	1/5
1 ёшдан катта эркак қорамоллар	1	1/5
Ургочи қорамоллар	2	1/5
1 ёшдан катта ургочи қорамоллар	1	1/5
Сигирлар	1	1/5
Ургочи қорамоллардан: наслдор ургочи қорамоллар		0/5

Eslatma:

Sigirlar bosh soniga boʻrdoqilash va yaylovda semirtirish (goʻsht) uchun boqilayotgan sigirlar qoʻshilmaydi, ular faqat jami urgʻochi qoramollarning umumiy bosh sonida aks ettiriladi.

Birinchi marta qochirilgan, boʻgʻoz va hali tugʻmagan urgʻochi gʻunajinlar jami urgʻochi qoramollar tarkibiga kiritiladi, tuqqanidan soʻng sigirlar guruhiga hisobga olinadi.

2.2 Qoʻylar, jami

Qoʻylar bosh soni ularning jinsi boʻyicha guruhlar kesimida qayd etiladi.

Qoʻylar bosh soni 2.2-satr boʻyicha hisobga olinadi va unga barcha yoshdagi erkak (2.2.1-satr) va urgʻochi (2.2.2-satr) qoʻylar kiritiladi.

Bunda, barcha yoshdagi:

erkak qoʻylarga (2.2.1-satr) – 1 yoshdan kichik erkak qoʻzilar, nasldor qoʻchqorlar (2 yoshdan katta qoʻchqorlar), shuningdek, 1 yoshdan katta ushbu turga mansub boshqa erkak qoʻylar kiritish zarur.

urgʻochi qoʻylarga (2.2.2-satr) 1 yoshdan kichik boʻlgan urgʻochi qoʻzilar, 1 yoshdan katta ona qoʻylar va toʻqlilar, bir yoki bir nechta marta qoʻzilagan (nasl bergan) ona qoʻylar, shuningdek, 1 yoshdan katta toʻqlilar (qochirilgan, lekin biron marta nasl bermagan) kiritiladi.

Urgʻochi qoʻylar (2.2.2-satr) tarkibidan ona qoʻylar (sovliqlar) (2.2.2.1-satr) alohida ajratib koʻrsatiladi.

Jami qoʻylar bosh (2.2-satr) sonidan qorakoʻl zotli qoʻylar ajratiladi va ular alohida 2.2.3-satrda qayd etiladi.

Erkak va urgʻochi qoʻylar bosh soni xoʻjalikka tegishli barcha qoʻylarning umumiy soniga teng boʻlishi lozim.

Eslatma:

Toʻqlilar soniga, birinchi marta qochirilgan, boʻgʻoz va hali tugʻmagan urgʻochi qoʻzilar kiritiladi, toʻqlilar tuqqanidan keyin sovliqlar guruhiga oʻtkaziladi.

Misol uchun:

Xoʻjalik 10 ta qoʻy bosh soniga ega va boqish uchun choʻponga berilgan. Barcha 10 ta qoʻy bosh soni (qayerda boʻlishidan qatʼiy nazar) koʻrsatilishi lozim va quyidagicha taqsimlanadi:

Кўйлар, жами	10	2/5
Эркак кўйлар	3	1/5
Ургочи кўйлар	7	1/5
Она кўйлар (совлиқлар)	5	1/5
Жами кўйлардан: қоракўл зотли кўйлар	6	1/5

2.3 Echkilar, jami

Echkilar bosh soni ularning jinsi bo'yicha guruhlar kesimida qayd etiladi.

Echkilar bosh soni 2.3-satr bo'yicha hisobga olinadi va unga barcha yoshdagi erkak (2.3.1-satr) va urg'ochi (2.3.2-satr) echkilar kiritiladi.

Bunda, barcha yoshdagi:

erkak echkilarga (2.3.1-satr) – 1 yoshdan kichik erkak echkilar, nasldor takalar (ularning foydalanishidan qat'iy nazar 2 yoshdan katta bo'lgan axtalanmagan takalar), shuningdek, 1 yoshdan katta ushbu turga mansub boshqa erkak echkilar kiritish zarur.


urg'ochi echkilarga (2.3.2-satr) 1 yoshdan kichik bo'lgan urg'ochi echkilar, 1 yoshdan katta ona echkilar, bir yoki bir nechta marta tuqqan (nasl bergan) ona echkilar, shuningdek, 1 yoshdan katta echkilar (qochirilgan, lekin biron marta nasl bermagan) kiritiladi.

Urg'ochi echkilar (2.3.2-satr) tarkibidan ona echkilar (2.3.2.1-satr) alohida ajratib ko'rsatiladi.

Erkak va urg'ochi echkilar bosh soni xo'jalikka tegishli barcha echkilarning umumiy soniga teng bo'lishi lozim.

Misol uchun:

Xo'jalik 10 ta echki bosh soniga ega va boqish uchun cho'ponga berilgan. Barcha 10 ta echki bosh soni (qayerda bo'lishidan qat'iy nazar) ko'rsatilishi lozim va quyidagicha taqsimlanadi:



Ечкилар, жами	10	2/5
Эркак эчкилар	4	1/5
Ургочи эчкилар	6	1/5
Она эчкилар	5	1/5

2.4 Otlar, jami

Otlar bosh soni ularning jinsi bo'yicha guruhlar kesimida qayd etiladi.

Otlar bosh soni 2.4-satr bo'yicha hisobga olinadi va unga barcha yoshdagi erkak (2.4.1-satr) va urg'ochi (2.4.2-satr) otlar kiritiladi.

Bunda, barcha yoshdagi:

erkak otlarga (2.4.1-satr) – 3 yoshdan kichik erkak otlar, 3 yoshdan katta nasldor ayg'irlar, ishchi erkak (axtalangan) otlar, shuningdek, 3 yoshdan katta ushbu turga mansub boshqa erkak otlar kiritish zarur.

urg'ochi otlarga (2.4.2-satr) - 3 yoshdan kichik bo'lgan urg'ochi otlar, 3 yoshdan katta nasldor biyalar, ishchi biyalar, shuningdek, 3 yoshdan katta boshqa urg'ochi otlar kiritiladi.

Urg'ochi otlar (2.4.2-satr) tarkibidan biyalar (ona biyalar) (2.4.2.1-satr) alohida ajratib ko'rsatiladi.

Erkak va urg'ochi otlar bosh soni xo'jalikka tegishli barcha otlarning umumiy soniga teng bo'lishi lozim.

Ma'lumot uchun:

Ishchi otlar tarkibiga barcha axtalangan otlar, qishloq xo'jaligi ishlarida, qurilishlar, aravakashlik, safar-sayohat, minish, yuk tortish va boshqalarda qatnashuvchi 3 yoshdan katta biyalar va ayg'irlar kiradi. Kasalligi va boshqa sabablar tufayli vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotgan ishchi otlar ham hisobga olinadi.

Misol uchun:

Xo'jalikda 1 ta ot bosh soni mavjud. U quyidagicha taqsimlanadi:

Отлар, жами	1	1/5
Эркак отлар	1	1/5
Ургочи отлар	0	1/5
Биялар (она биялар)	0	1/5

2.5 Tuyalar, jami

Tuyalarga 3 yoshdan katta urg'ochi tuyalar va nasldor erkak tuyalar (ularning ishlatilishidan qat'iy nazar 3 yoshdan katta bo'lgan axtalanmagan erkak tuyalar), bir yoki bir necha marta nasl bergan ona tuyalar, shuningdek, qochirilgan, lekin bir marta ham nasl bermagan urg'ochi tuyalar, 3 yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi tuyalar jinsi bo'yicha ajratmasdan 2.5-satrdan aks ettiriladi.

Туялар	0/5

2.6 Cho'chqalar, jami

Xo'jalikka tegishli barcha cho'chqalar bosh soni jinsga ajratmagan holda 2.6-satrdan hisobga olinadi.

Чўққалар	0/5

2.7 Eshaklar, xachir, ot xachirlar

Xo'jalikka tegishli **eshaklar, xachir, ot xachirlar** bosh sonlari jinsi bo'yicha guruhlariga ajratilmasdan 2.7-satrdan ko'rsatish zarur.

Ешаклар, хачир, от хачирлар

2.8 Mo‘ynali hayvonlar, jami

Xo‘jalikda mo‘ynali hayvonlar bosh soni mavjud bo‘lsa (quyonlar, tulkilar, norkalar, nutriyalar, qunduzlar, ondatralar, suvsarlar), ularni turlarga ajratmasdan umumiy bosh sonini 2.8-satrdan ko‘rsatish zarur.

Shuningdek, quyonlar bosh sonini alohida 2.8.1-satrdan qayd etish zarur va boshqa mo‘ynali hayvonlar (norkalar, nutriyalar, qunduzlar, ondatralar, tulkilar, suvsarlar) 2.8.2-satrdan hisobga olinishi lozim.

Quyonlar va boshqa mo‘ynali hayvonlar bosh soni xo‘jalikka tegishli barcha mo‘ynali hayvonlar umumiy soniga teng bo‘lishi lozim.

Misol uchun:

Xo‘jalikda 4 ta quyon bosh soni mavjud. U quyidagicha taqsimlanadi:

2.9 Yuqorida ko‘rsatilmagan qishloq xo‘jaligi hayvonlari (bug‘u, kiyik, los va boshqalar)

Agar xo‘jalikda savolnomada ko‘rsatilmagan qishloq xo‘jaligi hayvonlari turlari (bug‘i, kiyik, los va boshqalar) mavjud bo‘lgan hollarda, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish uchun ushbu bo‘limning “Yuqorida ko‘rsatilmagan qishloq xo‘jaligi hayvonlari” 2.9-satridan hisobga olinadi.

2.10 Parrandalar, jami

Parrandalar bosh soni ularning turlari (tovuqlar va xo‘rozlar, kurkalar, g‘ozlar, o‘rdaklar, boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi parrandalari) kesimida ko‘rsatiladi.

Parrandalar bosh soni 2.10-satrda hisobga olinadi va turlari bo'yicha ko'rsatiladi: tovuqlar (2.10.1-satr), kurkalar (2.10.2-satr), g'ozlar (2.10.3-satr), o'rdaklar (2.10.4-satr), bedanalar (2.10.5-satr) va boshqa qishloq xo'jaligi parrandalari (2.10.6-satr).

Xo'jalikda mavjud tuyaqushlar, sesarkalar va boshqa parrandalar mavjud bo'lsa, ularning umumiy soni "Yuqorida ko'rsatilmagan qishloq xo'jaligi parrandalari" qatoriga kiritilishi kerak.

Qishloq xo'jaligi parrandalarning turlar bo'yicha soni urg'ochi va erkak jinslarini qo'shgan holda hisobga olish zarur.

Qishloq xo'jaligi parrandalarining turlari bo'yicha soni xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha parrandalarning umumiy soniga mos kelishi kerak.

Misol uchun:

Xo'jalikda 20 ta parranda bosh soni mavjud, shu jumladan 6 ta tovuqlar, 3 ta g'ozlar, 3 ta o'rdaklar, 4 bedanalar va 4 ta bosh parrandalar mavjud. Ular quyidagicha taqsimlanadi:

2.11 Asalari oilalari, jami, dona

Agar xo'jalik asalarichilik bilan shug'ullansa, asalari uyalariga joylashtirilgan asalari oilalari soni kiritilishi kerak. Asalari oilalari donada hisobga olinadi.

Misol uchun:

Xo'jalikdagi asalarilarni boqish uchun tashkil etilgan maxsus **qutilar (asalari uyasi)ning** katta yoki kichikligiga hamda ulardagi **darchalar soniga** qarab asalari oilalari soni aniqlanadi.

Bunda **bitta kichkina qutida** agar **bitta darcha bo'ladigan bo'lsa bu bitta**

asalarilar oilasi turkumiga kiradi.

Agarda ushbu qutida 2 ta darcha bo'lsa – 2 ta oila, 3 ta darcha bo'lsa - 3 ta oila hisoblanadi.

Асалари оилалари жами, дона ⓘ

2

1/5

VII. BO‘LIM AKVAKULTURA

Ma'lumot uchun:

Akvakultura – baliq, chavoq, ikra, mollyuskalar yoki yosh individlarni, suv o'tlarini o'stirishni o'z ichiga oladi.

O'stirish ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida ko'payish va o'sish jarayoniga ma'lum darajada aralashish, masalan, muntazam ravishda nasl qoldirish, oziqlantirish va yirtqichlardan himoya qilishni anglatadi. Akvakultura odatda organizmlarni chavoq, ikra yoki yosh individlardan o'stirishni o'z ichiga oladi. Akvakultura hovuzlarda, sholipoyalarda, daryolarning quyilish joylarida, sug'orish kanallarida yoki ko'llardagi qafaslar, sisternalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Akvakulturani baliqchilik kabi suv resurslaridan foydalanishning boshqa shakllaridan farqlash lozim. Baliqchilik suv hayvonlarini ovlash yoki "yovvoyi tabiatda" suv o'tlarini yig'ishni anglatadi. Baliqchilikning muhim xususiyati shundaki, foydalaniladigan suv organizmlari umumiy mulk hisoblanadi, akvakulturada esa ular xo'jalikka tegishli bo'ladi.

Baliq ovlash akvakulturaga kirmaydi.

Tabiiy yoki sun'iy suv havzalarida suv organizmlarini ko'paytirish yoki o'stirish mumkin. Bunday usul, odatda, suvni vaqti-vaqti bilan yangilab turadigan turg'un suvlarda yoki oqar suvli havzalarda amalga oshiriladi.

Ba'zan katta suv havzalarida qafaslar yoki xapalar ham ishlatiladi.

Xapa - to'rt burchakli simyog'ochlarga osilgan to'r bilan o'ralgan ochiq suv havzalaridagi suv qismlari.

Eslatma:**AKVAKULTURAGA - BALIQ OVLASH KIRMAYDI.**

Agar baliqlar yovvoyi tabiatda tutilib, sotish uchun bo'rdoqiga boqilayotgan bo'lsa, bo'rdoqiga boqish jarayoni akvakultura deb qaralishi kerak.

Ma'lumot uchun

Akvakultura ishlab chiqarishi uchun moslama turlari (umuman xo'jalik uchun) farqlanadi:

Stava to'rlari, qafaslar va xapalar - ko'l, daryo, suv omborlari yoki ochiq suv havzalarida suv organizmlarini o'stirish uchun ishlatiladigan to'r bilan o'ralgan suv maydonlari. To'rlar metall, plastmassa, bambuk yoki yog'ochdan yasalgan qattiq konstruksiyalar bilan o'ralgan. Hujayralar suzib yuruvchi konstruksiyalar yordamida ushlab turiladi.

Sisternalar va sun'iy kanallar - suv organizmlarini o'stirish uchun ishlatiladigan qo'zg'almas inshootlar. Ular odatda yer ustida quriladi va g'isht, beton

yoki plastmassadan yasalishi mumkin. Sisternalar kichik doira yoki to'g'ri burchakli konstruksiyalar, kanallar esa uzun, ensiz konstruksiyalardir.

Suzuvchi sollar, qarmoqlar, arqonlar, qoplar va to'rlar odatda mollyuskalar va suv o'tlarini o'stirish uchun ishlatiladigan ushbu moslamalarga asoslangan akvakultura usullarini anglatadi.

1 – SAVOL. 2025-yil davomida xo'jalik baliq boqish (akvakultura) bilan shug'ullanganmi?

Misollar:

Xo'jalikda keyinchalik sotish uchun karp balig'i yetishtiriladigan hovuz mavjud va karp balig'i yetishtiriladi → Ha

Xo'jalik faqat suv havzasini ijaraga oladi, lekin suv organizmlarini yetishtirish bilan shug'ullanmaydi → Yo'q

Xo'jalikda baliq hisobga olinmasdan va sotilmasdan shaxsiy ehtiyojlar uchun saqlanadi → Yo'q

Xonada laqqa baliqlarni ko'paytirish uchun kichik qurilma mavjud va ular ko'paytiriladi → Ha

Agar xo'jalik akvakultura bilan shug'ulansa **“Xa” javob varianti tanlanadi va 2 savolga o'tiladi.**

Agar xo'jalik akvakultura bilan shug'ulanmasa **“Yo'q” javob varianti tanlanadi va savolnoma yakunlanadi.**

2 - SAVOL. 2025-yil davomida xo'jalikda baliq boqish (akvakultura) qanday suv havzalarida amalga oshirilgan?

Misol uchun:

Karpni maxsus qazilgan hovuzlarda ko'paytirish → Sun'iy

Daryoda qafaslar o'rnatgan holda baliq yetishtirish → Tabiiy

UZV-tizimlar (yopiq suv aylanishli qurilmalar) → Sun'iy

Baliq ham hovuzda, ham ko'lda ko'paytiriladi → Sun'iy va tabiiy

Savolda ikkita javob varianti mavjud. Agar xo'jalikda baliqlar ham sun'iy, ham tabiiy suv havzalarida yetishtirilayotgan bo'lsa, u holda ikkala javob varianti ham qayd etiladi.

Eslatma:

Agar xo'jalik akvakultura bilan shug'ulansa, **3- bo'lim 3- savol “baliq**

boqish (akvakultura) uchun foydalanilgan yerlar” javobiga tegishli ma'lumotlarni kiritib ketishi zarur.

Faqat baliq ovlash amalga oshiriladigan, baliq yetishtirish va parvarish ishlari olib borilmaydigan uchastkalar hisobga kiritilmaydi.

Baliq resurslarini nazorat qilmasdan tabiiy suv havzasidan foydalanish akvakultura hisoblanmaydi.

7-Mavzu:

Eng ko‘p beriladigan savollar.

1. Aholini ro‘yxatga olish nima uchun kerak?

Ro‘yxatga olish –yalpi hisobga olish asosida aholining, uy-joyning soni va tarkibi, iqtisodiy birliklarning tarkibi hamda holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa ma’lumotlar olinishini ta’minlaydigan tadbir.

Ro‘yxatga olish ma’lumotlari hukumat va hokimiyat organlariga samaraliroq ishlashga, ijtimoiy siyosatni to‘g‘ri tashkil etishga, jamiyat hayoti uchun foyda keltiradigan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Masalan, yangi maktablar, bolalar bog‘chalari, poliklinikalar, sport maydonchalari va yo‘llar qurish, qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, shuningdek, moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi sohalarni kengaytirish yoki savdo shaxobchalarini ko‘paytirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Ro‘yxatga olishda ishtirok etish – bu har bir kishining mamlakat rivojiga qo‘shgan hissassi hisoblanadi. Bu aytarli murakkab emas, salbiy oqibatlariga ham olib kelmaydi, shuning uchun ro‘yxatga olishda ishtirok etishdan bosh tortishga sabab yo‘q. O‘z o‘rnida ro‘yxatga olish yakunlari uzoq muddatli istiqbolga ega bo‘lib, ular aholining turmush darajasini oshirish uchun tegishli qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi.

Masalan, davlat aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish yakunlaridan kelib chiqib, demografik va ijtimoiy dasturlarni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, qishloq xo‘jaligi va uy-joy sohasidagi milliy loyihalarni ishlab chiqish uchun foydalanadi.

2. Ichki ishlar organlari, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari, soliq, qishloq xo‘jaligi va boshqa davlat organlari va tashkilotlarining ma’lumotlar bazalarida aholi va qishloq xo‘jaligi haqida barcha ma’lumotlar bor bo‘lsa, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish nima uchun kerak?

Haqiqatan ham, aholi va qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli ma’muriy manbalarda mavjud, ammo ularning barchasi ham aholi va qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlab bermaydi, ya’ni yetarli emas.

Masalan, FHDYO – tug‘ilish, nikoh, vafot haqida; IIV – doimiy ro‘yxat va pasport haqida; soliq – faqat ishlayotganlar haqidagi ma’lumotni saqlaydi. Lekin bu ma’lumotlar aholining hayot sharoiti, ta’limi, ish joyi, til bilishi, millat va boshqa belgilarini qamrab olmaydi. Ro‘yxatga olish esa har bir inson haqida to‘liq, yangilangan va haqiqiy ma’lumotni jamlash uchun o‘tkaziladi.

Huddi shunday Qishloq xo‘jaligi vazirligida ham qishloq xo‘jaligiga oid ma’lumotlar mavjud bo‘lsada, aholi tomorqasida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar mavjud emas, ya’ni, (masalan, aholining o‘z istemoli uchun yetishtirgan mahsulotlari, sug‘orish uchun suv manbalari va boshqalar) qamrab olmaydi.

3. Ro'yxatga olishda nima haqida so'rashadi?

Ro'yxatga olishda ro'yxatga olish savolnoma shakliga kiritilgan savollar beriladi.

Yashash joyi va uy xo'jaligi a'zolari bo'yicha:

uy-joyning holati, kommunal sharoitlari, mulkchilik turi hamda uyda yashayotgan aholi a'zolari haqida ma'lumot to'planadi.

Shaxsga doir savolnoma bo'yicha:

har bir fuqaro haqida alohida ma'lumotlar to'planadi, ya'ni, jinsi, yoshi, ma'lumoti, fuqaroligi, millat, ish joyi, nikoh holati, ma'lumoti, migratsiya, daromad manbalari, xorijiy tillarni bilishi va boshqalar.

O'zbekistonda vaqtincha bo'lib turgan chet el fuqarolari uchun:

kelgan maqsadi, qancha vaqtga kelgani va yashash joyi kabi ma'lumotlar; aholining ayrim toifalari mavjud muassasalar bo'yicha: har bir muassasada yashovchi respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlari;

Qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi uy xo'jaliklari bo'yicha:

yer maydoni, hayvonlar soni, qishloq xo'jalik mahsulotlari va uskunalari haqidagi savollar beriladi.

Ro'yxatga olish savolnoma shakllari Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabrdagi 629-son qarori bilan tasdiqlangan.

4. Mening ma'lumotlarim kimga kerak bo'lib qoldi?

Ro'yxatga oluvchi sizning bergan ma'lumotlaringizni hech qachon oshkor qilmaydi, faqat umumlashtirilgan yakuniy ma'lumotlar e'lon qilinadi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish hamda ularga ishlov berish jarayonida shaxsiy ma'lumotlar egasizlantiriladi, ya'ni identifikatsion raqam, familiya, ism, otacining ismi, respondent manzili olib tashlanadi, ular faqat ro'yxatga olish qamrovi to'liqligini baholash uchun so'raladi.

Ro'yxatga olishda yig'ilgan ma'lumotlar faqat statistika maqsadlarida foydalaniladi. Ya'ni, ushbu ma'lumotlar orqali davlat aholining umumiy soni, tarkibi va sharoiti haqida xulosa chiqaradi – lekin hech kimning shaxsga doir ma'lumoti alohida tarzda ishlatilmaydi.

Shuning uchun xavotirlanishingizga o'rin yo'q.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonida olingan ma'lumotlar qonun hujjatlari bilan himoya qilinadi va hech kim sizdan olingan ma'lumotni oshkor qilishga haqli emas (O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuni 10-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabrdagi 629-son qarori).

Ro'yxatga olish sizga hech qanday xavf tug'dirmaydi.

5. Siz hamma narsani so'rayapsiz, lekin yaxshi tomonga hech narsa o'zgarmayapti...

Axir siz vaziyatni yaxshi tomonga o'zgarishini xohlaysizku?

Agar siz ushbu tadbirda ishtirok etmasangiz, bundan yaxshiroq bo‘lib qoladimi?

Agar sizning vaziyatingiz qaysidir ma’noda yomon bo‘lsa, davlat buni tushunishi va sizga yaxshiroq bo‘lishi uchun choralar ko‘rishi kerak. Shuning uchun ham sizning aniq ma’lumotlaringiz juda muhim hisoblanadi.

Shu o‘rinda, ro‘yxatga oluvchining savollariga javob berish juda muhim, lekin bu jarayon ishonch va ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

Hech kim javob berishga majburlanmaydi, lekin har bir respondentning javobi mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyatli.

Davlat shular asosida maktab, shifoxona, yo‘l va uy-joylar qurishni rejalashtiradi, ish o‘rinlari va xizmatlar sonini aniqlaydi, aholi turmush darajasini baholaydi.

6. Men hokimiyatga yomon munosabatdaman, shuning uchun ro‘yxatga olishda ishtirok etishni xohlamayman.

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning hokimiyatga aloqasi yo‘q. Hokimiyat va ro‘yxatga olish tadbirini bir narsa deb bilish butunlay noto‘g‘ri. Axir sizga kimnidir saylash yoki ovoz berish taklif qilinmayapti.

Agar siz Ro‘yxatga olish savollari bo‘yicha ma’lumot bersangiz, nafaqat hukumatga, balki xususiy tadbirkorlarga va jamoatchilikka ham ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga yordam berasiz.

Axir ro‘yxatga olish uchun kimdandir xafa bo‘lish mumkinmi?

7. Siz kimlarni ro‘yxatga olasiz?

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda mamlakatning barcha aholisi, yoshidan qat’i nazar ishtirok etadi.

16 yoshdan boshlab shaxs ro‘yxatga oluvchining savollariga o‘zi javob berishi mumkin, kichik yoshdagi bolalar haqidagi ma’lumotlarni esa ota-onalar taqdim etadi.

Bir kishi, uy xo‘jaligi a‘zosi yoki boshlig‘i, agar u uy xo‘jaligi a‘zolari to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lsa, ro‘yxatga olish savolnomalarini o‘zi uchun va uy xo‘jaligining boshqa barcha a‘zolari uchun to‘ldirishi mumkin.

Buni ro‘yxatga olish jarayonida nafaqat ro‘yxatga oluvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilish orqali, balki elektron shaklda **census.stat.uz** veb-sayti orqali ham amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Ro‘yxatga olishdan O‘zbekiston Respublikasida bir yil va undan ortiq yashovchi barcha odamlar o‘tishi kerak.

Odatdagi yashash joyi – bu inson har sutkada o‘zining dam olish vaqtining ko‘p qismini o‘tkazadigan joy.

Bu joy inson ro‘yxatdan o‘tgan (propiska qilingan) manzil bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin.

O‘zbekiston fuqarolarining chet elda xizmat safarida bo‘lganlari (shu jumladan ularning oila a‘zolari) ham aholini ro‘yxatga olishga jalb etiladi.

Ya'ni, siz chet elda o'qish, ishlash, sayohat, davolanish va boshqa maqsadlarda vaqtincha bo'lsangiz siz haqingizdagi ma'lumotlarni qarindoshlaringiz taqdim etishi mumkin.

Shuningdek, so'rovnomasavollariga masofadan turib, **census.stat.uz** veb-sayti orqali javob berishingiz mumkin.

8. Qaysi yoshdan boshlab ro'yxatga olishda ishtirok etish mumkin?

Aholini ro'yxatga olishga yoshidan qat'i nazar, mamlakatning butun aholisi jalb etiladi.

9. Ro'yxatga olish uchun qanday hujjatlar kerak? Ularni ro'yxatga oluvchiga ko'rsatish kerakmi?

Aholini ro'yxatga olishda hech qanday hujjat talab qilinmaydi.

Barcha ma'lumotlar fuqarolarning so'zlari asosida to'planadi. Ro'yxatga oluvchi faqat so'rov o'tkazadi – savol beradi va javobni yozib oladi. Pasport, tug'ilganlik guvohnomasi yoki boshqa hujjatlarni talab qilmaydi.

10. Kvartirada (uyda) yashovchi bir kishi unda yashovchi barcha uchun javob berishi mumkinmi?

Ha, bir kishi, uy xo'jaligi a'zosi yoki boshlig'i, agar u uy xo'jaligi a'zolari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lsa, ro'yxatga olish savolnomalarini o'zi uchun va uy xo'jaligining boshqa barcha a'zolari uchun to'ldirishi mumkin. Buni ro'yxatga olish jarayonida nafaqat ro'yxatga oluvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilish orqali, balki elektron shaklda **census.stat.uz** veb-sayti orqali ham amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Agar siz aniq ma'lumotni bilmasangiz, bu haqda ro'yxatga oluvchiga aytishingiz va unga yo'q bo'lganlar qachon uyda bo'lishi vaqtini xabar qilishingiz kerak, shunda u yana bir marta keladi.

11. Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar qanday ro'yxatga olinadi?

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar (uysizlar) so'rov usuli bilan va ro'yxatga olish varaqalarini to'ldirish orqali ro'yxatga oluvchi ularni topgan joylarda ro'yxatga olinadi. Qoidaga ko'ra, bunday fuqarolarning to'planish joylari mahalliy hokimiyat organlari va ichki ishlar organlariga ma'lum.

Uysiz (boshpanasiz) shaxslar ham aholining ajralmas qismi hisoblanadi va albatta ro'yxatga olinishi kerak. Chunki ijtimoiy yordam va uy-joy dasturlarini shakllantirish, qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlik darajasini aniqlash, shuningdek sog'liqni saqlash, hujjatlash va reabilitatsiya xizmatlarini to'g'ri yo'naltirish uchun uysizlar to'g'risidagi ma'lumotlar zarur hisoblanadi.

12. So‘ralayotganlar ro‘yxatga oluvchini kvartiraga (uyga) kiritishga majburmi?

Agar so‘ralayotgan shaxs ro‘yxatga oluvchini kvartiraga yoki uyga kiritishni istamasa, u ro‘yxatga oluvchi bilan muloqot qilish uchun zinapoya maydonchasiga yoki xususiy uyning hovlisiga chiqishi mumkin.

Shuningdek, o‘zingiz statsionar uchastkaga (MFY idorasiga) borib ro‘yxatdan o‘tishingiz mumkin. Yoki ro‘yxatga olish savolnomalarini census.stat.uz veb-sayti orqali ham to‘ldirishingiz mumkin.

13. Fuqarolar ro‘yxatga olishda ishtirok etishdan bosh tortganlik uchun javobgarlikka tortiladimi?

Aholini ro‘yxatga olish tadbirida ishtirok etish bu har bir respondentning fuqarolik burchi hisoblanadi. Agar siz o‘zingiz va oila a‘zolaringiz taqdiriga befarq bo‘lmasangiz ushbu muxim tadbirda faol ishtirok etishingiz va ishonchli ma‘lumotlar taqdim etishingiz talab etiladi.

Ro‘yxatga olishda ishtirok etishdan bo‘yin tovlagan fuqarolarga nisbatan hech qanday sanksiyalar qo‘llanilmaydi.

14. Ro‘yxatga olish varag‘ining biron-bir savoliga javob bermaslik mumkinmi?

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish savolnomasi shakllarining barcha savollari butun mamlakat, qolaversasiz yashayotgan hudud miqyosida uy-joylarning soni va tarkibi, uy xo‘jaliklarining yer maydoni, hayvonlar soni, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va boshqalar to‘g‘risida batafsil to‘liq ma‘lumotlar olish nazarda tutilgan.

Agar siz biron-bir savolga javob bermasangiz, siz bu bilan to‘liq bo‘lmagan ma‘lumot olinishiga hissa qo‘shgan bo‘lasiz.

Ya‘ni, bu bilvosita siz va yaqinlaringiz bo‘yicha ma‘lumotlarning to‘liq bo‘lmasligiga olib keladi. Bu esa, yosh guruhi va ushbu avlod bo‘yicha aholining umumiy tarkibini buzib ko‘rsatadi. Shunga mos ravishda, ro‘yxatga olishning umumiy yakunlarida Siz haqingizda va Siz kabi odamlar haqida ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmaydi.

Shunga qaramay, agar siz biron-bir savolga javob bermasangiz, Sizga nisbatan hech qanday sanksiyalar qo‘llanilmaydi.

15. Men o‘zimning nikohdagi holatim to‘g‘risidagi savolga javob berishdan bosh tortaman.

Siz taqdim etayotgan ma‘lumotlar faqat statistika maqsadlarida foydalaniladi. Ro‘yxatga oluvchi sizning bergan ma‘lumotlaringizni hech qachon oshkor qilmaydi, faqat umumlashtirilgan yakuniy ma‘lumotlar ko‘rinishida e‘lon qilinadi.

Ro‘yxatga olish tadbiri orqali odamlar qanday yashayotgani haqidagi umumiy manzara qanday holatda ekanligi o‘rganiladi.

Ushbu ma‘lumotni xabar qilish Sizga hech qanday xavf tug‘dirmaydi.

16. Men o‘zimning daromad manbalarim to‘g‘risida ma’lumot berishni hohlamayman.

Ro‘yxatga olish savolnomalarida daromad miqdori haqida savol yo‘q, faqat sanab o‘tilganlar orasidan yashash uchun vositalar manbalari bor.

Ushbu ma’lumotlar umumlashtirilgan ko‘rinishda aholining iqtisodiy tarkibi manzarasini – har bir yosh guruhida pensionerlar, uy bekalarining ulushi, nafaqaga yashaydigan odamlar va shu kabilarning ulushi qanday ekanligini olish imkonini beradi.

17. So‘ralgan shaxs ro‘yxatga olish varag‘i savollariga to‘g‘ri javob berganligini qanday bilish mumkin?

Ro‘yxatga oluvchi sizning javoblaringizni to‘g‘riligini tasdiqlovchi hech qanday hujjatlarni talab qilmaydi va ularni ro‘yxatga olish jarayonida faqat Sizning so‘zlaringizdan olingan javoblarni qayd etadi. Jahon amaliyoti ko‘rsatganidek, inson uchun ataylab nimadir o‘ylab topgandan ko‘ra, haqiqatni aytish osonroq va soddaroq. Biz – sizning javoblaringizga ishonamiz.

18. Fuqarolar yolg‘on ma’lumotlar taqdim etganlik uchun javobgarlikka tortiladimi?

Fuqarolar yolg‘on ma’lumotlar taqdim etganlik uchun javobgarlikka tortilmaydi. Ro‘yxatga olish jarayonida beriladigan savollarga javoblar faqat so‘ralayotgan shaxsning so‘zlaridan qayd etiladi – bu aholini ro‘yxatga olishning asosiy tamoyillaridan biridir. Siz bergan ma’lumotni tasdiqlovchi hech qanday hujjatlarni ro‘yxatga oluvchiga taqdim etish kerak emas.

Aholini ro‘yxatga olish tadbirida ishtirok etish bu har bir respondentning fuqarolik burchi hisoblanadi. Agar siz o‘zingiz va oila a‘zolaringiz taqdiriga befarq bo‘lmasangiz ushbu muxim tadbirda faol ishtirok etishingiz va ishonchli ma’lumotlar taqdim etishingiz so‘raladi.

19. Siz qaysi huquqqa ko‘ra mendan ma’lumotlarni so‘rayapsiz? Ma’lumotlarni yig‘ish uchun qonuniy asos qanday?

Ro‘yxatga olish haqiqatan ham quyidagi huquqiy hujjatlarga asoslanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining "Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida"gi Qonuni – aholini ro‘yxatga olishning maqsadini, tamoyillari va usullarini, respondent bo‘lgan fuqarolar toifalarini, ularning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

- Shuningdek, Aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida"gi 173-son Farmoni – aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish davri va sanasini, aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati,

shuningdek, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish holatini o'rganish, chorva mollari va parrandalar sonini aniqlash ko'zda tutilgan.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 629-son qarori – O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartibi belgilab berilgan.

20. Men ishlamayman/pensionerman va ro'yxatga olish uchun qiziq emasman, qolaversa, men savollarga javob bera olmayman, yoshlarga boring va ulardan so'rang.

Ro'yxatga olish varaqalarining savollari murakkab emas, ular Sizga va Sizning uy xo'jaligingizga tegishli. Bu bilimni tekshirish emas, qolaversa, ro'yxatga oluvchi har doim yordam beradi, savollarning mohiyatini tushuntiradi va javob variantlari bilan tanishishga yordam beradi. Ro'yxatga olish uchun yoshi, jinsi, ma'lumoti va qandaydir ko'nikmalaridan qat'i nazar, har bir insonning javoblari muhim. Faqat shunday qilib aholining haqiqiy sonini aniqlash va qolgan to'plangan ma'lumotlar va ular asosida e'lon qilingan natijalar to'liq ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin, chunki ro'yxatga olishda butun aholi ishtirok etdi.

21. Javoblarga juda ko'p vaqt ketadi. Men shoshilyapman!

Har bir xonadon uchun so'rov o'rtacha **30-40 daqiqa** davom etadi, shunga mos ravishda so'rov davomiyligi oila/uy xo'jaligi a'zolarining soniga ham bog'liq.

Shuningdek **census.stat.uz** veb-sayti yoki mobil ilova orqali o'zingizga qulay vaqtda to'ldirish imkoniyati mavjud.

Agar ayni paytda Sizning savollarga javob berishga vaqtingiz bo'lmasa, Siz **census.stat.uz** veb-sayti yoki mobil ilova orqali o'zingizga qulay vaqtda to'ldirish imkoniyati ham mavjud.

23. Javoblardan men qanday foyda olaman? Men davlatdan hech narsa olmaganman. Men ishtirok etishni xohlamayman!

Haqiqatan ham, Sizning ma'lumotlaringiz nimanidir o'zgartirishi bevosita ko'rinmaydi. Biroq, amalda aholi farovonligini yaxshilash borasida kundalik qarorlarni qabul qilishda, shuningdek, keyingi rejalarni tuzishda sizning ma'lumotlaringiz juda ham muhim.

Jumladan, pensiyalar, nafaqalar olish, shu bilan birga, maktablar, bolalar bog'chalari, boshqa ijtimoiy obyektlarning shart-sharoitlarini yaxshilash, transport aloqasini tashkil etish va boshqa shu kabi masalalarni yechishda va davlat tomonidan to'g'ri qarorlar qabul qilishda ushbu ma'lumotlarga shunchalik ko'proq tayanishadi.

24. Nima uchun qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi savollar aholini ro'yxatga olishga kiritilgan?

Davlatning iqtisodiy barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi bevosita qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bog'liq, ammo mamlakatning agrar salohiyati, qishloqda yashaydigan va ishlaydiganlar haqida obyektiv ma'lumotlarsiz hech qanday rivojlanish mumkin emas.

Aholini ro'yxatga olish jarayonida qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida ma'lumot to'plash: "Uy xo'jaliklari qanday resurslarga ega: yer maydonlari, ekinlar, chorva mollari va parrandalar soni?" degan savolga javob berishga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlar qishloq xo'jaligini, shu jumladan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, umuman respublika bo'yicha ham, alohida mintaqalar va hududlar bo'yicha ham uy xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot olinadi, shundan kelib chiqib, ularning yaqin va o'rta muddatli istiqboldagi rivojlanishini prognoz qilish mumkin bo'ladi.

25. Nima uchun uy xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqa axborot manbalaridan olish mumkin emas?

Respublikada aholi xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi yagona axborot manbai tanlanma statistika kuzatuvlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda aholi xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida ma'lumot yig'ish faqat qishloq joylarda doimiy yashovchi fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda shahar joylarda, bog'dorchilik va polizchilik shirkatlarida, dala hovlilarda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi aholi o'rganilmaydi. Shunday qilib, joriy statistika umuman aholining qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkonini bermaydi.

26. Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi savollar aholi xo'jaliklarining qaysi toifalarini qamrab oladi?

Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi savolnoma mulkida, egaligida, vaqtinchalik foydalanishida, shuningdek ijara (subijara)da yer uchastkalari (yer uchastkalarining qismlari) va (yoki) qishloq xo'jaligi hayvonlariga ega bo'lgan uy xo'jaligiga to'ldiriladi. Bunda uy xo'jaligida bo'lgan barcha yer uchastkalarining soni hisobga olinadi.

27. Aholini ro'yxatga olish dasturiga qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida qanday ma'lumotlar kiritilgan?

Aholini ro'yxatga olish jarayonida fuqarolarga ularning foydalanishida bo'lgan yer uchastkalarining o'lchamlari, qanday qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirilayotgani, uchastkada qanday mevali daraxtlar va butalar, shuningdek, rezavor ko'chatlar mavjudligi, xo'jalikda qanday turdagi chorva mollari va parrandalar boqilayotgani haqida savollar beriladi.

28. Sizga mening daraxtlarim va tomorqam nima uchun kerak?

Qishloq xo'jaligi ro'yxati uchun har bir uy xo'jaligi to'g'risidagi ma'lumot muhimdir. Yer uchastkalarining umumiy maydoni, turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlarining ekin maydoni, mevali-rezavor ko'chatlar va butalar soni (maydoni), shuningdek, chorva mollari, parrandalar va asalari oilalari soni to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rab, biz shu bilan umuman respublika bo'yicha ham, alohida hududlar bo'yicha ham fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining holati to'g'risida umumiy obyektiv ma'lumot olamiz. Olingan ma'lumot shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash, qishloq hududlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

29. Agar men boridan kamroq aytsam, menga nima bo'ladi?

Javoblar so'ralayotgan shaxsning so'zlaridan qayd etiladi, bunda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish talab qilinmaydi. Ro'yxatga olish aholiga ishonch tamoyillariga quriladi.

Shu bilan birga, ro'yxatga olish savollariga sifatli va to'liq javoblar davlatga keyingi yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

30. Keyin meni daraxtlar va chorva mollari uchun soliq to'lashga majburlashmaydimi? Mening buvim o'sha vaqtlarni eslaydi.

Ro'yxatga olishni o'tkazishda olingan barcha ma'lumotlar maxfiydir. Qayta ishlash jarayonida aniq bir inson haqidagi shaxsiy ma'lumotlar egasizlantiriladi va keyinchalik faqat umumlashtirilgan yakuniy ma'lumotlar ishlatiladi.

To'ldirilgan ro'yxatga olish varaqalari na soliq organlariga, na boshqa biron-bir hokimiyat organlariga berilishi mumkin emas.

**Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining lavozim
YO'RIQNOMASI NAMUNASI
(mahalla raisi)**

I. Umumiy qoidalar

1. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabi va tuman (shahar) statistika bo'limiga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan kunlik axborot beradi.
2. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i bir vaqtning o'zida statsionar ro'yxatga oluvchi hisoblanadi.
3. Ro'yxatga oluvchilar ("Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va zaxira xodimlar) faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi, o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.
4. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining lavozim yo'riqnomasida belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarilishini hamda rahbariyatning ish rejalarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi.
5. Statsionar ro'yxatga oluvchi sifatida yashab turgan xonadonida (joyida) ro'yxatdan o'tishni istamagan respondentlardan so'rov o'tkazish yo'li orqali ro'yxatga olish uchastkasida ro'yxatga olishni o'tkazadi va to'plangan materiallar va hujjatlarning o'z vaqtida, ishonchli va sifatli tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi.

II. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining vazifa va funksiyalari

6. **2025-yil 1-dekabrga qadar** tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabidan targ'ibot materiallarini (flyer, buklet va boshqalar) oladi va mahalla hududidagi ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalariga va aholi to'planadigan joylarga tarqatadi.
7. **2025-yil noyabr va dekabr** ro'yxatga olishni o'tkazish va savolnomalarni to'ldirish bo'yicha o'qishda va amaliy mashg'ulotlarda qatnashadi va ro'yxatga olish hujjatlarini to'ldirish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tadi.
8. **2026-yil 10-yanvar kuni** ro'yxatga olish uchastkasi (mahalla bo'yicha) bo'yicha ko'cha boshilarini yig'ib ularga ro'yxatga oluvchilarga yordam berish bo'yicha vazifalar yuklaydi.
9. **2026-yil 11-12-yanvar kunlari** mahalla bo'yicha ko'cha boshilari bilan birga har bir ko'chada aholiga ro'yxatga olishning mazmun mohiyatini tushuntirish va ro'yxatga olishda faol qatnashishlari bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi.
10. **2026-yilning 13-14-yanvar kunlari** ro'yxatga oluvchilar tomonidan o'zlariga birlashtirilgan hududlarda targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishini nazorat qiladi.

11. **Kunlik** ro'yxatga oluvchilar tomonidan olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari bo'yicha tuman (shahar)shtabiga hisobot beradi.

12. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i shaxsan **2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha** o'z mahallasi hududida ro'yxatga olish jarayonlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini to'liq ta'minlaydi.

13. **2026-yilning 15-31-yanvar kunlari** ro'yxatga oluvchilar tomonidan respondentlarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlari bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini nazorat qiladi va amaliy ko'mak beradi.

14. **Kunlik** ro'yxatga oluvchilar tomonidan aholining Internetdan ro'yxatdan o'tishlari bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarining holati yuzasidan tuman (shahar) shtabiga hisobot beradi.

15. **2026-yilning 1-3-fevral kunlari** mahalla bo'yicha fuqarolarning Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan manzillarni ro'yxatga oluvchilar planshetlariga kelib tushganligini ko'zdan kechiradi.

16. **2026-yilning 15-yanvaridan - 28-fevraligacha** ro'yxatga oluvchilar tomonidan mahalla hududida joylashgan turar joy va aholi yashashi mumkin bo'lgan noturar joy binolariga borilishi, barcha xonadonlardan va ularda yashovchi aholidan planshet qurilmasi yordamida so'rov o'tkazilishini nazorat qiladi.

17. Ro'yxatga olish davrida ro'yxatga oluvchilarni Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan manzillarga kirgan holda ma'lumotlarga aniqlik kiritishlarini nazorat qiladi.

18. **2026-yil 1 - 28-fevral kunlarida** ro'yxatga oluvchilar tomonidan ro'yxatga olish jarayonlarida mahalla hududidagi hech kim yashamaydigan va eshigini ochmagan xonadonlar bo'yicha ma'lumotlarni to'planishini nazorat qiladi.

19. **2026-yilning 15-yanvaridan - 28-fevraligacha** ro'yxatga oluvchilarning o'z vaqtida ishga kelishi, ularga yuklangan vazifalarning bajarilishini kunlik nazorat qiladi va maslahat yordamini ko'rsatadi.

20. Mahallada muddatidan avval ishdan bo'shagan ro'yxatga oluvchi xodim o'rniga zaxiradagi xodimni ishga olish bo'yicha tuman (shahar) shtabiga taklif beradi.

21. Ro'yxatga oluvchilar tomonidan planshet qurilmalari yordamida savolnoma shakllarini to'ldirish bo'yicha kunlik yuklamani bajarilishini nazorat qiladi, yuklamadan ortda qolayotgan ro'yxatga oluvchilarga amaliy yordam ko'rsatadi.

22. O'ziga biriktirilgan mahalla hududida yashovchi barcha aholini to'liq ro'yxatga olinishini ta'minlaydi.

23. **Jinoyatchilikka moyil** hamda **tarbiyasi og'ir oilalarni** ro'yxatga olishda Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi.

24. Ro'yxatga olish bilan bog'liq boshqa topshiriqlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi va yuzaga kelgan muammolar bo'yicha tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabini xabardor qiladi.

25. Statsionar ro'yxatga oluvchi sifatida yashab turgan xonadonida (joyida) ro'yxatdan o'tishni istamasdan ro'yxatga olish uchastkasiga kelgan respondentlardan so'rov o'tkazish yo'li orqali ro'yxatga olish varag'i shakllarini to'ldiradi.

26. Ro'yxatga olish uchastkasida ro'yxatdan o'tgan respondentlar haqida tegishli hisob uchastkasida faoliyat olib borayotgan ro'yxatga oluvchilarni xabardor qiladi.

27. Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

III. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining huquq va majburiyatlari

28. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

Ro'yxatga olish jarayonida tuman/shahar shtabidan kerakli ma'lumotlarni so'rab olish;

Targ'ibot maqsadlarida targ'ibot materiallarini bepul asosda qabul qilib olish;

ro'yxatga olish savolnomasi doirasida respondentlardan shaxsga doir ma'lumotlarni olish;

biriktirilgan hududda ro'yxatga olish ishlarni bajarganlik uchun mehnatiga haq olish;

O'z vazifasini sifatsiz va lozim darajada bajarmayotgan xodimlar to'g'risida shtabni xabardor qilish va ular ustidan bildirgilar kiritish.

25. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i quyidagi majburiyatlarga ega:

o'z vakolatiga muvofiq ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi;

respondent bilan suhbat o'tkazishdan (shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishni boshlashdan) oldin respondentga o'z guvohnomasini ko'rsatish;

shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish jarayonida ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro'yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

ro'yxatga olish savollarini respondentlarning so'zlari asosida to'ldirish;

shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi, ularning mazmunini oshkor qilmaslik;

ro'yxatga olish davrida ro'yxatga olish hujjatlarini saqlash va yo'qotmaslik;

ro'yxatga olishda jalb etilganlarga uslubiy va amaliy yordam berish;

aholi va hamkasblari bilan xushmuomala, odoq-axloq doirasida munosabatda bo'lish;

ro'yxatga olish davrida maxsus bedjikda bo'lish;

mazkur lavozim yo'riqnomasi shartlariga qat'iy rioya etish.

IV. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ining javobgarligi

26. Respondentlardan yig'ilgan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi, ularning mazmunini oshkor qilmaydi.

27. Ro'yxatga olish hujjatlari hamda tovar moddiy-boyliklarni saqlaydi.

28. Tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabi tomonidan qo'yilgan talablarni va ushbu yo'riqnomada belgilangan funksional vazifalarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

29. Uchastka boshlig'i ushbu lavozim yo'riqnomasida o'ziga yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va majburiyatlarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, o'ziga berilgan vakolatlar va huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi, shuningdek, ichki me'yoriy hujjatlari talablari, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini to'g'ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

30. Uchastka boshlig'ining qayd etilgan vazifalari, funksiyalari va majburiyatlarini bajarmasligi, talab darajasida bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi, vakolatlari va huquqlaridan noto'g'ri foydalanishi, ichki me'yoriy hujjatlari talablari, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini ijro etmasligi oqibati xususiyatiga qarab amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishiga olib keladi.

Mazkur lavozim yo'riqnomasi bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini olaman:

(imzo)

(sana)

Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining lavozim**YO'RIQNOMASI NAMUNASI****(profilaktika inspektori)****I. Umumiy qoidalar**

1. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosari ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i, tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabi va tuman (shahar) statistika bo'limiga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan kunlik axborot beradi.

2. Ro'yxatga oluvchilar ("Mahalla yettiligi" tizimi xodimlari va zaxira xodimlar) faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi, o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

3. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining lavozim yo'riqnomasida belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarilishini hamda rahbariyatning ish rejalarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

**II. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining
vazifa va funksiyalari**

4. **2025-yil 1-dekabr**ga qadar tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabidan targ'ibot materiallarini (flayer, buklet va boshqalar) oladi va mahalla hududidagi ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalariga va aholi to'planadigan joylarga tarqatadi.

5. **2025-yil noyabr-dekabr oylarida** ro'yxatga olish uchastkasi faoliyati va savolnomalarni to'ldirish bo'yicha o'qishda qatnashadi hamda ro'yxatga oluvchilar tomonidan xonadonlarga borgan holda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishini tashkil qiladi.

6. **2026-yil 10-yanvar kuni** ro'yxatga olish uchastkasi (mahalla bo'yicha) bo'yicha ko'cha boshilarini yig'ib ularga ro'yxatga oluvchilarga yordam berish bo'yicha vazifalar yuklaydi.

7. **2026-yil 11-12-yanvar kunlari** mahalla bo'yicha ko'cha boshilari bilan birga har bir ko'chada aholiga ro'yxatga olishning mazmun mohiyatini tushuntirish va ro'yxatga olishda faol qatnashishlari bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishini tashkil qiladi.

8. **Kunlik** ro'yxatga oluvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari bo'yicha tuman (shahar)shtabiga hisobot tayyorlaydi.

9. Ro'yxatga olish uchastkasi hududida **2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha** ro'yxatga olish jarayonlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini to'liq ta'minlaydi.

10. **2026-yilning 15-31-yanvar kunlari** ro'yxatga oluvchilar tomonidan respondentlarning Internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlari bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini nazorat qiladi va amaliy ko'mak beradi.

11. **Kunlik** ro'yxatga oluvchilar tomonidan aholining Internetdan ro'yxatdan o'tishlari bo'yicha olib borayotgan ishlarining holati bo'yicha tuman (shahar) shtabiga hisobot tayyorlaydi.

12. **2026-yilning 1-3-fevral kunlari** mahalla bo'yicha fuqarolarning Internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan manzillarni ro'yxatga oluvchilarning planshetlariga kelib tushganligini ko'zdan kechiradi.

Internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan aholi ma'lumotlarini mahalla ma'lumotlari bilan solishtiradi va tahlil ishlarini olib boradi.

13. **2026-yil 28-fevralgacha** ro'yxatga oluvchilar tomonidan mahalla hududida joylashgan turar joy va aholi yashashi mumkin bo'lgan noturar joy binolariga borilishi, barcha xonadonlardan va ularda yashovchi aholidan planshet qurilmasi yordamida so'rov o'tkazilishini to'liq ta'minlaydi.

14. **2026-yil 28-fevralgacha** ro'yxatga oluvchilarga ro'yxatga olish jarayonlarida mahalla hududidagi hech kim yashamaydigan va eshigini ochmagan xonadonlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plashda ko'maklashadi.

15. **2026-yil 1-yanvaridan - 28-fevralgacha** ro'yxatga oluvchilarning o'z vaqtida ishga kelishi, ularga yuklangan vazifalarning bajarilishini kunlik nazorat qiladi va maslahat yordamini ko'rsatadi.

16. Mahallada muddatidan avval ishdan bo'shagan ro'yxatga oluvchi xodim o'rniga zaxiradagi xodimni ishga olish bo'yicha ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'iga taklif beradi.

17. Ro'yxatga oluvchilar tomonidan planshet qurilmalari yordamida savolnoma shakllarini to'ldirish bo'yicha kunlik yuklamani bajarilishini nazorat qiladi, yuklamadan ortda qolayotgan ro'yxatga oluvchilarga amaliy yordam ko'rsatadi.

18. Ro'yxatga olish uchastkasi hududida yashovchi barcha aholini to'liq ro'yxatga olinishini ta'minlaydi.

19. Jinoyatchilikka moyil hamda tarbiyasi og'ir oilalarni ro'yxatga olishda Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi.

20. Ro'yxatga olish bilan bog'liq boshqa topshiriqlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi va yuzaga kelgan muammolar bo'yicha ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'ini hamda zaruratga ko'ra tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabini xabardor qiladi.

21. Vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

III. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining huquq va majburiyatlari

24. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosari quyidagi huquqlarga ega:

ro'yxatga olish jarayonida tuman/shahar shtabidan va ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i kerakli ma'lumotlarni so'rab olish;

targ'ibot maqsadlarida targ'ibot materiallarini bepul asosda qabul qilib olish;

o'z vazifasini sifatsiz va lozim darajada bajarmayotgan xodimlar to'g'risida uchastka boshlig'i va shtabni xabardor qilish hamda ular ustidan bildirgilar kiritish.

22. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosari quyidagi majburiyatlarga ega:

o'z vakolatiga muvofiq ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi;

yig'ilgan hujjatlarni tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabiga o'z vaqtida, to'liq va xatolari bartaraf etilgan holda topshirish;

shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish jarayonida ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro'yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi, ularning mazmunini oshkor qilmaslik;

ro'yxatga olish davrida ro'yxatga olish hujjatlarini saqlash va yo'qotmaslik;

ro'yxatga olishda jalb etilganlarga uslubiy va amaliy yordam berish;

aholi va hamkasblari bilan xush muomala, odob-axloq doirasida munosabatda bo'lish;

mazkur lavozim yo'riqnomasi va shartnoma shartlariga qat'iy rioya etish;

IV. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i o'rinbosarining javobgarligi

23. Respondentlardan yig'ilgan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi, ularning mazmunini oshkor qilmaydi.

24. Ro'yxatga olish hujjatlari hamda tovar moddiy-boyliklarni saqlaydi.

25. Tuman (shahar) ro'yxatga olish shtabi tomonidan qo'yilgan talablarni va ushbu yo'riqnomada belgilangan funksional vazifalarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

26. Uchastka boshlig'i o'rinbosari ushbu lavozim yo'riqnomasida o'ziga yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va majburiyatlarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, o'ziga berilgan vakolatlar va huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi, shuningdek, ichki me'yoriy hujjatlari talablari, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini to'g'ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

27. Uchastka boshlig'i o'rinbosarining qayd etilgan vazifalari, funksiyalari va majburiyatlarini bajarmasligi, talab darajasida bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi, vakolatlari va huquqlaridan noto'g'ri foydalanishi, ichki me'yoriy hujjatlari talablari, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini ijro etmasligi oqibati xususiyatiga qarab amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishiga olib keladi.

Mazkur lavozim yo'riqnomasi bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini olaman:

(imzo)

(sana)

**Ro'yxatga oluvchi xodimning lavozim
YO'RIQNOMASI NAMUNASI**

**(“mahalla yettiligi”: hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim, yoshlar yetakchisi,
xotin-qizlar faoli, soliq inspektori, zaxira xodim
va boshqa jalb etilgan xodimlar)**

I. Umumiy qoidalar

1. Ro'yxatga oluvchi bevosita ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i (mahalla raisi) va o'rinbosariga (profilaktika inspektori) bo'ysunadi.

2. Funksional vazifalariga muvofiq hisob uchastkasidagi har bir turar joy va aholi yashashi mumkin bo'lgan noturar joy binolariga tashrif buyurgan holda ro'yxatga olishni o'tkazadi, ro'yxatga olish jarayonida to'ldiriladigan hujjatlarning o'z vaqtida, ishonchli va sifatli tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi.

3. Ro'yxatga oluvchi bilan tuzilgan shartnomada belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarilishini hamda ish rejasida belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

II. Ro'yxatga oluvchi xodimning vazifa va funksiyalari

1. **2025-yil noyabr va dekabr** oylarida ro'yxatga olishni o'tkazish va savolnoma shakllarini to'ldirish Tartibi bo'yicha 2 bosqichli o'quv-amaliy mashg'ulotlarda qatnashadi.

2. **2026-yil 10-14-yanvar kunlari** kunlari o'ziga biriktirilgan hisob uchastkasi hududida aholi o'rtasida ro'yxatga olishning maqsad va vazifalarini tushuntirish va **Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlari** bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradi.

3. **2026-yil 15-31-yanvar** kunlari o'ziga biriktirilgan hisob uchastkasidagi aholi, korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar oldiga borgan holda **Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlari** bo'yicha amaliy ishlarni olib boradi.

4. **2026-yilning 1 - 3-fevral kunlari** – Internet orqali ro'yxatdan o'tgan respondentlar va ularning uy manzillari ro'yxatini oladi hamda biriktirilgan hududi doirasida taqqoslash ishlarini bajaradi.

5. **2026-yilning 4-28-fevral kunlari** o'ziga biriktirilgan hisob uchastkasi hududida joylashgan turar joy va aholi yashashi mumkin bo'lgan noturar joy binolariga borib, barcha xonadonlarni va ularda yashovchi aholini planshet qurilmasi yordamida so'rov o'tkazish orqali to'liq ro'yxatga oladi.

6. **2026-yilning 1-3-mart kunlari** – o‘ziga biriktirilgan hisob uchastkasidagi uy-joy manzillarining 10 foizini tanlanma ravishda nazorat kuzatuvi asosida o‘rganadi.

7. Yashab turgan turar joyida **ro‘yxatdan o‘tishni istamagan** respondentlarga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idorasida tashkil etilgan **statsionar ro‘yxatga olish uchastkasiga** borishlari to‘g‘risida ogohlantiradi.

8. **Uch marta tashrif** buyurilganda ham xonadonida topilmagan respondentlar bo‘yicha **mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi mavjud ma‘lumotlar asosida ro‘yxatga olish savolnomasi shakllarini to‘ldiradi.**

9. Planshet qurilmasi yordamida oflayn ravishda ro‘yxatga olingan aholi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni quyidagi tartibda **ro‘yxatga olishning ma‘lumotlar bazasiga yuboradi:**

- Internet tarmog‘i mavjud bo‘lgan hududlarda ishlayotgan ro‘yxatga oluvchi xodimlar **har 2 soatda** bir marta Internet tarmog‘iga ulanib, ma‘lumotlarni yuboradi;

- Internet tarmog‘i mavjud bo‘lmagan hududlarda ishlayotgan ro‘yxatga oluvchi xodimlar **kun yakunida** Internet tarmog‘i mavjud bo‘lgan o‘ziga yaqin va qulay hududga kelib, ma‘lumotlarni yuboradi.

10. Kun yakuni bilan ro‘yxatga olingan xonadonlar va aholi soni to‘g‘risida **ro‘yxatga olish uchastkasiga axborot beradi.**

11. Jinoyatchilikka moyil va tarbiyasi og‘ir xonadonlarda ro‘yxatga olish ishlarini **ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlari ishtirokida amalga oshiradi.**

12. Tashrif buyurgan xonadonda spirtli ichimliklar, narkotik va turli psixotrop moddalar iste‘mol qilgan yoki iste‘mol qilish jarayonidagi shaxslarga duch kelgan taqdirda ular bilan muomalaga kirishmasdan xonadonni zudlik bilan tark etadi, **bu haqda ro‘yxatga olish uchastkasini, ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlarini xabardor qiladi.**

13. Ro‘yxatga olish jarayonida aniqlangan **mehnat xavfsizligiga ta’sir etuvchi omillar haqida ro‘yxatga olish uchastkasiga axborot beradi.** (*Aholi tomonidan tushunmaslik, qarshilik ko‘rsatish, qo‘rquv, tahdid yoki zo‘ravonlik holatlari, shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi, o‘g‘irlik, talafotlar, qurilmalarning tez o‘chishi, ma‘lumot yo‘qolishi xavfi, elektr zaryadlovchi qurilmalar bilan bog‘liq nosozliklar).*

14. Ro‘yxatga olish jarayonida o‘zining xavfsizligiga tahdid bo‘lsa yoki tahdid bo‘lish ehtimoli yuzaga kelsa **ro‘yxatga olish uchastkasiga xabar beradi.**

15. Ro'yxatga olish bilan bog'liq boshqa topshiriqlarni **o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi.**

III. Ro'yxatga oluvchi xodimning huquq va majburiyatlari

16. Ro'yxatga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

ro'yxatga olish savolnomasi doirasida respondentlardan shaxsga doir ma'lumotlarni olish;

biriktirilgan hududda ro'yxatga olish ishlarni bajarganlik uchun mehnatiga haq olish;

ro'yxatga olish jarayonida tuman/shahar shtabidan va ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'idan kerakli ma'lumotlarni so'rab olish;

targ'ibot maqsadlarida targ'ibot materiallarini bepul asosda qabul qilib olish.

17. Ro'yxatga oluvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

respondent bilan suhbat o'tkazishdan (shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ishni boshlashdan) oldin respondentga o'z guvohnomasini ko'rsatish;

o'z vakolatiga muvofiq ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi;

ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i ko'rsatmalari va topshiriqlarini so'zsiz bajarish;

shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish jarayonida ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro'yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

ro'yxatga olish savollarini respondentlarning so'zlari asosida to'ldirish;

shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi, ularning mazmunini oshkor qilmaslik;

aholi va hamkasblari bilan xush muomala, odob-axloq doirasida munosabatda bo'lish;

ro'yxatga olish davrida maxsus bedjikda bo'lish;

mazkur lavozim yo'riqnomasi shartlariga qat'iy rioya etish.

IV. Ro'yxatga oluvchi xodimning javobgarligi

18. Respondentlardan yig'ilgan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi, ularning mazmunini oshkor qilmaydi.

19. Ro'yxatga olish hujjatlari hamda tovar-moddiy boyliklarni saqlaydi.

20. Ro'yxatga olish uchastkasi boshlig'i tomonidan qo'yilgan talablarni va ushbu yo'riqnomada belgilangan funksional vazifalarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

21. Ro'yxatga oluvchi ushbu lavozim yo'riqnomasida o'ziga yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va majburiyatlarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, o'ziga berilgan vakolatlar va huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi, shuningdek, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini to'g'ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

22. Ro'yxatga oluvchi xodimning qayd etilgan vazifalari, funksiyalari va majburiyatlarini bajarmasligi, talab darajasida bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi, vakolatlari va huquqlaridan noto'g'ri foydalanishi, rahbariyat qarorlari, buyruqlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini ijro etmasligi oqibati xususiyatiga qarab amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishiga olib keladi.

Mazkur lavozim yo'riqnomasi bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini olaman:

(imzo)

(sana)